Республикадан Европа халқы миграциялық көшип-қонысласыўының тезлесиўи 80 жыллар ақырына келип күшейди.

1980-жылларда СССР да экономикалық кризистен өсиўи республикада жергиликли халықтың жумыссызлығы үлкен машқала болып қоймастан, ал Өзбекстанда европалылар арасында да миграцияға себеп болды. Қазақлар Қазақстанға, туркменлер Туркменстанға көшип баслады. Ҳәзирги ўақытқа келип бир қатар миллет ўәкиллери толығы менен көшип болды. Булар еврей, немец қусаған миллет ўәкиллери.

Қарақалпақстанның көп миллетли қурамының қәлиплесиўи республика халқының тәбийий ҳәрекети ҳәм туўылыўшылық уқсаған демографиялық процесслердиң раўажланыўындағы айырмашылықларының белгили дәрежесине байланыслы болды.

Республика халқының басым көпшилигин өзбек, қарақалпақ миллет ўәкиллери қурайды. Халқының саны бойынша биринши орында өзбеклер (537079 адам), екинши орында қарақалпақлар (510227 адам), ал үшинши орында (356516 адам) қазақ миллет ўәкиллери турады [4**].** Тәбийий өсим тийкарынан жергиликли миллет ўәкиллери қарақалпақлар, өзбеклер, қазақлар ҳәм туркменлер арасында болмақта. Қарақалпақстанда рус, татар, корейц ҳәм басқа европа миллет ўәкиллери барған сайын азайып бармақта.

Қарақалпақстан халқы тез пәт менен өсип атырған республика есапланады. 1897 жылы республика аймағында 192,7 мың адам жасаған болса, ҳәзирги күнге келип бул көрсеткиш 1530,2 мың адамды қурады [5]. Халықтың бундай көбейип барыўы биринши нәўбетте оның туўылыўшығы менен байланыслы болды. Туўылыўшылық - биологиялық процесс болып, ол социаллық, экономикалық ҳәм демографиялық процесслер тәсиринде бәрқулла өзгерип турады.

Әдебиятлар

1. Муртазина Р.Б.Роль села в развитии демографического потенциала Республики Узбекистан // Извести Академии труда и занятости. – Ижевск, 2002. – № 1/2. – Б.149–153
2. Ртвеладзе Э.В.Миграция народов в Средней Азии // Ижтимоий фикр. Инсон Хукуклари. – Тошкент, 2002. – № 2. – С.38-42
3. O‘zMA. Фонд Р. 16-19 , опись 1, листь, 3.
4. O‘zMA. 16-19 Р. Фонд , опись 11, листь. 8.

5. O‘zMA. Фонд, Р-16-19, опись, 11,листь 3,4.

ТАРИХ ФАНЛАРИДА ҲОРИЖИЙ ТАЖРИБАЛАР АСОСИДА МУСТАҚИЛ ТАЪЛИМНИ ТАШКИЛ ҚИЛИШНИНГ НАЗАРИЙ МАСАЛАЛАРИ

Сарыбаев А.К.
Ажиниёз номидаги НДПИ, Тарих ўқитиш методикаси кафедраси доценти, тарих фанлари кандидати

1. Ўзбекистон Республикаси Олий таълим муассасаларида чуқур назарий ва амалий билимлар билан бир қаторда танланган соҳаси бўйича мустақил фаолият кўрсата оладиган, ўз билими ва малакасини мустақил равишда ошириб борадиган, масалага ижодий ёндошган ҳолда муаммоли вазиятларни тўғри аниқлаб, таҳлил килиб, шароитга тез мослаша оладиган мутахасисларни тайёрлаш асосий вазифалардан бири сифатида белгиланади.

2. Ҳозирги даврда мамлакатимизда таълим-тарбия тизимини тубдан янгилаш, уни замон талаблари даражасига кўтариш, жисмонан ва руҳан соғлом авлодни тарбиялаш ҳамда юксак умумкасбий маданиятга, ижодий ва ижтимоий фаолликка, ижтимоий-сиёсий ҳаётни мустақил ҳал этишга қодир кадрларнинг янги авлодини шакллантириш бугунги куннинг муҳим вазифаларидан биридир. Мамлакатимизда ўтказилаётган демократик ва ҳуқуқий ислоҳотлар, фуқаролик жамиятини шакллантиришнинг юксак талаблари ва замонавий, халқаро стандартларга жавоб берадиган юқори малакали кадрларни тайёрлаш тизимини янада такомиллаштириш таълим тизимини тубдан ислох қилиш ва модернизация жараёнларини чукурлаштириш, илғор технологиялар, инновацияларни таълим ва тарбия жараёнларига тадбиқ этишни тақазо этмоқда. Бу борада 2017 йилнинг 7 февраль куни Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида” Фармони қабул қилинганлиги ва мазкур Фармон билан “2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг Ҳаракатлар стратегияси” тасдиқланганлиги алоҳида аҳамият касб этади. Жумладан, умумий ўрта таълим, ўрта махсус ва олий таълим сифатини яхшилаш ҳамда уларни ривожлантириш чора-тадбирларини амалга ошириш Ҳаракатлар стратегиясининг “Ижтимоий сохани ривожлантириш” [1: 25-26, 61-63] деб номланган тўртинчи йўналишида ўз ифодасини топган.

3. Маълумки, ахборот ва билимлар доираси тез суръатлар билан кенгайиб бораётган ҳозирги шароитда барча маълумотларни фақат дарс машғулотлари пайтида талабаларга етказиш вақт нуқтаи назаридан амалга ошириш мушкул вазифа ҳисобланади. Инсон билим олиш жараёнида асосий билим, кўникма ва малакаларни ўз устида мустақил таълим жараёнидагина такомиллаштириб боради. Шу маънода талабаларнинг мустақил таълим олишларини режалаштириш, ташкил қилиш, дарс машғулотларида маълум билимлар билан қуроллантириш билан бирга уларни маълум мавзулар бўйича мустақил таълим олиш учун йўлланма бериш олий таълим муассасаларининг асосий вазифаларидан бири ҳисобланади.

Тажрибалар шуни кўрсатадики, талаба мустақил равишда шуғулланса ва ўз устида тинимсиз ишласагина билимларни чуқур ўзлаштириши мумкин. Талабаларнинг асосий билим, кўникма ва малакалари мустақил таълим жараёнидагина шаклланади, мустақил фаолият кўрсатиш қобилияти ривожланади ва уларда ижодий ишлашга қизиқиш пайдо бўлади. Шунинг учун талабаларнинг

мустақил таълим олишларини режалаштириш, ташкил қилиш ва бунинг учун барча зарурий шарт-шароитларни яратиш, дарс машғулотларида талабаларни ўқитиш билан бир қаторда уларни кўпроқ ўз устида мустақил таълим олиш учун йўлланма бериш олий таълим муассасасининг асосий вазифаларидан бири ҳисобланади.

4. Олий таълим муассасаларида бугунги кунда амалда талабалар мустақил таълим тизимини танқидий ўрганиб чиқиш ва уни такомиллаштириш бугунги куннинг долзарб масалаларидан бири ҳисобланади. Айниқса ривожланган хорижий мамлакатларнинг талабалар мустақил таълимдаги илғор тажрибалар, жумладан унинг ижобий томонларини қўллаган ҳолда амалдаги талабалар мустақил таълимини такомиллаштириш мақсадга мувофиқ хисобланади.

Маълумки хозирги замонда АҚШ, Германия, Англия, Франция, Жанубий Корея, Япония ва Хитой давлатлари илғор давлатлар қаторидан нуфузли ўринга эга бўлиб келмоқда. Шундай экан, ушбу давлатларда қабул этилган таълим тизими [2: http://www.study.uz/] билан таншиб чиқишимиз ва уларда эришилган ўқитиш технологияларини ўрганишимиз зарур. Мазкур давлатларнинг таълим тизими бир биридан кескин фарқ қилмасада ўзига хос кўрсатгичлари мавжуд. Уларнинг таълим тизими асрлар давомида миллий анъаналарга ва иқтисодиётни ривожланишига кўра шаклланиб келган.

Шуни айтиш лозим, ҳозирги кунда Европа давлатлари таълим тизимларини ягона стандартга келтириш йўлида иш олиб бормоқдалар, бунга Болония жараёни сабабдир. Унга кўра Европа давлатларининг олий таълим тизимларини ўзаро яқинлаштириш асосида Европанинг ягона олий таълим майдонини яратишдан иборат. Бу талабалар мустақил таълим тизимини ташкил этиш ва бошқариш жараёнида ҳам ўз аксини топган. Унда Европа давлатларнинг олий таълимнинг индивидуаллаштируви билан ажралиб туради – бу ҳар бир талабанинг индивидуал режа ва таълим дастурларига эга эканлигини ифода этади. Талаба танлови асосидаги фанлар 70%ни, мажбурий фанлар эса 30%дан ошмайди. Талабанинг мустақил иш ҳажми 70%ни, аудиториядаги иши эса 30%ни ташкил этади. Ушбу кўрсаткичлар индивидуал таълимни ташкил қилишга асос бўлиб хизмат қилади. Жумладан, таълимнинг самарадорлиги – гуруҳда индивидуал ўқитишли аудитория машғулотлари ва талабанинг мустақил ишларини уйғунлаштириш орқали таъминланади. Аудитория ўқув вақтининг 70%гача қисмини индивидуал ўқитишга, шунингдек умумий ўқув вақтининг 70%гача қисмини мустақил ишга ажратилиши ўқув фанларининг талабалар томонидан ўз қобилиятлари даражасида ўзлаштиришга имкон яратади. Ушбу билан таълимнинг самарадорлиги таъминланади. Шунингдек, таълим жараёнида аудитория ва мустақил ўқитиш шаклларининг самарадорлигини ошириш йўлида хорижий университетлари тарафидан қатор ўқитиш методлари яратилган - “Силлабус”, “Кейс-стади”, “ФСМУ”, “Ассесмент”, “Инсерт”, “Тушунчалар таҳлили”, “Венн Диаграммаси”, “Блиц-ўйин”, “Брифинг” ва “Портфолио” услублари ва улар Европа давлатларининг олий таълим тизимларида ўқув жараёнига кенг тарқатилган.

5. Хорижий давлатлар олий таълим тизимида мустақил таълим жараёнини ташкил этиш ва бошқариш жараёнида онлайн ўқув курсларидан самарали фойдаланиш жиҳатларини ўрганиш катта амалий аҳамиятга эга. Бугунги кунда электрон таълим мустақил таълимни ташкил этишнинг самарали усули сифатида дунёнинг кўпгина нуфузли олий ўқув юртлари бепул “онлайн” курсларини тақдим этмоқда. Тажриба тариқасида илк бор ташкил этилаётган мазкур дарслар дунёнинг барча давлатларидаги талабалар учун очиқ.

Оммавий онлайн очиқ курсларнинг сони кўп бўлганлиги сабабли, керак бўлган курсни топиш учун махсус интернет сервислар мавжуд бўлиб бу сервислар орқали қизиқарали бўлган курсларни топишингиз мумкин. Булар қуйидагилар: coursebuffet.com, degreed.com, academicearth.org, mooc.studentadvisor.com, knollop.com, eclass.cc, mooc-list.com, mooctivity.com. Дунёнинг нуфузли университетлари тақдим этаётган ушбу бепул "онлайн" курслари: Coursera.org – https://www.coursera.org/; EdX – https://www.edx.org/; Udemy –https://www.udemy.com/; LinguaLeo – http://lingualeo.ru/; busuu – http://www.busuu.com/enc/; TED – http://www.ted.com [3: 34].

6. Хулоса қилиб айтганда, хорижий давлатлар олий таълим тизими ривожланиш тенденцияларининг қиёсий таҳлили натижасида, етакчи давлатларнинг ижтимоий иқтисодий ривожланиши, миллий, тарихий анъаналари асосида шаклланган жиҳатларини ўрганиш катта амалий аҳамиятга эга. Мустақил таълим учун белгиланган (тавсия этилган) мавзулар тарих фанининг турли соҳаларини қамраб олар экан, албатта уларни ўрганишда ўзига хос тарзда ёндашиш талаб этилади.

Адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисидаги». –Тошкент: Адолат, 2017. –Б. 3-17
2. http://www.study.uz/ - хорижий давлатлар таълим тизими. Ўзбекистоннинг веб сайти.
3. Хамидов В. АКТ ва таълим сифатини таъминлаш. //Ўқув-услубий мажмуа. – Тошкент, 2016.

САЙФ УЗ – ЗАФАР НАВБАХАРИЙДЫҢ ЭТИКАЛЫҚ КӨЗ-ҚАРАСЛАРЫ
(«Дурр ул- мажолис» шығармасы мысалында)

[1]Есназарова З., [2]Хужаниязов У.
[1]Әжинияз атындағы НМПИ, Жәмийетлик пәнлер кафедрасы доценти, тарийх илимлери кандидаты
[2]Әжинияз атындағы НМПИ, Жәмийетлик пәнлер кафедрасы аға оқытыўшысы, Тарийх илимлери философия докторы (PhD)

"Мажилислер дурданасы" шығармасы Сайфу уз-Зафар Навбахарий тәрепинен жазылған болып, Шығыста кең тарқалған. Қол жазба қолдан-қолға өтип адамлар сүйип оқыйтуғын тарийхый-философиялық шығармалардан бири. Бул белгили шығарма парсы тилинде жазылған ҳәм 33 баптан ибарат. Шығарманың мазмуны тийкарынан, этика философиясына бағышланған болып, түрли гүрриңлер арқалы инсанлардың ҳүжданлы, ҳадал болыўға, биреўдиң ҳақысын жемеўге, сақыйлыққа, адамгершиликке, әсиресе, ата-ананы қатты ҳүрмет етиўге шақырады. Гүрриңлердиң мазмунына итибар беретуғын болсақ, Қуран аятлары ҳәм ҳадислер менен беккемленип, дәлийлленип барады. Соны да атап өтиўмиз керек, шығармада гүрриңлер өтмиштеги пайғамбарлардың ибратлы турмыслары, Мухаммед пайғамбар, Абу Бакир, Сиддиқ, Омар, Оспан ҳәм Алий, олардан кейинги өткен белгили тассаўып шайыхлары, сол дәўирдиң белгили ойшылларының үлгили турмысы ҳаққында баян етилген. Усы көз-қарастан алып қарағанымызда этика философиясы тараўында Сайф уз –Зафар Навбахарийдиң инсан ҳәм оның жәмийетте тутқан орнына итибар берген. Демек, Навбахарийдиң тийкарғы идеяларының бас принципи – инсанлардың

әдеплилик философиясының тийкарғы категориялары болған, ар-намыс, қәдир-қымбат адамды тәрбиялаўда үлкен әҳмийетке ийе болған этиканың ҳәм мораллық сананың тийкарғы категорияларын алып қарайды. Мазмуны бойынша бир-бирине жақын болған бул түсиниклер адамның қәдир-қымбатын, жәмийеттиң адамға қатнасын ашып көрсетеди, адамның әдеп-икрамлылық баҳалылығын билдириў хызметин атқарады.

Бул ҳаққында Навбахарий былай жазған еди: «Ата-ананы шад етиўдиң пазыйлетлери ҳаққындағы баянламасында бир жигит анасының хызметин қойып, Каъба зийратына бармақшы болады, қарақшылар жолда оның қол, аяғын кесип, жолдың үстине таслап кетеди. Бул жағдай Байтул-Шарапатлы муаззин (азан айтыўшы) түсине киреди, түсинде биреў:

- Тур, пәлен жерге барып, бир майып жигитти тап, оның аўҳалы аўыр! – деди. Муаззин жигитти излеп тапты ҳәм оннан:

- Неге бул жағдайға түстиң? – деп сорады.

- Анамның хызметин етиўдиң орнына Каъбаға кетип едим, сол себепли бундай бәлеге тап болдым! – деди ол.

Бас, анасының хызметин етпей, Каъбаға кеткен адамның аўҳалы сол болса, анасын наразы қылған адамның ҳалына не айтыў мүмкин, аҳўалы не болады!

Жигит:

- Қудай тааланың разылығы ушын мени анамның алдына жеткизиң, анамнан кеширим сорап, қол-аяғым жоқ болса да, кеўлин алып разы етейин,- деди.

Ол жигитти алып, анасының алдына алып келеди. Бангоҳ, үй ишинде анасының:

- Илайым, перзентлеримниң аҳўалы Арабияда не кешип атыр билмеймен, Алла-тала баламды маған қайтар, сонда мениң кеўлим тыныш болады,-деп сөйлеп атырған даўысын еситти. Жигит тақатсызланып есикти қақты. Анасы есикти қағып атырған ким екен, бәлким ғәрийп перзентимниң хабарын алып келген болса,- деп, тез үйинен шығады. Қараса, бир ғәрийп киси отырыпты. Оған деди:

- Әй мүсәпир, ашпысаң, нан берейинбе?

Жигит:

- Нанды? Қалай нан алайын, қолларым жоқ! – деди.

Анасы бул сөзди еситип:

- Әй жигит, қаяқтан киятырсаң? Даўысың баламдикине уқсайды! – деп, жүгирип кирип, үйден шыра алып шығады. Қараса, мүсәпир тап оның баласына уқсайды!

Ҳаял жылап, деди:

- Бир балам бар еди, Каъбаға кеткен еди, бийазар пақыр еди, сен тап мениң перзентиме уқсайды екенсең!

Жигит бийтақат болып:

- Әй ана, айтып отырған перзентиң менғо! – деди.

Кемпир бул сөзди еситиўи менен есинен танып жығылды. Бир аздан кейин өзине келди.:

-Қудайым, перзентиме әдеп бердиң, енди оны өлтирме! – деп Қудайға өтиниш етти.

Демек, ата-ананы разы етиў ең жоқарғы адамгершиликли ис екенлиги көрсетиледи. Әлқысса, бир күни Саййид алам яки Мухаммад алайҳис салам гөристанлықта жүрген еди. Бир гөрден: «Астымда от үстимде от, оң жағымда от, шеп тәрепимде от!» деген даўысты еситти. Пайғамбар алайҳис салом Мәкка қаласына хабар берип ҳәр ким өзине тийисли гөр алдына келди. Бираздан кейин бир кемпир гөрдиң қасына келип отырды, .

Пайғамбар алайҳиссалам кемпирден:

Кемпир:

- Перзентим, бирақ мен бундай улдан бийзарман,- деди.

Пайғамбар алайҳиссалам:

- Оннан неге разы емессең? – деп сорады.

Кемпир деди:

- Соның ушын - мениң кеўилимди аўыртқан.

Пайғамбар алайҳиссалам:

- Әй Қудай, ҳижабты көтер, баласының жағдайын көрсин!,-деди.

Усы ўақытта хижаб көтерилди. Анасы баласының гөри от пенен толтырылғанын көрди. Перзенти от ишинде күйетуғын еди. Ана гөр толы оттан баласын көрип, бийҳуш болып жығылады. Бираз сааттан соң есине келип, деди:

- Қудай, бенде мен перзентимнен разыман, өз камалы қарамың менен оннан разы бол!

Ол бул сөзлерди айтып тамам қылмай турып, улы азаптан азат болды [1:62,64 Б].

Навбахроийдиң гүрриңлерин изертлей отырып, тийкарынан избе-из түрде адамгершилик қәсийеттиң өзлигинен емес, басқа әдеп-икрамлылық категориялары менен өз-ара байланыслы деген жуўмаққа келемиз. Бул жағдайды уйымластырыўшы ар-намыс, ҳүждан алып қаралады. Тарийхта түрли типтеги адамлар өз ислерин «ар-уятымыз бойынша ҳәрекет еттик» деп түсиндиреди. Конфуций менен Сократ, Заратуштра менен Платон, Ийса менен Мухаммед адамларды руўхыйлыққа, ар-уят пенен ҳүждан сестине қулақ салыўға шақырса, инкивизиторлар менен тиранлар, фашистлер менен террористлер ҳәр сапар өз ар-уят бойынша ҳәрекет еттик, деп есаплайды [2]. Егер адамның ар-намысы, ҳүжданы оқылса, адам негизги қумарлықтан бас тартады ҳәм ол жақсы ислерди жақсы көреди [3].

Әдебиятлар

1. Навбахорий, 62,64 бетлер.
2. Ж. Базарбаев. Әдеп философиясы. Нөкис. «Қарақалпақстан» 2010, Б. 102.
3. Нардаев А.У. Проблемы духовного совершенствования в сборнике «Дурр ул - Мажолис» (Жемчужины беседы) Сайфул- Зафара Навбахорий. Авторефрет дисс. Т., 1997 .14. бет.

АНТИК ДАВРДА ХОРАЗМ МЕТАЛЛСОЗЛИК ҲУНАРМАНДЧИЛИГИ СОҲАЛАРИ ТАРАҚҚИЁТИ

Турганов Б.Қ.

Нукус давлат педагогик институти

Тарих ўқитиш методикаси кафедраси доценти, т.ф.н.

Мил. авв. IV аср Хоразм цивилизацияси тизимида янги даврнинг бошланиш нуқтаси эди. Бу даврда Жигарбанд, Туямўйин сув омбори ҳудуди, Капарас, Элхарос, Садвар ва бошқада кўплаб янги қалъалар ва қишлоқ маконлари ҳунармандчилик марказларига айлана бошлади.

Антик даврдаги Хоразмнинг ўзига хос хусусияти ҳунармандчилик устахоналари фақат қалъаларда эмас балки, қишлоқ маконларида ҳам жойлашганлигидадир. Мил. авв. IV-II асрларда Довдон ирмоқларига яқин Таримқоя ва Тузқир қирларида, Тузқир ва Нурум воҳаларида ҳунармандчиликка ихтисослашган қишлоқлар шаклланган.

Антик давр қалъалари ва қишлоқ маконларида темирчилик, рихтагарлик ва заргарлик соҳаларида маҳсулот ишлаб чиқариш ҳажми кенгайади. Улардан

Қалалиқир 2 (мил. ав IV–I аср) ёдгорлигидан бронзадан буюмлар қуйиш ва темирчилик устахоналари аниқланган, у билан боғлиқ тигел ва сопол бурунлар, металл буюмлар, дашқол, шлак қолдиқлари қайд қилинган.

Хоразмнинг сарҳад ҳудудлари бўлган Гаўир қалъа 2 дан унчалик узоқ бўлмаган ҳудудда кўп тармоқли Нурум ҳунармандчилик макони жойлашган. У жойдан 40 дан ортиқ кулолчилик хумдонлари, шунингдек рихтагарлик ва темирчилик излари аниқланган [Болелов: 72].

Қойқирилган – қаладан ҳам металлсозлик билан боғлиқ ишлаб чиқариш мажмуаси очилган [Кой–крылган–кала:16]. Шунингдек, Қўйқирилган қалъа ва Тупроқ қалъадан сопол бурунлар (темирчилик кўрасини ҳаво билан тўлдиришда ишлатилади) ва қолиплар топилган [Топрак– кала: 216-220].

Қўйқирилган қалъа, Тупроққалъа топилмалари ичида темирчилик, қуролсозлик, рихтагарлик, заргарлик соҳаларига оид маҳсулотлар кўплаб учрайди. Жумладан, зеби–зийнат буюмларидан ўнтагача олтин безаклар, олтин суви юритилган ниқоблар, кумуш идишлар, мис қошиқлар, темирдан ишланган зирҳли совут қолдиқлари, бронза ва мисдан ясалган заргарлик буюмлари топилган [Кой–крылган–кала:147-161; Топрак– кала: 216-227].

Антик даврда Хоразмда мис, бронзадан маҳсулотлар тайёрлашдан ташқари, кумуш идишларни ишлаб чиқариш ва уни ташқи савдога чиқариш йўлга қўйилган. Жумладан, Хоразмда тайёрланган кумуш идишлар мил.авв. III–II асрларда Кама ва Урал бўйларига экспорт қилинган. Омскдан яқинидаги Биринчи Исаковский қўрғон – мозори дафн жиҳозлари ичидан мил. авв. III– II асрларга оид Хоразм ёзуви туширилган кумуш идишлар (3 – дона) топилган [Лившиц:43-56].

Хоразмда ишлаб чиқарилган бошқа битта кумуш идиш Россиянинг Курган вилояти Каргополский тумани Уст – Миасс қишлоғи яқинидаги Миас дарёси қуйи қисмидан қайд қилинган [Сальников:193]. Тупроққалъадан ҳам устки юзаси очиқ чаноқсимон, унчалик катта бўлмаган кумуш идиш топилган.

Антик даврда Султонувайс тоғидаги конлардан мис рудасини қазиб олиш йўлга қўйилган. Конларга яқин атрофдаги Ақтаў (мил.ав. IV–II аср) макони, Занги–бобо ва Гаўир қалъа қўрғонларида мис рудасини қайта ишлашган [Манылов: 16]. Бу даврда кончилик, металлургия ва металлсозлик соҳаларида бир қанча амалий тажрибалар тўпланганлигини кўрсатади

Антик давр қалъаларида заргарлик буюмлари ассортаменти ва металл маҳсулотлар ҳажми кескин кўпайиши кузатилади. Кўзалиқир, Бозор–қалъа, Қойқрилганқалъа, Тупроқ қалъадаги артефактлар бундан яққол гувоҳлик беради. Бу даврда Тупроқ қалъа, Қуйқирилган қалъа, Аязқалъа, Бургутқалъа ва бошқа ёдгорликлардан олтин, бронзадан ясалган қулоқчали қуббасимон қўнғироқча тарзидаги шокилалар, туя, хўроз, чўчқа, фил каби турли хил жонзодлар қиёфасидаги безак буюмлари қайд қилинган [Турганов: 19].

Тупроққалъа, Қойқирилган қалъа, Бозорқалъа, Миздахон ва бошқада антик давр ёдгорликларида билагузук, узук, сирға, шокила ва бошқада безак буюмларнинг хилма–хил тур ва шакллари кенг тарқалади.

Таъкидлаш мумкинки, антик давр ёдгорликларида қайд қилинган темирчилик ва бронзадан буюмлар қўйувчи ўчоқ излари, сопол бурун, қолиплар, меҳнат қуроллари, қурол–яроғлар, заргарлик ва безак буюмлари сифати ва уларнинг хилма–хиллиги темирчилик, қуролсозлик, рихтагарлик, заргарлик соҳалари тараққий қилганлигидан далолат беради. Бу даврда металлсозлик соҳаларида ихтисослашув жараёни юз

беради. Маҳаллий ҳунармандлар томонидан ишлаб чиқарилган заргарлик ва бадиий металл буюмларнинг бир қисми ташқи бозорга экспортга чиқарилган.

Адабиётлар

1. Болелов С. Гончарство древнего Хорезма: формы организации ремесла (VI в. до н.э.– IV в. н.э.) // Этнографическое обозрение. 1997. №2. – С.72.
2. Топрак– кала. Дворец. ТХАЭЭ. XIV. –М.: Наука, 1984. – 303 с.
3. Кой–крылган кала памятник культуры древнего Хорезма IV в до. н.э. – IV в н.э. // ТХАЭЭ. T.V. – М.: Наука, 1967.– 349 с.
4. Лившиц В.А. Три серебряные чаши из исаковского могильника.–Могилника. №1 // Вестник древней истории. 2002. №2 (вклейка к статье В. Лившица). – С.43–56.
5. Манылов Ю.П. Археологические памятники Султануиздага эпохи античности и средневековья. Автореф. дис. … канд. ист. наук. – Ташкент, 1972. – 20 с.
6. Сальников К.В. Хорезмская тамга в Зауралья // ТХАЭЭ. Том.1. – М.: 1952. – С.193-196.
7. Турганов Б. Қадимги ва антик даврларда Хоразм заргарлик ҳунармандчилиги // Марказий Осиё тарихи ва маданияти” мавзусидаги Халқаролик илмий амалий анжуман. – Тошкент. 2023. - Б. 80-83.

ПЕДАГОГИКАЛЫҚ ИНСТИТУТ БАЗАСЫНДА УНИВЕРСИТЕТ АШЫЎ МӘСЕЛЕСИ

[1]Айтмуратов Ж., [2]Қалимбетов Б.

[1]Бердақ атындағы ҚМУ Археология» кафедрасы профессоры ў.а.

[2]Бердақ атындағы ҚМУ Археология» кафедрасы асиссенти

Өзбекстан Республикасы Президенти Шавкат Мирзиёевтың басламасы менен "Жаңа Өзбекстан" Университетине тийкар салыныўы [1] абыройлы сырт ел оқыў орынларының билимлендириў бағдарламасы тийкарында жоқары кәсиплик билим ҳәм маманлықларға ийе болған перспективалы кадрлар таярлаў, студенлердиң интеллектуаллық қәбилетин раўажландырыўда ҳәр тәреплеме қолайлы орталықты қалиплестириў менен бирге миллий тиклениўден миллий раўажланыўға ерисиў жолында жаңа басқыш болды.

1934-жыл 1-июльдағы Қарақалпақстан АССР Халық комиссарлар кеңеси қарарында Қарақалпақстанда дәслепки жоқары оқыў орнын ашыў зәрүрлигин тийкарлап берди [2]. 1934-1935 оқыў жылының басында Төрткул қаласында педагогикалық институттың таярлық бөлими 60 адам курамында ашылып, 1935-1936 оқыў жылынан баслап, таярлық бөлими базасында педагогикалық институт өз хызметин баслайды. Педагогикалық институттың дәслепки басқарыўшылары И.Ибрагимов, И.Рафиқов, Д.Базаров, Я.М.Досумов, Т.Бекимбетов, Ж.А.Орынбаевлар болса, буннан кейинги дәўирде К.Убайдуллаев А.П.Тетюшев, С.Камалов, К.Р.Рзаев, Т.И.Изимбетовлар басқарып келди [3]. Педагогикалық институттың профессор оқытыўшылары курамында Н.Даўқараев, Ф.Д.Качанов, М.В.Щеглов, У.Б.Булешев, М.Галекеев, М.А.Музаффаров, Н.Асфандияров, К.Бердимуратов, А.Есемуратовлар ислеген.

1938-жылы 31-майда ҚҚАССР Халық Билимлендириў Комиссары Қ.Айымбетовтың буйрығы менен пединститутттың доценти Н.Даўқараев қарақалпақ тилиндеги сабақлық китапларын редакторлаў ҳәм олардың сапасын жақсылаў ушын

Москваға "Учпед ГИЗ" ҳәм "Центриздат" баспаларында жумыс ислейди. Қарақалпақ тилиндеги сабақлықларды Москвада басып шығарыўда Т.Сафиев, Қ.Ерманов, О.Кажуров, Ж.Аймурзаев, А.Бегимов ҳәм басқалардың хызмети көп болды [4]. Бул дереклерди келтириўимизден тийкарғы мақсетимиз республикамызда педагогикалық институттың дүзилиўи менен дәслепки илимий педагогикалық зыялылар мектебиниң қәлиплескенин көрсетиўден ибарат еди. 1956-1957 оқыў жылында института 6 факультет, 15 кафедра болып, онда 110 профессор-оқытыўшылар тәлим тәрбия ислери менен шуғылланады.

Бул жылларға келип республикамыздың экономикасы ҳәм мәдениятының жедел пәт пенен раўажланыўы халық хожалығының ҳәр қыйлы тараўында қәнигеликлерге зәрүрликтиң артыўы Қарақалпақ Мәмлекетлик университетиниң ашылыўына болған талапты күшейтти. Қарақалпақ мәмлекетлик педагогикалық институтын университетке айландырыў мәселеси 1958-жылы жоқары ҳүкимет орынларының алдына мәселе етип қойылған еди. Қарақалпақстанда пединститут тийкарында университет ашыў мәселеси ең дәслеп XVI Қарақалпақ областының партия конференциясында (11-12 январь 1958-жыл) сол ўақыттағы педагогикалық институттың жәмәәти тәрепинен көтерилген еди [5].
Бул талап етилген хүжжетте 1263 студенттиң тек ғана 200 турақ жай менен тәмийнленгени ал басқалары жеке квартираларда туратуғынлығы сөз етилип, жоқары оқыў орнының материаллық техникалық базасын жақсылаў маселеси талап етиледи.

Ең баслы ўазыйпа республикамыздың халық хожалығы ушын жоқары билимли қәнигелердиң зәрүрлиги, оны таярлаў ушын университет ашыў зәрүр екенлиги тийкарлап берилген еди. Статистикалық мағлыўматларға нәзер салсақ, Қарақалпақстанда 1957-1958 жылларда орта мектеплерди питкериўшилердиң саны 3100, 1958-1959 оқыў жылында 3877, 1959-1960 оқыў жылында 5071 адамды қурайтуғынлығы, пединститут ҳәм сырттағы жоқары оқыў орынлары тек 500-600 адамды ғана оқыта алыўы мүмкин екенлиги, солай етип университет ашылғанда жаңадан қосылатуғын контингентиң жеткиликли болатуғынлығы дәлилленген еди [6]. Соған қарамастан бул жыллардағы республика басшылары университет ашыў мәселесине жан-тәни менен дыққат аўдармады. Бул жылларда Қарақалпақстан областлық Партия Комитетиниң биринши секретары Н.Махмудов (1956-1963жж) еди. Тарийхта ҳәр қандай ийгиликли ислердиң әмелге асыўында өз искерлиги менен танылған жеке адамлардың хызмети де айрықша орын ийелейди.

Ел ағасы Қәллибек Камаловтың 2020-жыл Нөкис "Билим" баспасынан басылып шыққан "Қарақалпақ халқының тарийхы ҳаққында жаңа дереклер" китабында халықтың экономикалық ҳәм мәдений турмысы бойынша статистикалық мағлыўматлар берилген. Мәселен: халық билимлендириўиниң материаллық техникалық базасын тәмийнлеўде 1966-1980 жыллары 91300 орынлық 170 мектеп жаңадан салынса, 1981-1984-жыллары 32500 орынлық 65 мектеп пайдаланыўға бериледи. 1965-1966 жылында республикамызда 4 кәсип техникалық училищеси болып, оларда 1600 бала оқыған болса, 1983-1984 оқыў жылына келип, училищелер саны 45 ке, ал оларда оқыйтуғын балалардың саны 18 мыңға жетти [8].

Қәллибек Камалов республикамызда халық хожалығын заманагөй агротехникалық усылларда раўажландырыў ушын жоқары билимге ийе қәнигели кадрлардың зәрүр екенин, жоқары ҳүкимет орынларының алдына тийкарланып берип, 1966-1967 жыллардан баслап, педагогикалық институт базасында Университет шөлкемлестириў исине белсене киристи. Бул мәселеде Қ.Камаловтың Ш.Рашидовтың қуўатлаўына ерисиўи Москвадағы бир неше лаўазымлы адамлар менен ушырасыўы

ҳәм бес жыл даўамында мәселени шешиўдеги табанлылығы аўқам партия орайлық комитетиниң сиясий бюросының тоғыз ағзасы менен сөйлесип, оларды көндиргенлиги өз халқына деген қалыс, пидайы хызметтиң үлгиси болды.

1974-жылы 26-февральда Университеттиң ашылыўы ҳаққында қарар қабыл етилгеннен кейин, усы жылдың декабрь айында Қ.Камалов сол ўақыттағы Бурынғы аўқам Жоқары ҳәм орта арнаўлы билим бериў министри Вячеслав Петрович Елютинниң қабыллаўына университет қурамында жаңа қәнигеликлер ашыў ҳәм оларда оқытылатуғын материаллық-техникалық базаларының жағдайларын дәлиллеп бериў мәселесинде Тәжен Изимбетов пенен бирге он биринши рет кириўин еске алады.

Усындай қыйыншылықлар менен ашылған университетти Қақимбек Салыков Қарақалпақстанды басқарып турған дәўирде 1989-жылы Обкомның пленумында "Қарақалпаққа университеттиң не кереги бар? Оған юридический факультеттиң не кереги бар? Қарақалпаққа муғаллимлер жетиспейди, институт керек" деп университетти жабыў ушын усыныс билдириўди даўысқа қойып атырған бир ўақытта талантлы искер басшы Султамурат Қаниязов ҳәм областлық партия комитетиниң екинши секретары Дмитрий Дмитриевич Берковлардың табанлылық пенен қарсы турыўына қарамастан, областлық партия комитетиниң секретары Қақимбек Салықов Бурынғы аўқам халық билимлендириўи бойынша мәмлекетлик комитеттиң коллегиясына "Қарақалпақстанның социал-экономикалық раўажланыў дәрежеси төмен, Республикаға университеттиң кереги жоқ, ҳәзир тек ғана педагогикалық кадрлар менен тәмийинлесек жеткиликли…Университетти
тарқатып, педагогикалық институтқа айландырыўымыз зәрүр. Усы мәселелерди шешиў ушын Университетке компетентли Аттестация өткериўиңизди өтиниш етемиз" [9] деген мазмунда хат жоллайды.

Бүгинги күни өзиниң 45 жыллық тарийхына ийе Қарақалпақ мәмлекетлик университети Өзбекстан Республикасы жоқары оқыў орынлары арасында ең абройлы билимлендириў орайына айланды. Мәселен университет ашылғаннан кейин 10 жыл ишинде 20 дан аслам қәнигелик бойынша ҳәр жылы 6 мыңнан аслам студент билим алған болса, бул көрсеткиш соңғы төрт жыл ишинде дәўир талабына сай жаңа қәнигеликлердиң ашылыўы менен төмендегише жетискенликлерге еристи. Мәселен 2017-2018 оқыў жылында университетте 49 бакалавр тәлим бағдары ҳәм 22 магистратура қәнигеликлери таярланған болса, бул көрсеткиш 2020-2021 оқыў жылына келип бакалавр тәлим бағдарларының саны 65 ке, ал магистратура қәнигеликлериниң саны 50 ге жетип, жаңадан 16 бакалавр тәлим бағдарлары, сыртқы бөлиминде 15 бакалавр тәлим бағдарлары, 5 кешки тәлим ҳәм 28 магистратура қәнигеликлери жаңадан ашылды. Соңғы үш жылда студентлер контингенти бакалавр тәлим бағдарында 8621 ден 12295 ке, магистратура қәнигеликлеринде 130 дан, 336 ға жетти.

Халықаралық бирге ислесиў тараўында университетимиз усы күнге шекем Россия федерациясы, Қазақстан, Қырғызстан, Беларуссия, Украина, Португалия, Польша, Словакия, Италия, Испания, Венгрия, Австрия, Германия, Қубла Корея, Азербайжан, Қытай халық республикасы ҳәм Уллы Британияның 55 жоқары орны ҳәм илимий изертлеў институтлары менен бирге ислесиў шәртнамаларын ҳәм меморандумларын рәсмийлестирилген. Бүгинги күни университетимизде илимий дәрежеге ийе профессор оқытыўшыларды жетилистириўде 6 қәнигелестирилген илимий кеңеслер ашылып, жас илим докторларының таярланыўына өз үлесин қосып атыр.

Жуўмақлап айтатуғын болсақ Қарақалпақ Мәмлекетлик Университети буннан 45 жыл бурын Педагогикалық Институттың базасында ашылған болса, бүгинги күнге шекем Университет базасынан Әжинияз атындағы Нөкис Мәмлекетлик педагогикалық Институты, Қарақалпақстан Медицина Институты, Қарақалпақстан аўыл ҳожалығы ҳәм агротехнологиялар институты ҳәм Республикамыздағы жоқары оқыў орны филиалларының ашылыўының тийкарғы базасы болды.

Әдебиятлар

1.Мирзиёев Ш. "Янги Ўзбекистон" Университетини ташкил этиш тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори. Халқ сўзи газетаси. 2021йил 24-июнь №132 (7912)
2. Қарақалпақстан Республикасы Орайлық мәмлекетлик архиви. Фонд.50. опись 1. Дело 132л.177.
3. 40 лет Каракалпакскому госпединституту Нукус "Қарақалпақстан" 1975. 6-б.
4. Теберик билим дәргайы. Нөкис "Қарақалпақстан" 2010 12-б.
10.Қарақалпақстан Республикасы Орайлық мәмлекетлик архиви Ф-1, Оп.9, д.304 л.161-165
5.Қарақалпақстан республикасы Орайлық мәмлекетлик архиви Ф-1, Оп.9, д.304 л.161-165
6. Айтмуратов Ж. Тарийх жылнамасын жаратқан инсан. Нөкис: "Билим" 2021. 9-б.
7. Қ.Камалов Ел хызметинде Нөкис. "Билим" баспасы, 2018-жыл 333бет
8. Қ.Камалов Ел хызметинде Нөкис. "Билим" баспасы, 2018-жыл 358-б.
9. Қуўанышбай Өтениязов. Ойларыма өзеклес өмирим (мемуар) Ташкент "Академия" баспасы 2001-ж 85-б.

АНУШТАКИН ХОРАЗМШОҲЛАР ДАВРИДА ЖАНУБИЙ ОРОЛБЎЙЛАРИДА ИСЛОМ МАДАНИЯТИ

[1]Турганов Б.Қ., [2]Даўлетбаев М.Т.
[1]Ажиниёз номидаги НДПИ Тарих ўқитиш методикаси кафедраси доценти, т.ф.н.
[2]Ажиниёз номидаги НДПИ Ижтимоий-гуманитар фанларни ўқитиш методикаси (Тарих) мутахассислиги магистранти

Ислом дини Арабистон ярим оролида юзага келган бўлсада, унинг қонун қоидалари, тараққиёти ва исломий илмлар ривожланишида Марказий Осиёлик алломаларнинг хизматлари беқиёс даражада катта бўлганлигини бугунги кунда жаҳон ҳамжамияти эътироф этилмоқда. Жумладан, Қорақалпоғистон Республикаси худудида жойлашган Султонувайс бобо, Абдулла Норинжоний, Шибилай Ота, Сулаймон Бақирғоний, Шайх Жалил бобо каби ислом дини тараққиётига ҳисса қўшган йирик алломалар ва тасаввуф шахлари қабрларининг муқаддас ватанимиз тупроғида жойлашиши Республикамизнинг ҳар бир фуқароси учун ғурур бағишлайди.

Айниқса, Ануштакин Хоразмшоҳлар сулоласи ҳукмронлиги даврида (XI-XIII аср боши) Жанубий Оролбўйларида дунёвий ва исломий илмларнинг тараққий қилиши кузатилади. Сулоланинг барча ҳукмдорлари ҳам ўз фуқароларини билимли ва диний маърифатли қилиш мақсадида ўз давлатининг турли чеккаларида кўплаб мадраса, масжид, кутубхоналар қурдирганлиги ҳақидаги тарихий манбаларда маълумотлар мавжуд [Буниятов:118-127]. Жумладан, Жанубий Оролбўйларида Султонувайс Қорайний мақбараси (Беруний тумани), Ҳоким ота мақбараси (Қўнғирот

тумани) ва Ережеп халфа мадрасаси (Хўжайли тумани) Ануштакин Хоразмшоҳлар сулоласи ҳукмдорлари томонидан (XI-XIII аср боши) бунёд этилган.

Султонувайс Қорайний Ислом дунёсидаги машҳур тарихий шахслардан биридир. Ривоятлардаги маълумотларга кўра, Султонувайс Қорайний қабри еттида давлатда мавжуд. Лекин, ҳақиқий жасад Қорақалпоғистон Республикаси Қоратоғ ён бағридаги Султонувайс бобо мақбарасига дафн қилинган ва бу ердаги қабр устига Ануштакин хоразмшоҳлар ҳукмдори бўлган Султон Муҳаммад Хоразмшоҳ томонидан тахминан XIII аср бошида мақбара қурдирилади [Хожаниязов, Юсупов: 25-27]. Мақбара XVI аср ва XIX асрларда қайта қурилган.

Ануштакин хоразмшоҳлар даврида Хўжайли туманида жойлашган халфа Ережеп меъморий иншооти диний илмлар тарқатувчи мадраса сифатида фаолият кўрсатган. Мадрасада мударрислар учун мўлжалланган кафедра ва суфа ўринлари сақланган. Ёзма манбаларда, бундай мадрасалардан бир нечтаси Кат (Беруний тумани) шаҳрида ҳам бўлганлиги тўғрисида маълумотлар мавжуд. Афсуски, Амударё тошқинлари туфайли сақланиб қолинмаган.

XII асрда Жанубий Орол бўйларида тасаввуф таълимоти тараққиётига катта ҳисса қўшган алломалардан бири Сулаймон Боқирғонийдир. У Аҳмад Яссавий шогирди бўлиб, унинг таълимотини ривожландирган ҳамда маҳаллий аҳоли орасида Ҳоким ота номи билан машҳур. У Буғрахон шаҳрида (ҳозирги Қўнғирот туманида) 1122-1188 йилларда яшаб ижод қилган. Сулаймон Боқирғоний Жанубий Орол бўйи худудидаги туркий аҳоли орасида тасаввуф таълимоти ва ахлоқи, ислом ҳуқуқи, шариат каби исломий илмларни тарқатишда катта хизмат қилган. Унинг «Боқирғон китоби», «Биби Марям китоби», «Иброҳим Халил қиссаси», «Охири замон китоби» қиссаларида тасаввуф таълимотининг диний-фалсафий ғоялари акс этган. Боқирғоний қиссаларининг аксарият қисми ўз давридаги маънавий ҳаёт тақозаси билан диний сюжетлар асосида қурилган. Унинг Иброҳим Пайғамбар, Исмоил, Биби Марям, Собит, Нўъмон ва бошқаларнинг тимсолларида исломий эътиқод, поклик, ота ва боланинг бир-бирига ҳурмати, ҳалоллик ғоялари ўзининг чуқур лирик шеърлар асносида ўз ифодасини топган [Сулайман Боқирғоний: 1991].

Сулаймон Боқирғоний ҳикматидаги: «Ҳар кимни кўрсанг Хизр бил, ҳар тун кўрсанг қадр бил» ҳикматида ҳар бир инсонни Аллоҳ яратган буюк неъмат сифатида эъзозлашга, ҳар бир кун учун инсоннинг шукроналик келтириши ва унинг қадрини англашга чақирувчи чуқур ахлоқий-фалсафий ғоялар мужассам топган. Унинг таълимотида инсон ўз нафсини жиловлаши бош ахлоқий муоммалардан бири сифатида кўтарилади. Нафс инсонни тўғри йўлдан чиқарувчи, ахлоқсизликга бошловчи иллат бўлса, ҳалоллик ва иймонлилик каби фазилатлар унинг руҳини Аллоҳ жамолига етишишига ёрдамлашувчи маънавий кучдир. Унинг таълимотида илм инсоннинг ҳар икки дунёси обод бўлишига кўмаклашувчи восита ва калит сифатида кўрсатилади.

Унинг таълимоти Ўрта Осиёдан ташқари, Дашти Қипчоқ ва Волга бўйи худудларидаги кўчманчи туркий халқлар орасида тасаввуф таълимотини тарқатишда ва ислом маданиятининг юксалиши ва равнақи учун хизмат қилган.

Мўйноқ туманида жойлашган Сулаймон Боқирғоний қабри устига бир неча марта, яъни XII –XIV, XVI ва XIX асрларда Хоразм давлати ҳукмдорлари томонидан мақбаралар бунёд этилган. Хива хони Аллақулихон даврида (1826-1843 йй.) даврида қурилган сўнгги мақбара 1935, 1946 йиллардаги Амударёдаги сув тошқини туфайли қулаб тушган. Сўнг 1979 йилда маҳаллий аҳоли томонидан мақбара қайта қурилган [Хожаниязов, Юсупов: 31].

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёев фармонига мувофиқ 2022 йилда бу жойда зиёратгоҳ мажмуаси ташкил этилди. Зиёратгоҳ ўз ичига Сулаймон Бақирғоний мақбараси, масжид ва кутубхонани қамраб олади. Ҳозирда бу жой халқимизнинг ва хорижий туристларнинг ташриф этадиган ажойиб манзилгоҳларидан бирига айланди.

Хулоса қилиб айтганимизда, Ануштакин хоразмшоҳлар ҳукмронлиги даврида Жанубий Оролбўйи Ислом маданияти ва дунёвий илмлар тараққий қилган юксак маданий тараққий қилган ўлкалардан бири бўлган.

Адабиётлар

1. Буниятов З.М. Государство Хорезмшахов-Ануштегинидов (1097-1231). - Москва. Наука, 1986.
2. Ембергенов У., Шомуродов Ж. Сулаймон Боқирғоний (Ҳаким ота). –Тошкент, “Ўзбекистон”, 2015.
3. Хожаниязов Ғ, Юсупов О. Қарақалпақстандағы муқаддес орынлар.-Нокис. Полиграфист, 1994.
4. Сулайман Боқирғоний. Боқирғон китоби. -Тошкент., “Ёзувчи”, 1991.

O’LKAMIZ TARIXINI O’RGANISHDA TARIXIY O’LKASHUNOSLIK VA TURIZM FANINING O’RNI

[1]Reymbaev R., [2]Rustamov O.
[1]Ajiniyoz nomidagi NDPI «Tarix o`qitish metodikasi» kafedrasi
Tarix fanlari falsafa doktori, (PhD),
[2]Ajiniyoz nomidagi NDPI Tarix fakul’teti «Tarix» bakalavr ta’lim yunalishi 3-kurs talabasi

Tasavvuf she’riyatining ulug’ vakili xo’ja Ahmad Yassaviy o’z hikmatlaridan birida shunday degan edi:
“Boshim tuproq, o’zim tuproq, jismim tuproq.
Haq vasliga yetarman deb rihim mushtoq.

Tuproq bu- odam tug’ilib o’sgan o’lka, yurt, makon. Tuproq – bu Vatan. Biz yashab turgan muqaddas Turkiston ming yillardan buyon ne-ne ulug’ zotlarni tarbiya etib kelayotgan zamin. Shu sababli biz uni e’zozlab Ona deymiz. Inson o’zini anglashi eng avvalo o’zi tug’ilgan voyaga yetgan bag’rida qadr topgan o’z ona tuprog’ini e’zozlashdan, uni o’rganishdan boshanadi. Tarixdan ma’lum, qanchadan qancha insonlar o’z tuprog’idan yiroqda Vatan hasratida o’tganlar. Bejiz Vatanni sevmoq iymondandir deyilmagan.

Rus olimi M.V.Lomonosov o’z o’lkasini mukammal o’rganish maqsadida 1761-yili 30 savoldan iborat savol-javob varaqasi tuzib aholi o’rtasida tarqatgan edi. Ayni vaqtda bu bilan o’kashunoslik faniga asos solingan edi. O’lkani o’rganish masalasi O’rta Osiyo, shu jumladan O’zbekiston hududida Rossiyadan ancha keyinroq ya’ni XIX asning ikkinchi yarmidan boshlanadi. Rus olimlari Turkistonning chorizm tarafidan bosib olinishidan ancha ilgari bu o’lkani o’rganish bo’yicha bir qancha ishlar qilgan edilar. Biroq XIX asrning birinchi yarmidagi o’lkani o’rganishni ya’ni mahalliy tarixchilar ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotdagi biqiqlikka mos bo’lib feodal tuzum manfaatlari uchun xizmat qilar edi. 1870-yilda O’rta Osiyo olimlari jamiyati paydo bo’ldi. Bu jamiyat o’z oldiga O’rta osiyo tarixi, geografiyasi statistikasi, iqtisodiyoti, etnografiyasiga oid ma’lumotlarni to’plash va tarqatishni maqsad qigan edi. Uning birinchi ochiq yig’ilishi 1871-yil 28-yanvarda bo’lib o’tdi. 1875-yili Afg’oniston – Buxoro chegarasida yuzaga kelayotgan voqealar munosabati bilan Kaufman buyrug’iga ko’ra harbiy topografik ekspeditsiya

uyushtirildi. Ekspeditsiya a’zolari Hisor va Ko’lob tumanlarida ham bo’lishdi. Ekspeditsiya a’zosi Vishnevskiy Hisor, Ko’lob, Zarafshonning yuqori ya’ni tog’li tumanlarini xaritasini chizdi va hali noma’lum bo’lgan ma’lumotlarni qolga kiritdi. N.Mayen esa ekspeditsiya uyushtirigan hududlarning tarixiy topografik va toponomik tafsilotlari haqida ma’lumotlar to’pladi. Harbiy maslahatchi kapitan Petrov Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo va hozirgi Turkmaniston hududlarida joylashgan bekliklarni bog’lovchi yo’llarni o’rganib chiqib, ularning oraliq masofalarini aniqlaydi va bu yo’llar haqida batafsil ma’lumotlarni berdi. A.P.Fedchenko sayohatlarini tariflab, I.V.Mushketov shunday yozgan edi: ”Fedchenko sayohatlari o’z mashg’ulotlarining kengligida Amudaryo flotiliyasi ochiladi. Dastlab ishga tushirilganda “Tsar” va “Tsaritsa” deb nomlangan paroxodlar va ikkita temir barjalar (yuk tashuvchi kemalar) qatnovi yo’lga qo’yiladi.

Shundan so’ng yanada ko’plab paraxod va po’lat barjalar olib kelindi. 1891-yili “Veikiy knyaz”, “Velikaya knyajna Olga”, 1901-yilda “Imperator Nikolay II” paraxodlari olib kelindi va qatnovga qo’yildi. Vatanimiz tarxini o’rganishda tarixiy o’lkashunoslik quyidagi turlarga bo’linadi:

1. Ilmiy ya’ni davlat o’lkashunosligi,
2. Jamoat o’lkashunosligi,
3. Maktab o’lkashunosligi.

O’lkashunoslikning har uchala turi o’zaro bir biriga bog’liq bo’lib, biri ikkinchisini to’ldiradi. Davlat o’lkashunosligi bilan respublika tarixiy va madaniy yodgorliklarini muhofaza qilish hamda ulardan foydalanish qo’mitasi, muzeylar, respublika Fanlar Akademiyasi qoshidagi tarix, arxeologiya ilmiy-tadqiqot institutlari shugu’llanadi. Jamoat o’lkashunosligi qishloq, ovul, qo’rg’on, tuman, shahar va viloyat hududidagi tarixiy obidalarni saqlash va asrash ishlariga boshchilik qilish bilan birga joylarda istiqomat qilib turgan xalqlarning kelib chiqishini (etnogenezini) urf-odatlarini o’rganadi. Maktab o’lkashunosligi esa maktablarda tarix, inson va jamiyat fani o’qituvchilarining bevosita rahbarligida tashkil qilinadi. Maktab o’lkashunosligining a’zolari V-XI sinflarining eng intizomli va a’lochi o’quvchilaridan tuzilib, ular o’lka materiallarini to’rt guruhga bo’lingan holda to’playdilar. To’plangan arxeologik, etnografik, toponimik va arxiv hujjatlari maktab o’lkashunosligi va tarix muzeylarida namoyish qilinadi. O’lkashunoslikning asosan beshta manbasi mavjud o’lar: arxeologiya, etnografiya, toponimika, arxiv materiallari va muzey eksponatlari.Qishloq, tuman, shahar yoki viloyat hududining tarixini o’rganishda shu manbalardan birontasi ham diqqat e’tibordan chetda qolmasligi lozim, busiz o’lka tarixini mukammal o’rganib bo’lmaydi. Qadriyatimiz o’z o’lkamiz tarixini o’rganishdan boshlanishi hech kimga sir emas. Yillar mobaynida biz yosh avlodga o’tmishimiz tarixini o’rgatishda juda katta chalkashlik va xatoliklarga yo’l qo’yib keldik. Hozirgi kunda o’lkashunoslik fani oldida quyidagi eng masuliyatli vazifalar turibdi: ko’hna Samarqand, Buxoro, Xiva, Qo’qon, Shahrisabz va boshqa shaharlardagi sayohat mazmunini tushuntiruvchilarga to’g’ri ilmiy yo’nalish, viloyat voha va vodiylardagi hamda respublikamiz markaziy arxividagi hujjaatlarni o’rganish kabilar.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkin, inson tarixiy o’lkashunoslikda o’z vatani o’tmishi va buguni bilan birga inson o’zini o’rganadi. Xalqimiz kelajagi va uning taraqqiyot yo`li o`tmish bilan uzviy bog`likdir. Shuning uchun xalqimizning o`tmishi va tarixiy tajribasini, uning etnik qiyofasi, xo`jalik-madaniy xususiyatlari, moddiy va ma`naviy, ijtimoiy-siyosiy va oilaviy hayotini, bir so`z bilan aytganda, janojan o`lkamiz tarixini ilmiy jihatdan aniq bilmagunimizcha hozirgi taraqqiyot yo`llarimizni, uning keyingi yo`nalishlarini to`g`ri belgilab olishimizni tasavvur etib bo`lmaydi.

Adabiyotlar
1. A.Nabiyev , Tarixiy o’lkashunoslik. Toshkent 1996.
2. F.B.Ochildiyev. Tarixiy o’lkashunislik . Toshkent 2020.
3. D.T.Kuryazova. O’zbekistonda muzey ishi. Toshkent. 2010.
4. M.B.Bekmurodov, M.X.Rashidova. Muzeyshunoslik. Toshkent. 2006.
5. A.Sagdullayev, A.Kabirov, O’rta Osiyo arxeologiyasi. Toshkent 1990.
6. K.Sh.Shoniyozov, O’zbek xalqining shakllanish jarayoni. Toshkent 2001.
7. Mustaqil O’zbekiston tarixi.3-kitob, Toshkent 2000.
8. Хўжамов М., Лафасов М.,Мулладжанова Р., Тарихий ўлкашунослик ва туризм. - Т. 2015.

ҚОРАҚАЛПОҒИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ИҚТИСОДИЙ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ МУҲИМ ЖИҲАТЛАРИ

[1]Джумагельдиев Н.Р., [2]Кеңесбаева С.Т.
[1]Ажиниёз номидаги НДПИ Тарих ўқитиш методикаси кафедраси доцент.в.в.б. Тарих фанлари фалсафа доктори (PhD),
[2]Ажиниёз номидаги НДПИ Тарих ўқитиш методикаси кафедраси Тарих таълим йуналиши талабаси

Ўзбекистон Республикаси мустақилликка эришгандан кейин Қорақалпоғистон Республикасининг сиёсий ижтимоий-иқтисодий ҳаётида ислоҳотлар бошланди. Қорақалпоғистон Республикаси Жўқорғи Кенгеси томонидан Ер, мулк, деҳқон - фермер хўжалиги, корхоналар, тадбиркорлик ва чет эл инвестициялари ва бошқа иқтисодий соҳага тегишли бўлган, бозор муносабатларига боғлиқ қонунлар ва қарорлар қабул қилинди. Бунда бозор муносабатларини ривожлантиришга қаратилган Қорақалпоғистон иқтисодиётининг негизини хилма-хил шакллардаги мулк ташкил этиши, давлат истеъмолчиларнинг ҳуқуқи устунлигини ҳисобга олиб, иқтисодий фаолият, тадбиркорлик ва меҳнат қилиш эркинлиги, барча мулк шаклларининг тенг ҳуқуқлигини ва ҳуқуқий жиҳатдан баб-баравар муҳофаза этилишини кафолатлаш тўғрисида сўз юритилади [5].

Қорақалпоғистон Республикаси Ўзбекистоннинг асосий минтақасидан бири ҳисобланади. Чунки у кенг ҳудудга эга ва мамлакатнинг бошқа ҳудудларига нисбатан майдони бўйича биринчи ўринда туради ҳамда қулай географик жойлашуви ва Орол денгизининг бир қисмига, катта табиий минерал ресурсларга, шунингдек, аҳоли зичлиги энг паст жойга эга бўлган ҳудуддир. Республика қишлоқ хўжалиги ресурслари, меҳнат салоҳияти, ишлаб чиқариш инфратузилмаси, йўл, транспорт ва муҳандислик-коммуникация тармоқлари билан таъминланган. Буларнинг барчаси биргаликда минтақанинг ижтимоий-иқтисодий ривожланишига ўз таъсирини кўрсатмоқда [1].

Қишлоқ хўжалигини ривожлантиришнинг асосий устувор йўналишларидан бири бу экин майдонларига туб таркибий ўзгаришлар киритиш лозимлиги назарга олинган. Булар қуйидагилар: ҳар бир туман ва фермер хўжалигига табақалаштирилган ёндашув, табиий, иқлим ва экологик шароитларни ҳисобга олиш, сув ресурсларидан фойдаланишнинг инновацион технологияларига ўтишини амалга ошириш ва ер салоҳияти сифатини ошириш ишлари билан асосланади [2].

Маълумки, Ўзбекистон Республикасининг белгилаб олинган иқтисодий стратегиясида, асосан, аҳолини энг зарур хомашёларга бўлган талабини янада тўлиқ қондириш вазифаси алоҳида муҳим аҳамият касб этади. Мазкур стратегияни амалга

оширишда бутун республика қишлоқ саноат мажмуаси тармоқлари, хусусан, Қорақалпоғистон Республикаси қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқаришини янада ривожлантириш масаласига устувор аҳамият қаратилган. Бу масалада, Ўзбекистон Республикасидаги ер фондининг 37 фоизидан ортиқроғи, табиий ем-хашак ерларининг 48,5 фоизи, суғориладиган экин майдонларининг 20 фоиздан ортиқ майдонлари жамланган. Буларнинг барчаси Қорақалпоғистонда ҳалигача фойдаланилмаган катта ишлаб чиқариш майдонлари - захиралар бор эканлигидан далолат беради [3].

Қорақалпоғистон Республикасида кейинги йилларда ишлаб чиқариш соҳасини ривожлантириш ишлари қишлоқ хўжалигида экин майдонларини кенгайтириш, интенсив мелиоратив қурилиш ва яйловларни ўзлаштириш йўлидан бормоқда. Шу билан бирга, республиканинг бир қатор туманларида ишчи кучига эҳтиёжи талаби бўлган суғорма деҳқончилик, қишлоқ хўжалиги хомашёсини қайта ишлаш тармоқлари ва қурилиш материаллари саноатининг ривожланиши устунлик қилганлиги маълум бўлган. Ҳудудларда яйлов чорвачилиги анъанавий бўлган туманларда қўйлар сонининг ортиши билан ҳар доим ҳам яйловларнинг ем-хашак сиғимини ошириш чоралари амалга оширилмаган, шоли етиштирувчи туманларда эса қишлоқ хўжалиги экинлари, экин майдонларининг кўпайиши ҳамда экинларни суғоришда сув ресурслари билан таъминланмаганлиги аниқланди. Бу экологик вазиятнинг кескинлашишига ва ишлаб чиқаришнинг иқтисодий самарадорлигининг пасайишига олиб келди. Минтақавий иқтисодиётга нисбатан мураккаб бўлмаган фазовий стратегик йўналишлар натижасида қишлоқ хўжалиги соҳаси таркибида мономаданий йўналишга ўтиш жараёнлари, яъни пахта етиштириш, минтақадаги ҳаддан ташқари сув танқислиги шароитида, масалан, сув кўп талаб қиладиган экинлардан гуруч мономаданий йўналишга ўтказилган [4].

Адабиётлар

1. Речь Президента Республики Узбекистан Ш.М. Мирзиеева на Внеочередной сессии Жокаргы Кенгеса Республики Каракалпакстан, 02.10.2020 г. Постановление Президента Республики Узбекистан «О мерах по комплексному социально-экономическому развитию Республики Каракалпакстан на 2020-2023 годы» от 11 ноября 2020 г., №ПП-4889. // https://lex.uz/ru/docs/5100721

2. Асадов Х. Современные тенденции экономического развития регионов Узбекистана // Экономика Центральной Азии, 2020. - №4(3). – С. 251-262; Усманов З., Ниязов М. Приоритетные направления развития промышленности в Республике Каракалпакстан // Экономика и бизнес: теория и практика, 2015. - №8. – С. 127-131.

3. Мирзиеева С. Анализ опыта Узбекистана по разработке стратегий развития страны и регионов // Управленческое консультирование. 2019. - №3. – С. 49-61.

4. Умаров Е., Серикбаев М. Аральское экологическое напряжение и его влияние на социально-экономическую и демографическую ситуацию сельской местности Республики Каракалпакстан// www.allbest.ru

5. Утемуратов М. “Ўзбекистон таркибида Қорақалпоғистон Республикаси ташкил топишининг назарий, тарихий, сиёсий - ғоявий асослари” / Масъул муҳаррир: ю.ф.д., проф. Ҳ.Бобоев. – Т.: ТДЮИ нашриёти, 2005. – Б. 46.

ТАСАЎЎИФ ТӘЛИЙМАТЫНДА ИНСАНДЫ КӘМИЛЛИККЕ ЖЕТЕКЛЕЎШИ ИДЕЯЛАР

Атамуратова М.Ж.
Әжинияз атындағы Нөкис мәмлекетлик педагогика институты таяныш докторанты

Халқымыз өзиниң узақ тарийхы, бай мәдениятына, исламый қәдриятларына ийе. Бүгинги күнде мәмлекетимизде миллий қәдриятларға, халқымыздың бай мәдений мийрасларына жаңаша көз қарас пенен қаралмақта. Мәмлекетимизде руўхый мийрас, миллий ҳәм улыўмаинсаный қадриятлардың тиклениўи, жасларды ҳәр тәреплеме раўажланған, руўхый жақтан жоқары, кәмил инсан қылып тәрбиялаў мәмлекет сиясаты дәрежесине көтерилген. Тәлим-тәрбия процессинде миллий мәдений мийрасларымыздан, ислам дини қәдриятлары, соның ишинде тасаўўиф тәлийматы арқалы жасларда ийман-инсап, баўрыкеңлик, сабырлылық, өзин-өзи аңлаў сыяқлы сыпатларды қәлиплестириў үлкен әҳмийетке ийе.

Тасаўўиф тәлийматы Шығыс мусылман халқының мәнәўий турмысында инсан кәмалаты ҳаққындағы идеялардың қәлиплесиўинде әҳмийетли роль ойнаған тәлиймат. Тасаўўиф тәлийматында кәмил инсан – бул дана, ақыллы, пәк нийетли инсанлар. Олар иләҳий пәклик, исеним ҳәм ақыл инсаниятты бәле қазалардан асрайды деп есаплаған. Суўфийлар мине усы ҳақыйқат ушын умтылған. Ҳақыйқатында кәмил инсан - бул олардың идеалы, арманы болған. Н.Комилов тәрийпи менен айтқанда “Кәмил инсан-бир идеал, барлық дуньялық ҳәм иләҳий билимлерди ийелеген, руўхы абсолют руўх пенен байланысқан жүреги таза, қәлби ийгиликли сезимлерге толы пәк инсан” [Н.Комилов:130].

Кәмил инсанның улыўмалық қәсийетлерине инсанпәрўарлық, дослық, ҳадаллық, туўрылық, мийнеткешлик, ўатанпәрўарлық ҳәм басқа да сыпатлар киреди. Әне усындай кәмил инсанға тән болған пазыйлетлер тасаўўиф тәлийматында да сәўлеленген. Инсанның кәмиллик мәселеси ислам дининде де, тасаўўиф тәлийматында да тийкарғы мәселе есапланады.

В общении со сверстниками в подростковом возрасте явно преобладают две тенденции: стремление к общению и стремление получить признание, быть принятым в данной группе. Потребность обрести индивидуальность и добиться ее признания окружающими, стать или хотя казаться взрослым является преобладающей в этом возрасте.

У подростков в процессе общения на передний план выдвигается комплекс: нравственных качеств, делающих их более или менее популярными. Но достаточно одной или двух подпеченных сверстниками или приписанных ему отрицательных черт, чтобы подросток утратил популярность. Группа сверстников оказываются весьма действенной школой формирования нравственных качеств, формой социального взаимодействия и сферой эмоциональных проявлений. Нарушение процессов взаимодействия становится причиной возникновения межличностных конфликтов.

Литературы

1.Адизова Т.М. Психологические методы изучения личности учащихся в процессе общения. Тошкент – 2000, 70 с.

2.Лисина М.И. Общение, личность и психика ребенка. Москва – Воронеж. 1997, 383 с.

3.Рогов Е.И. настольная книга практического психолога. Том 2. Москва, 1999, 385 с.

MUSIQA FAOLIYATI BILAN BO’LAJAK MUSIQA MUTAXASSISLARINI KASBIY-PEDAGOGIK TARBIYA MAZMUNI

Romanova S.E.

Nukus davlat pedagogika instituti Musiqiy ta’lim kafedrasi dotsenti, p.f.n.

Maktablarda musiqa asboblarini o`rganish jarayoni pedagogik nuqtai nazardan nazariy va amaliy ta`limning o`qitilishi keng tarmoqli tizimga tayanadi. Ta`lim mazmunida

pedagogik va musiqiy tayyorgarlik elementlarini birgalikdagi faoliyati amalga oshadi. Zamonaviy ilm-texnika rivojlanishining asosiy xususiyati, fan va texnika yutuqlarini inson faoliyatini barcha soxalariga joriy etishdan iboratdir. Musiqa o'qituvchisi kasbiy va mahoratli tayyorgarlik bilan har bir darsga mas'uliyat bilan yondashiladi. Bunda, etarlicha yuqori darajadagi kasbiy bilim va malakalar bu bilimlar nafaqat ijro amaliyotida shuningdek, ilmiy tushuncha va qonunlarni qo`llashda imkon berishi, avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish sharoitida samarali ishlash olishi uchun shaxsda individual xususiyatlar va dunyoqarashning shakllantirishi, umumiy o`rta ta`lim va musiqa san`at maktablarida o`quvchilarning estetik tarbiyalash echimini topishda musiqiy to`garaklar darslarini katta imkoniyatlarga egadir.

O`quvchilarning musiqiy ta`lim jarayonida estetik tamoyillarini ruyobga chiqarishda, o`qituvchidan o`quvchilarning nazariy bilimlarini sub`ektiv ko`rinishda uzatadi[1.2.], buni mustaqil ijodiy holda qo`llay oladigan vaziyatlarini yuzaga keltirish talab etiladi. Musiqa madaniyati fanini o`tadigan o`qituvchidan kasbiy bilim va malakalarini bo`lishi talab etiladi. Bular:

-Ijodiy faoliyati, ijrochilik, san`ati;

-Bilish faoliyati (musiqiy savodlilik);

-Musiqiy san`atini, faol tashkivot qilishda foydali faoliyat olib borish;

-O`quvchilarga beriladigan barcha bilim va ko`nikmalar o`zaro bog`liq bo`lib, doimo rivojlanib boradi. Orttirilgan bilim va ko`nikmalardan kelib chiqqan xolda, maxsus o`quv materiallar asosi aniqlanadi[2.].

Musiqa fani o`qituvchisi o`quv tarbiya ishlarni olib boradi va dars jarayonida o`quvchilarni dunyoqarashlarini, fikrlashini va estetik didini shakllantiradi. U faqat o`z fanini yaxshi biluvchi keng dunyoqarashli va ma`lumotli shaxs bo`libgina qolmay, balki cholg`u sozining ustasi hamda keng ma`noda jamoa shaxsi bo`lib qolishi lozim. Bugungi kun musiqa fani o`qituvchisining asosiy vazifalardan biri-maktabning o`quv tarbiya faoliyatini yangi sifat bosqichiga ko`tarish, uning jamoalar bilan o`zaro ta`sirini kuchaytirishdan iboratdir. Buning natijasida o`quvchilar o`quv jarayonida tanlagan ma`lum bir kasbini tanlash imkoniyatiga ega bo`lsin. Bu vazifa maktablarni yuqori malakali musiqa madaniyati o`qituvchilari bilan ta`minlash orqali amalga oshiriladi. Musiqa o`qituvchilarini tayyorlash tizimi bir-biriga bog`liq turg`un birlik, butunlik, integral xususiyatga ega bo`lgan qonunlarga asoslanadi.

Musiqiy ta`limning nazariy xususiyati birinchi navbatda bo`lajak musiqa fan o`qituvchilarning estetik didiga bog`liqdir. Bunda biz uyg`unlikni eng asosiy, fundamental nazariya bo`lib, u ta`lim tizimi va mazmunini aniqlab beruvchi, barcha o`quv fanlariga umummilliy va maxsus singdirilganligining guvohi bo`lamiz. O`qituvchilarning o`yg`unlik jihatidan printsipini vazifasi jamiyat va tabiatning asosiy qonunlarini ochishdan o`quvchilarni umumlashtirilgan estetik bilimlar bilan qurollantirishdan, ijodiy fikrlashni rivojlantirishdan, mehnat faoliyatida mustaqilligа o`rgatishdan, kasbni yaxshi egallashga tarbiyalashdan, komp`yuter vositalarni qo`llay olish bilimlarini shakllantirishdan iboratdir.

Musiqa ta'limida bo`lajak cholg`u ijrochili o`qituvchilarini tayyorlashni o`ziga xos xususiyatlarini, o`quv rejasiga nisbatan fanlararo aloqalari o`quv rejalar tuzilishining asosiy tamoyillarini tashkil etib o`z navbatida u g`oya, tushuncha, qonunlar faktlar, bilim va ko`nikmalar orasida aloqalarni nafakat ba`zi bir o`quv fanlari, balki bir tsikl ichidagi fanlar va turli tsikllardagi fanlar orasida ham aloqalarni o`rgatishga yordam beradi[1.3.].

Musiqa darslarining maqsadi o`quvchilarni san`at olami sir-sanoatlaridan bahramand qilish, balki jamiyat uchun etuk insonni tarbiyalash, musiqa darslari va to`garaklarda o`quvchilarni umuminsoniy qadriyatlarini shakllantirishda ularning ahloqiy fazilatlarga,

milliy g`urur va vatanparvarlik tuyg`ularini shakllantirib rivojlantirish, bilimdonlik va mulohazali, vijdonli ko`pchilik manfaatlarini yuqori qo`yish, adolatli, haqiqatparvar, ma`naviy yuksallikka intilish va kuchli iroda egasi bo`lishi va o`quvchilarni haqiqiy bilim bilan qurollantirish, mustaqil mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirish, olgan bilimlarini amaliyotga tadbiq etish, tashabussqorlik qobiliyatini tarkib toptirishdan iboratdir.

Adabiyotlar

1. Шарипова.Г. Мусиқа ўқитиш методикаси.-Т.: 2000 й. 56б
2. Romanova S.E. The uniqueness of the art of music and its role in human life. SAARJ Journal on Banking & Insurance Research (SJBIR) FAKTORI: 7.58 Google Scholar //82-87

BO‘LAJAK PEDAGOGLARNING O‘ZIGA ISHONCHINI RIVOJLANTIRISHNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

Dawkeeva A.O.

NDPI Psixologiya kafedrasi dotsenti, PhD

Bo‘lajak pedagoglarning o‘ziga ishonchini rivojlantirish psixologik jarayonning muhim qismi bo‘lib, kelajakda o‘qituvchining professional muvaffaqiyatiga va shaxsiy o‘sishiga bevosita ta’sir qiladi. Ushbu jarayonni tushunish uchun bir qancha nazariy jihatlarni ko‘rib chiqish mumkin. O‘ziga ishonch- bu shaxsning o‘z imkoniyatlariga, bilimlariga va qobiliyatlariga bo‘lgan ishonchi. U insonning maqsad sari intilishida, qaror qabul qilishida va harakatlarida muhim rol o‘ynaydi. Pedagogik faoliyatda o‘ziga ishonch muhim, chunki bu o‘qituvchining sinf oldida erkin va samarali ishlashiga, o‘quvchilarga o‘z bilimlarini yetkazishiga, shuningdek, ta’lim jarayonida muhim qarorlar qabul qilishiga imkon beradi. Shaxsning muvaffaqiyatli tajribasi, ya’ni qiyin vaziyatlarni muvaffaqiyat bilan yengib o‘tish, o‘ziga ishonchni oshiradi. Atrofdagilarning fikri va baholari o‘ziga ishonchni rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Pedagog o‘zini boshqa o‘qituvchilar bilan taqqoslab, o‘z kuchli va zaif tomonlarini ko‘radi. Ta’lim muassasasi va jamiyatning qo‘llab-quvvatlashi, ijobiy teskari aloqa o‘ziga ishonchni shirishga yordam beradi. O‘qituvchining shaxsiyati, uning hissiy barqarorligi, o‘z-o‘zini anglash darajasi o‘ziga ishonch darajasini belgilaydi. Psixologik jihatdan barqaror shaxslar o‘ziga ko‘proq ishonadi va pedagogik faoliyatda muvaffaqiyatga erishadi. O‘qituvchining didaktik qobiliyatlari, ta’lim texnologiyalarini qo‘llashdagi malakasi, muloqot va o‘zaro aloqa usullari o‘ziga ishonchning shakllanishida katta ahamiyatga ega.

Bo‘lajak pedagoglar o‘zlarining pedagogik faoliyatlarini tahlil qilish orqali o‘zlariga bo‘lgan ishonchni rivojlantiradilar. O‘ziga ishonch, pedagogning kasbiy o‘sishi uchun zarur bo‘lgan innovatsion yondashuvlarni qabul qilish va yangi bilimlarni egallash jarayonida katta rol o‘ynaydi. Shuningdek, bu o‘qituvchining shaxsiy rivojlanishi va uning pedagogik jarayonga ijobiy ta’sir ko‘rsatishiga yordam beradi. Shunday qilib, bo‘lajak pedagoglarning o‘ziga ishonchini rivojlantirish ta’lim jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Bu nafaqat pedagogning shaxsiy va kasbiy rivojlanishini ta’minlaydi, balki uning ta’lim berish samaradorligini ham yuksaltiradi.

Bo’lajak pedagoglarda o’ziga ishonchini rivojlantirish malakalari hamda kasbiy faoliyatdagi mustaqillik, ijodkorlik kabi xususiyatlarni rivojlantirish ishlari hozirga qadar, psixologiya fanining dolzarb vazifalaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Ta’lim-tarbiyaga oid zamonaviy konsepsiyalarning mazmun-mohiyati ham, shaxsda yuqori kasbiy tayyorgarlik sifatlari va maxsus qobiliyatlarni shakllantirishga qaratilgan. Bundan tashqari,

bo’lajak pedagoglar ta’lim –tarbiya jarayonini samarali tashkil eta olishda, yuqori empatik qobiliyatga, kommunikativ madaniyatga, o‘z-o‘zini o‘rganish tajribasiga, o‘zaro ta’sir eta olish malakasiga, vaqtdan oqilona foydalana olish ko‘nikmasiga, interfaol ta’lim olib borish tajribasiga, hamkorlikda o‘qitish usullari kompetensiyasiga hamda teng aloqadorlik tamoyili orqali o‘qitish ko‘nikmalariga ega bo‘lmoqlari lozim sanaladi. O’ziga ishonchini rivojlantirishxususiyatining bunday masalalari esa, ayrim ilg‘or ijtimoiy-psixologik konsepsiyalarda o‘z aksini topgan.

Mazkur konseptual asoslarni tadqiq etish, bo’lajak pedagoglarning kasbiy faoliyatiga salbiy ta’sir etuvchi ko‘plab ijtimoiy-psixologik omillarni aniqlashga imkon beradi.

Bundan tashqari, psixolog tadqiqotchilar hozirga qadar o‘z kasbiga bo‘lgan befarqlik, bilimlarni o‘zlashtirishni istamaslik, faoliyatga nisbatan qiziqish va motivatsiyaning yetishmasligi kabi masalalarni, kasbiy kamolotga to‘siq bo‘luvchi salbiy omillar sifatida e’tirof etmoqda.

Ye.I. Rogovning [1] so‘zlariga ko‘ra, ta’lim jarayoni talabalarning bilim darajasiga qarab passiv va faol turdagi ta’lim usullariga ajratiladi.

Passiv o‘qitishda talaba o‘quv faoliyatining ob’ekti sifatida harakat qiladi. Shuningdek, ushbu jarayonda talabalar professor-o‘qituvchilar tomonidan berilgan materiallarni o‘zlashtirishlari hamda uni ko‘paytirishlari lozim sanaladi.

Mazkur turdagi ta’lim odatda, ma’ruza shakldagi dars mashg‘ulotlarida namoyon bo‘ladi. Ushbu holatda talabalar bir-birlari bilan o‘zaro hamkorlik qilmaydilar va hech qanday muammoli vaziyat hal etilmaydi. Faol turdagi ta’limda esa, talabalar ko‘proq darajada o‘quv faoliyatining sub’ektiga aylanadilar. Bunda talabalar o‘qituvchilar bilan teng muloqotga kirisha oladilar, bilimlarni o‘zlashtirishda faol ishtirok etib, ijodiy ishlash ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar.

V.A.Yakuninning aytishicha, [2]ijtimoiy faol o‘qituvchini aniqlash avvalo, undagi kasbiy faoliyat motivlari, qiziqishlari, ishga bo‘lgan ishtiyoqi, kasbiy yaroqlilik xususiyatlari, kognitiv ehtiyojlari ko‘lami kabilarni psixologik unsurlarni o‘rganishdan boshlanishi lozim. A.A.Rean [3] yuqoridagi yondoshuvdan farqli o‘laroq, bo’lajak pedagoglarning ijtimoiy faolligi hamda ularning kasbiy faoliyatidagi tashabbuskorlik xususiyatlarining asosi sifatida, ularga xos davogarlik darajasi hamda raqobatdoshlik ko‘nikmalari tashkil etadi deb ta’kidlaydi[65]. Shuningdek, talabalar ijtimoiy-psixologik bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirish jarayonida o‘zaro hamkorlikka aoslanilgan faoliyat ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar. Ushbu o‘zaro ta’sirchanlik ko‘nikmalari vaqtincha emas, balki ularning keyingi maqsad va rejalari uchun ham, doimiy xususiyat bo‘lib qoladi. Tadqiqotchi L.M.Kolpakovaning [4] ta’kidicha, bo’lajak pedagoglarni tayyorlashda qo‘llaniladigan faol ijtimoiy-psixologik ta’lim usullarining afzalliklariga quyidagilar kiradi.

– Ishtirokchilarda butun dars davomida yuqori darajadagi faollikni ta’minlash;

– Shaxsning o‘zini o‘zi anglashiga yordam berish, ularning o‘zaro muloqotida yangi qadriyat yo‘nalishlari va munosabatlarini shakllantirish;

– Ishtirokchilarda guruhda ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish;

– Talabalarda faol ijtimoiy-psixologik pozitsiyalar hamda o‘ziga bo‘lgan munosabatini rivojlantirish;

– Turli hayotiy qiyinchiliklar va muammoli vaziyatlarga nisbatan psixologik immunitetini oshirish va hokazo.

Yuqoridagi tasniflardan shu narsa ma’lumki, bo’lajak pedagoglarda bilim va ko‘nikmalarni puxta o‘zlashtirishning ijtimoiy–psixologik omili sifatida, har bir shaxs xos bo‘lgan hayotiy pozitsiyalar tashkil etadi.

Adabiyotlar

1. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2003. – 224 b

2. Самоукина Н.В. Первіе шаги школьного психолога. Психологический тренинг [Текст] //- Ярославль: Академия развития: Академия Холдинг, 2002. - 224 с.

3. Бандура А. Подростковая агрессия. Изучение влияния воспитания и семейных отношений. – М.: Апрель Пресс, Изд-во ЭКСМО-Пресс, 1999. – 346 с.

4. Цагарелли Е.Б. Личностніе детерминанті неравновесніх психических состояний [Текст] //Дисс. канд. психол. наук. - Казань, 2003. — 188 с.

5. Mead, George Herbert. 1982. The Individual and the Social Self: Unpublished Essays by G. H. Mead, edited by D. L. Miller. Chicago: University of Chicago Press. ISBN 978-0-608-09479-3

ÁJINIYAZ SHAYÍR QOSIQLARÍNDA INSAN QÁDIRI

Allayarov M.J.

NMPI Pedagogika kafedrası docenti w.w.a. p.i.f.d.(PhD)

Qaraqalpaq xalqınıń klassik shayırı Ájiniyaz Qosıbay ulınıń 200 jıllıq merekesi Respublikamız boylap úlken bayram sıpatında belgilenbekte.

1974-jılı Ájiniyaz shayırdıń 150-jıllıǵına baǵıshlanıp Respublikamızda bayram ilájları shólkemlestiredi. Mine sonnan beri onıń tuwılǵan kúnlerin ótkeriw dástúrge aylandı. Bıyılǵı 200 jıllıǵın ótkeriw boyınsha 2024-jıl 16-iyunda “Ataqlı qaraqapaq shayırı Ájiniyaz Qosıbay ulınıń tuwılǵanına 200 jıllıǵın keń túrde belgilew” haqqında Ózbekstan Respublikası prezidenti qararı járiyalandı. Sonıń menen birge, YUNESKO xalıq aralıq shólkeminiń xalıq aralıq yubileyler rejesine de kiritilgen hám rejeler islep shıǵılǵan.

Ájiniyaz shayır úlken tulǵa bolǵanı hámmege málim. Ol óz dáwiriniń ozıq oylı, tereń filosofiyalıq pikirge iye xalıqtıń ruwxın kótergen hám óz xalqın basqa jurtlarǵa tanıtıwǵa miyassar bolǵan. Onıń shıǵarmaları insanıylıq qatnasıqlardı ápiwayı hám tereń mánide ashıp bere alǵan. Insanlarǵa ruwxıy kúsh berip, óz elin súyiwdi, insanıylıq pazıyletlerdi húrmetlewdi, insannıń eń ullı jaratılıs ekenligin keń túrde táriyplegen**.[1]**

Bul boyınsha jıl basınan baslap bir qansha ilájlar ótkerilmekte. Biz bul maqalamızda shayırdıń “insan qádiri, insandı uluǵlaw” haqqındaǵı qosıqlarınıń tárbiyalıq áhmiyetine toqtalmaqshımız. Ájiniyaz shayırdıń “Bul dúnyanıń kórki adam balası” degen bir qatardıń ózi, insandı sonshelli dárejege joqarı kóteredi. Haqıyqattan da, insan bul dúnyanıń jaratıwshısı, jer júzinde qanday jańalanıwlar, ashılıwlar, ózgerisler bolsa adam balası miynetiniń nátiyjesi ekenligin bayanlaydı.

Shayırdıń “Jaqsı” atamasındaǵı qosıǵında:

Adam ulı adam qádirin bilmese,
Onnan dúzde otlap júrgen mal jaqsı,
Aytqan sózdiń maǵanasın bilmese,
Ol adamnan tilsiz ósken mal jaqsı.-dep keltiredi. Búgingi kúnde adam- adamǵa dos, miyirman bolıwı kerekligin, bir-birewdi sıylaw, ázzige járdemlesiw principi alǵa súrilmekte. Eger adam, adam qádirin bilmese ol adamnıń haywannan da tómen dárjede ekenligin táriypleydi. Adam balası aytılǵan sózge qulaq asıwı, sóz mánisin durıs túsiniwi kerekligin sóz etedi. Shayırdıń bul pikiri insanyat ushın hesh bir waqıtta óz áhmiyetin joǵaltpaydı. Jáne sol qosıǵında**:**

Kisiniń yarına kúlip baqqannnan,
Shıbın janın ıshqı otına jaqqannan,

Óz boyıńa túrli nasaq taqqannan,

Óz yarıńnıń tárbiyasın ber jaqsı. -dep adamlardı durıs júriwge, ózge yarına jaman niyette qaramawdı násiyatlap óz yarın húrmetlewge, oǵan durıs tárbiya beriwge, shańaraq juwapkershiligin sezindiriwge shaqıradı. Usı pikirlerdi dawam ettirip, “Bolmas” qosıǵında:

Hayal jaqsı bolsa kewlińdi ashar,

Hayal jaman bolsa abırayıń qashar,

Jaman adam dostan qashar hám kesher,

Jamannıń jaqsıǵa húrmeti bolmas. - degen qatarlarda er azamattıń abıroylı bolıwı hayalǵa baylanıslı ekenligin sóz etip, hayalıń jaqsı bolsa, kewliń toq ekenligin, hayal jaman bolsa abıroysız bolıwıń haqqında sóz etedi. Bul pikirler búgingi kúni jaslarǵa shańaraq tárbiyasın úyretiwde úlken áhmiyetke iye dep oylaymız. Jáne de, doslıq haqqında sóz etip jamannıń dostı bolmaslıǵın, jaman adam dostan qashıwın, jamannıń hesh waqıtta jaqsı insanlarǵa húrmeti bolmaytuǵınlıǵın táripleydi.

Búgingi kúni qanshama jaslarımız shet ellerde músápirlikte, shańaraǵınan alısta, pul tabıw maqsetinde qıynalıp júrgenligi hesh kimge sır emes. Mine, usı jaslarǵa durıs túsinik beriwde, olarda watanǵa degen súyispenshilikti oyatıwda, eldiń, ana topıraqtıń qádirin biliw kerekligin túsindiriwde tómendegi qatarlardıń áhmiyeti úlken.

Giyne qılıp jurtti taslap ketkennen,

Qádirin bilmes jerde xızmet etkennen,

Jat ellerde músápirlik shekkennen,

Urıp soǵıp qorlasada el jaqsı.

Bul qatarlarda hár kimniń óz eliniń qádirin joqarı qoyıwın, qanday qıyınshılıq bolsa da óz eline jetpesligin, jat ellerde músapirlik etkennen, óz eliniń ornı ayrıqsha ekenligin sóz etedi.

Sonday-aq shayırdıń “Bolmas” qosıǵında:

Jaqsınıń hár sózi mánawiyat tajı,

Jamannıń bir sózi záhárden ashshı.

Bul qatarlarda insanlardı jaqsı menen joldas bolıwǵa, jamannan qashıq júriwge shaqıradı. Haqıyqattanda, jaqsı insanlar menen gúrrińlesseń, olar menen joldas bolsań, jaqsı nárselerdi esiteseń, ishki dúnyań bayıp, ruwxıyatıń kóteriledi. Jáne de sol qosiqta:

Jamanǵa sóz aytsań qarar iziń́e,

Qulaq tutpas hárgiz adam sózine, -degen qatarlarında sóz mánisin túsinbeytuǵın, aytılǵan násiyattı nadurıs qabıllaytuǵın adamlar haqqında sóz etedi.

Jaqsı dosqa bergil nanıw shóregiń,

Qaytarmas sózindi bolsa keregiń,

Bazı nakaslarǵa berseń keregin,

Kúninde bir gúlsha minneti bolmas.- degen qatarlarda jaqsı dosqa ne berseńde durıs bolatuǵının, haqıiyqıy dos seni hesh waqıtta qapa qılmaslıǵın, sózińdi jıqpaslıǵın táriyplese, nákaslarǵa qanday jaqsılıq etseń de onnan jaqsılıq qaytpaslıǵın qaytama millet etetuǵının sóz etedi.

Shayırdıń “Demishler” qosıǵında tómendegidey qatarlardı ushıratamız:

Insanıylıq shınlıqta, rasgóylikte,

Elge adil basshı, xanlıq biylikte,

Qayır -saqawatlı hám tórelikte,

Dúnyanıń bezegi insan demishler.

Bul qatarlarda shayır insanıylıqtıń negizi rasgóylikte shınlıqta ekenligin, basshılardıń ádil bolıwın, qayır-saqawatlı bolıwı kerekligin, dúnyanıń bezegi insan ekenligin jáne bir márte dálilleydi. Jáne de:

Qáte bolsa keshirińler qalayıq,
Tuwrı is tuwrı jol bizge ılayıq,
Ádep-ikramlılıqtı yadqa alayıq,

Haslımız bir insanyat demishler. -degen qosıq qatarlarında insanyattıń negizi bir ekenligin sóz etip, olardıń adep-ikramlı bolıwın úgit násiyat qıladı. Tuwrı is, tuwrı jol adamzat ushın eń tiykarǵı qaǵıyda bolıwı kerekligin insaniyatqa násiyat etedi.

Ájiniyaz shayırdıń shıǵarmalarında insan teması birinshi orında turadı. “Ne bilsin”, “Sorasań Ajiniyaz meniń atım”, “Húrmetleydi Sherniyaz Ajiniyazdı”, “Qıs bolsa qazaqı attı taǵaladım”, “Qádirin”, “Bolarma” hám taǵı basqa qosıqlarında insandı joqarı dárejege kóteriw máselesine ayrıqsha toqtaladı.

Biz shayır qosıqların hártárepleme úyreniwdi ele de jedellestirip, búgingi kúni tárbiya quralı retinde paydalanıwımız kerek. Bul ushın shayır shıǵarmaların baspadan shıǵarıw islerin dawam ettirsek, onıń Watan, tuwılǵan jer, Ana topıraq, insan qádirine, insanıylıqqa baǵdarlanǵan qosıqların oqıw baǵdarlamalarına kirgizsek, jaslardı kámil insanlar etip tárbiyalawda úlken jetiskenliklerge erisemiz dep isenemiz.

Ádebiyatlar

1. «Atoqli Qoraqaloq shoyiri, Ajiniyoz Qosiboy óǵli tavalludining 200 yilligini nishonlash» to’g’risida O’zbekiston Respublikasi prezidenti farmoni 16.07.2024
2. J.Bazarbaev “Ájiniyaz”, Nókis - 2019.
3. A’jiniyaz. Nókis.,Qaraqalpaqstan – 1988
4. Paxratdinov A’.A’jiniyaz shayirdin’ ko’rkemlik du’nyasi. No’kis.,Qaraqalpaqstan, 2014

BASLAWÍSH KLASS OQÍWSHÍLARÍNÍŃ HÁR TÁREPLEME RAWAJLANÍWÍNDA MUZÍKALÍ RITMIKALÍQ HÁREKETLERDIŃ ÁHMIYETI

Tajetdinova S.M.

Ájiniyaz atındaǵı NMPI Muzıkalıq tálim kafedrası docenti

Ulıwma bilim beretuǵın mekteplerde **“**Muzıka mádeniyatı” páni oqıtıwshısı sabaq proseccinde oqıtıw formaların optimal dárejede shólkemlestiriwde salamat áwlatdı qáliplestiriw teoriyasın hár qıylı jańadan oylap tabılıwlar menen ilimiy dóretiwshilik penen bayıtıwdı puxta biliwi kerek. Muzıkalı ritmikalıq tálimniń tiykarı oqıwshılardıń muzıka arqalı súwretlewlerdi kóre alıwın hám olardı háreketlendiriw arqalı muzıkanı eslep qalıw qábiletin rawajlandırıw bolıp esaplanadı. Muzıkalı ritmikalıq tálimniń tiykarı oqıwshılarda muzıkanı ishki sezimler arqalı túsinip súwretlep beriw qábiletiniń rawajlandırıwdan ibarat bolıp esaplanadı. Muzıkalı ritmikalıq tálimniń mánisi hám onıń wazıypaları XIX ásirdiń aqırında svecariya oqıtıwshısı hám muzıkantı E.Jak – Dal’kroz tárepinen islep shıǵılǵan. [Yusupova N. 46b].

Bul dáwirde kóplegen oqıtıwshılar, muzıkantlar, psixologlar, metodistler N.G. Alexandrova hám E.V. Konorova, N.P. Zbrueva, V.I. Greener, N.E. Kizevalter, M.A. Rimerlar tárepinen oqıwshılarda denenıń ósiwi menen háreketleniwge bolǵan ıqtıyajı nátiyjesinde olardıń muzıkalıq qábiletleriniń qáliplesiwi hám eń áhmiyetlisi muzıkalı dawıs penen birge úylesiwi arqalı hár tárepleme rawajlanıwı haqqında ózleriniń pikirlerin ilimiy miynetlerinde kórsetip bergen. Ritmikanıń tiykarın salıwshı shvecariyalıq alım muzıka tanıwshı, kompozitor E.Jak-Dal’kroz bul haqqında: «Ritm háreketler tiykarında jasawı kerek» - degen edi. [Yusupova N. 46b].

Demek, álbette oqıwshılar balalıq dáwirlerinen baslap olar óziniń rawajlanıwında hár qıylı háreketleri arqalı dúnyanı tanıy baslaydı hám onı jıllar dawamında úyrenip baradı. Balalarǵa arnap jazılǵan qosıqlar, oyın muzıkaları hár qıylı mazmunǵa iye ritmikalıq háreketlerge bay bolıwı menen olardıń bilimlerin tereńlestirip baradı. Ulıwma bilim beretuǵın mekteplerde baslawısh klass oqıwshıları muzıka sabaǵında qosıqlardı ritmikalıq háreketler arqalı oqıwshılarǵa úyretilse olar tek háreketlerdi úyrenip qalmastan qosıqtıń mazmunın hám onıń izbe izligin de túsinip aladı. Áne bul nárse oqıwshılarda pikirlew yaǵnıy óziniń háreketi arqalı pikirin erkin jetkerip beriw qábiletine iye boladı.

Baslawısh klasslarda muzıka sabaǵın shólkemlestiriw processinde muzıkalı ritmikalıq háreketlerdi orınlaw oqıwshılardıń sabaq baslanıwdan aldın olardıń keypiyatın kóteredi hám olarda muzıkalıq qábiletin bunda tiykarınan ritm usılın seziwi arqalı háreketlerdi basqara alıw uqıbın rawajlandıradı. Usınday muzıkalı ritmikalıq háreketler oqıwshılardıń fizikalıq jaqtan salamat bolıwına erisiliwinde oǵada áhmiyetli bolıp esaplanadı. “Muzıka mádeniyatı” pánin oqıtıwda sabaq baslanıwdan aldın yaki bolmasa sabaq processinde hám sabaqtıń tamamlanıw bóliminde oqıwshılarǵa muzıka menen ritmikalıq háreketler isletiw oqıwshılardıń zerigiwine yamasa sharshap qalıwına jol qoymaydı sabaq oqıwshılar ushın qızıqlı bolıp ótedi hámde olardıń hár tárepleme rawajlanıwına unamlı tásir etedi.

Muzıkalı háreket túrleri úyrenip atırǵan qosıqtıń ritmin, tempin xarakterin, kórkem obrazların súwretlew arqalı oqıwshılarda qosıqtı atqarıw sheberligin rawajlandıradı. Sonıń menen birge bul muzıkalı ritmikalıq háreketler oqıwshılardıń muzıkanı tıńlap esitiw, eslep qalıw onıń tempine hám ritmine túse alıwın támiyinlew menen birge olarda oylay, pikirlew, seziw, qosıqtıń sózlerin anıq etip aytıw hám onı taza intonaciyada atqarıw qábiletin qáliplestiredi. Sonday aq muzıka menen islengen háreketler olardıń keypiyatın kóteriw arqalı sabaq dawamında olardıń kewlinde quwanıshlı hám jaǵımlı sezimlerdi payda etedi.

Baslawısh klass oqıwshılarda júriw, juwırıw, sekiriw háreketleri jaqsı qáliplesken boladı. Olar ózleriniń qálewi hám baslaması menen de muzıkanıń ritmine háreketleniwinde dóretiwshilik penen gúller, top yamasa lentalar menen háreketler islewdi jaqsı kóredi. Sabaq arasında olarǵa erkinlik berip muzıka menen háreket islewin gúzetip barıw kerek. Bul gúzetiw dawamında oqıwshılardıń ayaqların tapırlatıp qolların siltep tanıs bolǵan muzıkasına qosılıp háreket islep atırǵanınıń guwası bolamız. Muzıka menen ritmikalıq háreketler islewdiń áhmiyeti sonda oqıwshılardıń ritmdi seziwi arqalı olardıń háreketi muzıkanıń mazmunı menen úylesedi hám muzıkanıń ritmi menen qosılıp teń háreketlene aladı. Jıllar ótiwi menen oqıwshılarda ritmdi sezip durıs háreketleniwi qáliplesip baradı. Nátiyjede olarda ápiwayı muzıkanıń ritmikalıq háreketlerinen quramalı muzıkalı ritmikalıq háreketlerdi ózlestiriw uqıplılıǵı payda bola baslaydı. Demek oqıwshılarda ritmikalıq háreketli oyınlar menen birge syujetli rollerge bólinip oynalatuǵın háreketli oyınlardı oynaw qábileti qáliplese baslaydı. Bunda oqıtıwshınıń roli oǵada áhmiyetli bolıp esaplanadı.

Juwmaqlap aytqanda muzıkalı ritmikalıq háreketlerdi ámelde orınlaw nátiyjeleri tiykarında baslawısh klass oqıwshılarına muzıka sabaǵında qosıq aytıwdı úyretiw menen birge qollanıwı kerek bolǵan muzıkalı ritmikalıq háreketlerdi usınıs etemiz:

- marsh muzıkaları menen birge qádem atıw, juwırıw, sekiriw;
- qosıqtıń mazmunına sáykes ayaq oyın háreketlerin orınlaw;
- hár qıylı temada muzıkalı oyınlardı ótkeriw.

Demek, muzıkalı ritmikalıq háreketler muzıkalı oyınlar óziniń maqsetleri hám wazıypaları boyınsha didaktikalıq oyınlar bolıp, olar tiykarınan ritmikalıq háreketler arqalı atqarılıwı menen xarakterlenedi. Milliy qádiriyatlarımız, úrp - ádetlerimiz, xalıq qosıq hám namalarımız, balalar folklorı arqalı xalqımız tariyxı sáwlelenip atırǵan bir waqıtta

oqıwshılarǵa xalqımızdıń milliy muzıkası, qosıqları, ritm háreketlerin úyretiw júdá áhmiyetli bolıp esaplanadı.

Ádebiyatlar

1. Sh.Mirziyoev “Mádeniyat hám kórkem-óner tarawın jánede rawajlandırıwǵa baylanıslı qosımsha is-ilajlar haqqında” ǵı PQ - 112-sanlı qararı 02.02.2022

2. Nurmatov X., Norxójaev N., Amaniyazov Ǵ., Tajetdinova. Muzıka. 3 – klass ushın sabaqlıq. Tashkent, “Ǵafur Ǵulam”. 2019.

3. Tajetdinova S. M. MUZIKA TÁLIMINDE AXBOROT HÁM PEDAGOGIKALIQ TEXNOLOGIYALARDAN PAYDALANIWDIŃ NÁTIYJELILIGI //Academic research in educational sciences. – 2021. – T. 2. – №. NUU Conference 1. – C. 275-277.

5. Yusupova. N. “Musiqa savodi, metodikasi va ritmika”, “Musiqa nashriyoti”, Toshkent:, 2010

ULIWMA ORTA BILIM BERIW MEKTEBINDE MUZIKA PÁNINIŃ AHMIYETI

[1]Kenjebaeva S.S., [2]Begjanov B.

[1]Ájiniyaz atındaǵı NMPI docenti

[2]UzDSMI Nókis filialı úlken oqıtıwshı

Mektepdegi muzıka páni ápiwayı ǵana sabaq emes ol oqıw procesiniń ajıralmaytuǵın bir bólegi bolıp esaplanadı. Balanıń hár tárepleme rawajlanıwına úles qosadı. Muzıka balada dóretiwshilik qábiletlerdi ǵana emes, ol kognitiv, sezim hám social kónlikpelerdi rawajlandıradı, zamanagóy dúnyada balanı jaqsı turmısqa tayarlap, pútin, bárkámal shaxs etip qáliplestiredi[1].

Mekteplerdegi muzıka páni oqıwshılarda dóretiwshilik qábiletlerdi rawajlandıradı, sonıń menen birge muzıka balalarda sezimlerdi ańlatıwǵa, oylanıwǵa, improvizatsiya etiwge hám óz dóretpelerin jaratıwǵa úyretedi. Kompozitor shıǵarmaların tıńlap talqılay alıwǵa uyrenedi, mısalı baslawısh klaslarda kompozitor A.Sultanovtıń «Súyemen elimdi» qosıǵın úyreniw arqalı oqıwshılarda tuwılǵan jerge, eline degen maqtanısh sezimleri oyanadı. Kompozitor haqqında maǵlıwmat bergende A.Sultanovtıń «Ayt sen Ájiniyazdıń qosıqlarınan» kitabı haqqında aytıp, kórsetip ótse boladı. A.Sultanov shayır Ajiniyaz Qosıbay ulınıń qosıqlarına namalar dóretken hám sol qosıqlar mektep sabaqlıqlarına kirgizilgenligin aytıp ótken orınlı. Sonday –aq muzıka páni kognitiv qábiletlerdi rawajlandırıwǵa muzıkanı yadda saqlaw, dıqqat itibarın bir jerge jámlew hám logikalıq pikirlewdi rawajlandırıwǵa járdem beredi. Buǵan mısal retinde qaraqalpaq xalıq qosıq hám namaların, kompozitorlar shıǵarmaların alıp tıńlatsa boladı.

Milliy muzıka nama hám ritmler kompleksi emes, ol xalıqtıń kewili, onıń tariyxı, mádeniyatı, dástúrleri dawıslarda sawlelenedi. Kompozitorlar milliy muzıkadan yosh alıp, tek ǵana onıń gózzallıǵı hám ózgesheliligin jetkeziwshi, áwladlar arasında xızmet etetuǵın, mádeniy miyraslardı asırap - saqlaw, milliy ózgeshelikti qáliplestiriwge xızmet etedi.

Milliy muzıka kompozitordıń usılına, onıń muzıkalıq tilin qáliplestiriwge, tema tańlawǵa, garmonik texnikaǵa, asbap ásbaplarına hám taǵı basqalarǵa úlken tásir kórsetdi. Sonıń menen birge kompozitorlar xalıq namaları, ritmlerin, saz ásbapları, maqamları hám milliy muzıkanıń basqa elementlerinen paydalanǵan halda óz mádeniyatınıń qádiriyatların, xalıqtıń ruwxın, turmıs tárizi hám dúnyaǵa kóz qarasın jetkizedi.

Muzıka balalarda emociyanallıq tásirsheńlikti rawajlandırıw jolı arqalı sezimlerdi túsinip hám ańlatıwǵa úyretedi. Muzıka arqalı social kónlikpelerdi rawajlandırıw ushın

muzıkalıq ushırasıwlar, toparlarda islew, muzıkanı tıńlaw hám onı durıs qabıllaw, túsiniw qábiletin rawajlandırıwǵa járdem beredi[3].

Muzıka páni arqalı oqıwshılardıń ulıwma mádeniyatı rawajlanadı, muzıka sawatı artadı, muzıkalıq usıllardı úyrenedi, muzıka tariyxınan xabardar boladı. Muzıka tariyxına mısal keltiretúǵın bolsaq Ájiniyaz shayırdıń Bozataw poemasın tanıstırıp naması menen tıńlatsaq boladı. Bul qosıq hám namalar oqıwshılarǵa motivatsiya hám yosh ushın kúshli qural bolıp, balalarǵa óz qızıǵıwshılıqların tabıwǵa hám dóretiwshi bolıwǵa járdem beredi.

Muzıka balalardıń keleshekte muzıkalıq uqıbın, turmıstıń túrli tarawlarında paydalı bolıwı múmkin.

Juwmaqlap kele aytatúǵın bolsaq mektepte muzıka páni balalardı keleshekke tárbiyalawshı jaqsı qural bolıp tabıladı. Ol hár tárepleme rawajlanǵan shaxstı qáliplestiredi, olardıń dúnyaǵa kóz qarasın keńeytedi hám rawajlandıradı.

ádeplilik sıpatların qáliplestiriwde páydalı bolıwınan turadı.

Muzıka haqqında Ibn Sıno ózinıń bes shıǵarmasında jazǵan. Bul "Kitob ash-shifo", ("Shıpa kitabı") atamasındaǵı kóp betli enciklopediyalıq shıǵarmanıń muzıka haqqındaǵı bólimi. Ibn Sınonıń aytıwınsha kórkem-óner, sonday-aq, muzıka-bul ilim páni esaplanadı. Bunnan kórkem-ónerdıń "aqıl menen túsiniw" yamasa "zatlardı bilıw" mazmunı kelip shıǵadı. Ibn Sıno muzıkanıń tárbiyalıq mazmunın ayrıqsha aytıp ótken. Bunda kórkem-óner quralı arqalı estetikalıq sezimdi tárbiyalawǵa tiykarǵı itibar berilgen. Ullı ilimpázdıń aytıwınsha, shaxstı hár tárepleme jetilistiriw ushın eki tárepleme - fizikalıq barkamallıq ushın fizikalıq shınıǵıwlar, mánawiy rawajlanıwı ushın muzıka hám basqa kórkem óner túrleri arqalı tásır etedi[1.1.].

Poeziya mulkinıń sultanı Alisher Nawayı názik talǵamlı, joqarı bilim iyesi sıpatında muzıkanı súyip tıńlar, jurekten zawıq alar edi. Shayır talantlı kórkem-óner xızmetkerlerine hámiyshe ǵamxorlıq etti, jaslardıń kamalatı ushın tınbay miynet ettı. Insannıń kamalatqa erisiwinde tiykarǵı rol óynawshı qurallardan biri – muzıka kórkem-ónerınen quwanısh alıw dep bildi. "Muzıkanı túsıne almaǵan shayır yarım shayır",-degen edi Nawayı. Bul sóz shayır estetikalıq kózqaraslarınıń mazmunın anıq kórsetedi.

Xalıqımız túrmısındaǵı quramalı tariyxıy sharayatlar mádeniyat hám turmıstıń feodal qaǵıydaları sheńberinen tısqarıga shıǵıw múmkinshiligin bermegen. Ásırler dawamında jiynalǵan ápiwayı hám mánawiy baylıqlardı basqınshılar iyelep alǵan yamasa joq etip taslaǵan. Qılısh hám zórlıq xalıqımızdıń kóplegen mádeniy baylıqların joq etip jiberdi. Biraq solarǵa qaramastan, dawirler ótip, tariyxiy asırımlar asıp xalıqtıń qımbatlı mádeniy miyrası usı kúnlerge shekem jetip keldi.

Sanalı miynet procesında insan oy-órısı qáliplesti hám rawajlandı. Sezim, keypiyatlardı túsındiriw-muzıkanıń eń kushli ózgesheliklerine aylandi.

1. Ortiqov Tohirjon, Romanova Sanobar. MUZÍKANÍ OQÍTÍW METODIKASÍ páni ushın (OQÍW QOLLANBA) T.: 2020

1. Tashbaeva D Методика преподавание музыки и школьный репертуар T., 2007

3. Эстетик тарбия асослари. Кушаев Н.А.тахрири остида. Тошкент, “Ўқитувчи” нашриёти 1988 й.

ЧАНГ СОЗИНИНГ ИЖРОЧИЛИКДА ТУТГАН ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ

Нурмуҳамеджанов А.М.
Фарғона давлат университети Вокал ва чолғу ижрочилиги кафедраси доценти в.б.

Бугунги кунда миллий мусиқа санъатининг ривожланиш жараёнлари кечаётган бир даврда, созандалик санъатига алоҳида ёндашувни талаб этмоқда. Шу боис ижрочиликни илмий асосланган ҳолда олиб борилиши муҳим аҳамият касб этади. Ушбу мақолада чанг созининг ансамбл ва оркестр ижрочилигида тутган ўрни ва ролига илмий асосланган ҳолда ёндашилади. Чанг сози қадимдан ўзбек халқ созандалигида алоҳида ўринга эга. Чанг сўзи созанданинг ўнг ва чап қўллари билан чангга панжалар орқали "Чанг солиш" воситасида мусиқа ижро этиш маъноларини англатади. Қадимий "Чанг" мусиқа чолғуси "Арфа"га ўхшаш бўлиб, Шарқ халқлари миллий мусиқа ижрочилигида қўлланиб келинган. Чанг мусиқа чолғуси танбурнинг ўттиз икки пардасидан олиниб ихтиро қилинган деб айтилган тахминлар бор. Баъзи ривоятларда ғоя Арастун (Аристотел) Хаким Зухро юлдузига қиёс қилиб ихтиро қилган дейилади. [Нағмаи ниёгон таҳқиқ ва тахияи А.Ражабов Душанбей. Адиб. 1988 й. 124 б.]

Бундан ташқари Абдуқодир Мароғий ўзининг "Мақосид ул алхон" ("куйлар мақсадлари") китобида чанг мусиқа чолғусини юзига тери тортилган унга 24 та тор икки томонига ип билан боғлаб қўйилган" деган маълумот берилган бўлиб, нохун (тирноқ) воситасида ижро этилган. Эгри чанг мусиқа чолғусининг бир тури бу чолғунинг юз қисмига тери эмас балки ёғоч қопланган. Торлари ип билан эмас чўплар воситасида бриктириб қўйилган.

Ҳозирги кунда Ўзбекистон ҳудудида мусиқа ижрочилигида қўлланилаётган "Чанг" номли мусиқа чолғуси Шарқ ва бошқа халқларнинг миллий мусиқа ижрочилигида турли хил номланишларга эга. Белорусия, Украинадаги – симбала. Уйғур халқларидаги – чанг, эрондаги – сантурлар, Ўзбекистондаги - "Чанг" мусиқа чолғусига ўхшаш ҳисобланади. Кўпгина мусиқий рисолаларда зикр этилган "Чанг" чолғуси ҳамда XVI асрларда яшаган Дарвеш Али Чангий ижро этган "Чанг" номли мусиқа чолғуси тамоман бошқа кўринишда бўлиб, ҳозирги кунда мусиқа ижрочилигида қўлланилаётган "Арфа" мусиқа чолғусининг айнан ўзидир. Чанг мусиқа чолғусининг товуш қатори уч октавадан иборат бўлиб, биринчи товуш "соль" овозидан бошланади, чанг ижроси катта қамишдан ясалган иккита чўбча воситасида ижро этилади. Барча шарқ халқларида, най, доира, сурнай, уд, танбур, дутор, чанг ва бошқа мусиқа чолғулари учрайди. Яъни, доира, ноғора, чирманда, думбелек ёки даф, най (флейта) чолғуси, миснай, ёғоч най, ғажир най ҳамда қўшнай, сурнай, карнай. Ҳиндистон, Покистон, Афғонистон бир-бирига ўхшаш: вина, сород, сетор, тарнбур, танбур, табл, зурна, камонча, сантур, соз, дешип каби мусиқа чолғулари, Хитой, Япония, Монголияда бир-бирига ўхшаш ҳамда Хитойнинг уйғур халқлари яшайдиган Қашқар худудида, Ўрта Осиёнинг Ўзбекистон, Тожикистон давлатларидаги уд, танбур, дутор, най, сурнай, қўшнай, доира, рубоб, ноғора, ғижжак, дўмбра, чангқобуз, буламон ва бошқа ном билан аталувчи мусиқа чолғулари учрайди.

IX-X асрларда яшаган буюк шоир Абу Абдулло Рудакий ўз замонасида "Руд" ва "Чанг" мусиқа чолғуларининг мохир ижрочиси бўлган. Ўша даврда яшаган Махмуд Қошғарийнинг "Девоний луғатит турк" асари яратилиб, бу асарда бир қанча меҳнат қўшиқлари, қаҳрамонлик қўшиқлари, умуман жуда кўп турли ҳил қўшиқлар

ўз аксини топган. XIV-XVI асрларда илм-фан, маданият, санъат, мусиқа, наққошлик, хаттотлик ва бошқа соҳада катта ютуқларга эришди.

XVI асрга келиб, маданият, санъат жумладан мусиқа санъати ҳам тушкунликка учради. Урушлар кучайиб кетди. Натижада 1716 йилда Фарғонада ўзбеклар уруғидан ҳисобланган Шохрухбий Қўқонни Бухородан ажратиб Қўқон хонлигини барпо этди. Кейинчалик Туркистон XVII асрлардан бошлаб Бухоро, Қўқон, Хоразм хонлигига бўлиниб кетди. Ўрта Осиё халқлари жуда кўп тарихий воқеаларни бошидан кечириб, ҳар бир даврда барча фанлар қатори мусиқа илми ҳам гоҳ ривожланиб, гоҳ тушкунликка учраб мусиқа чолғулари ижроси, созанда ва хонандалар, мусиқашунослар турли ҳил ҳолатда яшаб ижод этганлар. Ҳар бир аср, даврда миллий мусиқа ижрочилигида қандайдир мусиқа чолғуси асосий етакчи ўрин эгаллаган. Ўрта Осиё худудидаги – Ўзбекистон, Тожикистон, Қозоғистон, Қирғизистон, Туркманистон давлатларида турли-туман мусиқа чолғулари бўлиб, бу давлатларда бир ҳил ном билан аталувчи лекин турли ҳил асарларнинг ижросига мўлжалланган мусиқа чолғулари миллий мусиқа ижрочилигида кенг қўлланилмоқда. Ҳозирги кунда ўрта осиё худудида қадимий мусиқа чолғулари билан бир қаторда кўповозликка мослаштирилган (реконструкция) мусиқа чолғулари мавжуд. Ўрта Осиё худудидаги давлатларда мақом асарлари (Бухоро, Хоразм, Фарғона-Тошкент мақомлари) ҳамда уйғур мақомлари, классик куйлар, халқ ашулалари, бахшичилик, достончилик, фольклор қўшиқлари, айтишувлар, лапар ва бошқа мусиқий ижрочиликка хос асарлар ижросида турли туман 30 дан ортиқ мусиқа чолғулари қўлланилмоқда.

Бугунги кунга келиб анъанавий мусиқа ижрочилигида барча миллий мусиқа чолғуларини миллий услубдаги ижроларига катта эътибор берилмоқда. Хулоса ўрнида шуни айтиш лозимки, халқимизнинг маънавий хаётидаги миллий чолғуларимиз жаҳон мусиқа санъати жараёнида алоҳида мавқейга эга бўлиб, инсоният маънавий тамадунига муносиб хисса қўшганлиги билан ажралиб туради.

Адабиётлар

1. Бобурнома. Тошкент. 1958 й. 12б.
2. Mahmudovich, N. A. (2023). Some aspects of the concept of spiritual renewal in uzbekistan. American Journal of Interdisciplinary Research and Development, 16, 46-52.
3. Mahmudovich, N. A. (2023). Some aspects of the concept of spiritual renewal in uzbekistan. American Journal of Interdisciplinary Research and Development, 16, 46-52.
4. Семёнов А.А. Средне-азиатский трактат по музики Дарвеш Али. Ташкент 1946 г. 18 стр.
5. Nurmuhamedjanov, A., & Rustamov, I. (2022). Yoshlarning ijtimoiy faolligida madaniyat va san’at muassasalaridagi to’garaklarning o’rni. Science and innovation, 1(C2), 48-50.

MUSTAQILLIK DAVRIDA RAQS SAN’ATINING TARAQQIYOTI VA ZAMONAVIY O‘ZBEK MILLIY RAQS SAN’ATINING XUSUSIYATLARI

Nazarova I.Z.

Farg’ona davlat universiteti Pedagogika, psixoogiya va San’atshunoslik fakulteti “Musiqiy ta’lim va madaniyat” kafedrasi o’qituvchisi

Jamiyatimizda amalga oshayotgan modernizatsiya jarayonlari ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar, ilm-fan, madaniyat va san’at taraqqiyoti yoshlarning ongi, ma’naviyatining boyishi va yuksalishiga ta’sir etmoqda. Asrlar davomida shakllanib kelgan milliy madaniyat

va san’at durdonalarining asosiga qurilgan milliy merosni zamonaviy yondashuvlar va tamoyillar asosida tadqiq etish, dunyo sivilizatsiyasi taraqqiyotida egallagan o‘rnini belgilash, milliy san’at tarixini o‘rganish, uning an’analarini saqlab qolish va kelajak avlodga yetkazib berish jamiyat va millat oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev milliy san’atning rivojlantirishga katta e’tibor qaratmoqda. Prezident tomonidan 2020-yilning 4-fevralida qabul qilingan “Raqs san’ati sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida “Xalqimizning ma’naviy saviyasi va estetik tarbiyasini yuksaltirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan raqs san’atini har tomonlama rivojlantirish, yosh avlodni milliy va jahon raqs san’atining namunalaridan keng bahramand etishni zamonning o‘zi talab etmoqda”, – degan fikrlar aks etgan. Qarorda “Raqs san’ati sohasida “ustoz-shogird” an’analariga asoslangan raqs maktablarini yaratish, xalqaro standartlarga muvofiq yuqori malakali mutaxassislar va kadrlarni tayyorlash, ilmiy salohiyatdan samarali foydalangan holda ilm-fanni jadal rivojlantirish maqsadida” bu sohada bajarilishi zarur bo‘lgan dolzarb vazifalar aniq belgilab berildi.

Bu vazifani shunchaki bajarish emas, balki uni zamonaviy ehtiyojlar va talablar ostida hozirgi davrga moslashtirish, tarixiylik va zamonaviylikni uyg‘unlashtirish, aksiologik mohiyatga ega bo‘lgan muhim ijtimoiy – estetik hodisa sifatida asrab qolish talab etilmoqda. Bu murakkab vazifani bajarish orqali san’atning milliy ruhini, qaytarilmas milliy xususiyatlarini kirib kelayotgan hammabop ommaviy madaniyatning salbiy ta’siridan saqlab qolish va takomillashtirishga imkon beradi. Bu jarayonda o‘zbek milliy san’atining muhim elementi - milliy raqs san’ati an’analarining tipologiyasi bilan birga o‘ziga xos milliy xususiyatlarini o‘rganish amaliy va nazariy ahamiyatga ega.

Inson qalbiga nafosat, zavq-shavq bag‘ishlovchi san’at turlaridan biri bo‘lgan o‘zbek milliy raqs san’ati zamon ta’sirida o‘zgarib, unga o‘zga millatlar raqs san’atining turli elementlari kirib kelmoqda. Raqs faqat bir millatga xos san’at emas, balki umuminsoniy badiiy ijodning mahsulidir. Oltin meros bo‘lib kelayotgan o‘zbek milliy raqs san’ati chuqur mazmuni va betakror go‘zalligi bilan dunyo miqyosida qadr topib, shuhrat qozonib kelmoqda. Ijodkor xalqimiz tomonidan asrlar davomida yaratilgan raqslar o‘zbek san’atining noyob durdonalaridan biri sifatida sanalib kelinmoqda. O‘zbek raqs daholari tomonidan yaratilgan g‘oyaviy-badiiy jihatdan yuksak raqslar xalqimizni asrlar davomida insonparvarlik, ona Vatanga muhabbat, jasorat, fidokorlik, kurashchanlik, milliy ma’naviyat va go‘zal xulq ruhida tarbiyalab kelmoqda.

Hozirgi kunda san’atning boshqa turlari qatori raqs san’ati ham tobora ommalashib, jamiyatda uning zamonaviy ahamiyati ortib bormoqda. Raqs san’ati tarixan turli xalqlar madaniyatining muhim elementi sifatida mavjud bo‘lib milliy madaniyatning taraqqiyotida o‘ziga xos o‘rinni egallab kelgan. Raqs mavjud hissiyotlar, insonlar o‘rtasidagi o‘zaro ijtimoiy aloqalarni bildirish shakli sifatida ijro etib kelinadi. Bu fikrlar barcha xalqlarning raqs san’atiga ham, milliy o‘zbek raqs san’atiga ham birdek tegishli.

Raqs san’ati bilan shug‘ullanadigan inson faqat tanasi bilangina emas, ruhiyati, dunyoqarashi, tasavvuri orqali ham o‘ziga xos estetik madaniyatga ega bo‘lib boradi. Jismoniy rivojlanayotgan inson madaniy va ma’naviy jihatdan ham rivojlanadi. Uning musiqa, raqsni to‘g‘ri anglashni o‘rganishi asosida milliy madaniyat, milliy san’at, xalq folkloriga oshno bo‘ladi. Raqs san’atiga bog‘liq ravishda milliy madaniyat va ma’naviyat doirasida tarbiya oladi. Bu jarayonlarning barchasi yoshlar va bolalarning sog‘lig‘iga ham o’zining ijobiy ta’sirini ko‘rsatadi. Musiqa, raqs, qo‘shiqchilik bilan shug‘ullanadigan yosh

bolalarda go‘zallikni qabul qilish, unga intilish kabi estetik did shakllanadi va rivojlanadi. Bunday hodisalar esa insonning yoshligidan boshlab, unda ijod qilish qobiliyatini shakllantiradi va ijodga intilishini ta’minlaydi.

Milliy an’analarimiz, qadriyatlarimiz istiqlolimiz sharofati bilan tiklanib, xalq badiiy ijodiyotiga keng yo’l ochildi. Umumxalq bayramlari keng nishonlana boshlandi, xalq ijodi festivallari, turli ko’rik-tanlovlarning o’tkazilishi natijasida folklor janri rivojlanib respublikamizning turli hududlaridagi ashula va raqs ansambllari negizida o’ziga xos bo’lgan folklor-etnografik ansambllar tashkil qilindi. Folklor-etnografik ansambllar faoliyati ijodiy jarayon. Ularning asosiy vazifasi - xalqimiz uchun badiiy, ommaviy tadbirlarni o’tkazishdan iborat. Mustaqillik va Navro’z umumxalq bayramlari, “Sharq taronalari”, “Asrlar sadosi”, “Boysun bahori”, “Barhayot an’analar”, “Yangi avlod”, “Kelajak ovozi” yosh ijodkorlar festivallari, M.Turg’unboyeva nomidagi yosh raqqosalar respublika ko’rik-tanlovi, Buxoro va Xiva shaharlarining 2500 yilligini nishonlash, “Umid nihollari”, “Universiada” sport musobaqalari va boshqa shu kabi davlat tadbirlarini o’tkazishda maydon raqslari, folklor raqslar, bolalar raqslari janrlari vujudga keldi.

Umuman xulosa qilib aytganda, Mustaqillik har bir millatning, xalq va davlatning avvalo, o’zligini anglash, tarixini haqiqatlar asosida o’rganish butun dunyoga bor bo’yi bilan namoyon bo’lishiga yo’l ochadi. Yillar davomida ta’qiqlangan, atay berkitilgan haqiqatlar yuzaga chiqadi. Xalq o’zini topishga intilishlari samarasida ming yillar qa’ridagi chinakam ma’naviy boyliklar namoyon bo’ladi. Bizning ana shunday boy merosimiz minglarcha desak, yanglishmaymiz.

O’zbek milliy raqs san’ati mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so’ng keskin rivojlanish pallasiga qadam qo’ydi. Davlatimizning Mustaqillik hamda Navro’z bayramlari har yili yuksak ko’tarinkilik bilan nishonlanadigan alohida shodiyona tusini oldi. Navro’z o’zbek xalqining tom ma’nodagi ota-bobolardan qolgan merosiy bayramidir. Sababi ushbu bayram o’z qamroviga bir nechta udumlar, urf-odatlarni, an’analarni oladi. Ularning ichida eng qadimiysi hamda xalq sevgani folklor san’ati hisoblanib, bu san’at ham o’z navbatida juda boydir. U turli yo’nalishlarga ega bo’lib, ularning barchasi Navro’z ayyomlarida xalq e’tiboriga havola etiladi. Mustaqillikning ilk yillaridan to shu kunga qadar har yilgi Navro’z umumxalq bayramida folklor san’atining barcha namunalari katta sahnada namoyish etiladi. Askiyabozlikdan tortib dorbozlik san’ati, laparlar-u yallalar ijro etiladi. Ayniqsa, barcha hududlarning o’ziga xos folklor qo’shiqlariga sahnalashtirilgan raqslarning rang-barangligi raqs san’atimizning naqadar boy san’at ekanini yana bir bor dunyoga namoyon etadi. Surxoncha sho’x yallalarga mos tarzda ijro etiladigan folklor raqslar xuddi Surxon vohasi tabiatidan sado berayotganga o’xshaydi. Raqqos va raqqosalarning liboslaridagi hududga xos gul kashtalar, boboquyoshni anglatuvchi turfa tasvirlarga hamohanglashib ketgan raqs harakatlari bilan xuddi sarrin shamol esayotganday, bahorgi jilg’alar sho’x raqsga tushayotganday bo’ladi, go’yo. Farg’ona vodiysi folklori esa lirikaga uyg’un tarzda ifodalanadi. Ularning ijrolarida tabiatning sehrli tarovatini, mehr-muhabbat tuyg’ularini his etamiz. Shoyi atlas-u beqasamlar, adraslardan libos kiygan folklor raqs ijrochilarining harakatalarida bayramona zavq-shavq, hazilkashlik tuyg’ulari ufurib turgandek bo’ladi. Tabiatning yetti kamalak jilosi aks etgan liboslar sahnaga xo’p yarashgan, katta tantana ruhiga yanada ko’tarinki ruh baxsh etadi. Folklor raqs san’ati milliy professional raqs san’atimizning asosi, poydevori, desak adashmaymiz. Chunki har qanday san’at ibtidoiy ko’rinishdan, havaskorlikdan dunyoga keladi. Folklor asarlarida xalqning orzu-umidlari, his-tuyg’ulari namoyon bo’ladi. Shuning uchun ham ushbu san’at oddiy xalq qalbiga, ruhiga yaqinroq hisoblanadi.

Ma’lumki, raqs san’atining rivoji professional kadrlar bilan bog’liq. Bunday yuksak malakali kadrlarni tayyorlash uchun esa raqs ta’limini yanada rivojlantirish, jahon andozalari darajasiga yetkazish zarur. Hozirgi globallashuv davrida milliy qiyofamiz va o’ziga xos ko’rinishimizni saqlab qolish, sof o’zbekona san’atimizni dunyo miqyosida tarannum etish zaminida ma’naviyatimizning ertangi kunini, istiqbolini ta’minlash, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz ongida milliy g’urur va iftixor hislarini tarbiyalash vazifasi turadi. O’z navbatida bu vazifalar ajdodlarga munosib avlod bo’lish, mavjud merosiy xazinamizni asrab-avaylash va bizdan keyingi avlodlarga qoldirish ishiga mas’ullik tuyg’ularini taraqqiy ettiradi. Bu borada milliy merosiy raqslarimizni o’rganish alohida ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda faoliyat yuritayotgan raqs ustozlari bilimi va tajribasiga tayanib, merosiy raqslarni asliy ko’rinishda o’rganish, ustoz-shogirdlik maktabining munosib davomchilari sifatida mazkur boy xazinani o’zlashtirib, kelgusi avlodga yetkazish, bu borada ilmiy tadqiqot ishlari olib borish endilikda nihoyatda muhimdir. Hozirgi badiiy jarayonlarda ko’zga tashlanayotgan eng katta muammolar ham aynan merosiy raqslarimizni puxta bilmaslik, ularning asliy holatini saqlab qolmaslik bilan bog’liqdir. Buning oqibatida asarlar mazmun-mohiyatining o’zgarib ketishiga, raqslarimizda turli xalqlarga xos bo’lgan yot xatti-harakatlarning kirib qolishiga yo’l qo’yish holatlari ham yuz bermoqdaki, buningdek illatlarni bartaraf etmasdan turib, o’zbek milliy raqs san’ati rivojiga xizmat qilish qiyin.

Musiqa inson madaniyatida va jamoaviy hayotda o‘ziga xos o‘ringa egadir. U dam olish va ko‘ngil ochish paytlari, turli marosim, bayram, bazm va sayillar, diniy va rasmiy tadbirlar, ommaviy va harbiy yurishlar, sport mashklari va mehnat jarayonida muayyan vazifalar bajaradi. Shuning uchun musiqa asarlari o‘z mazmuniga muvofiq holda bir nechta uslub, tur va janr guruhlariga ajratiladi. Alla, zikr, marsiya, sarbozcha, vals, marsh, messa kabi janrlar hayotdagi maishiy va boshqa sharoitlar bilan bog‘liq bo‘ladi. Ashula, dastgoh, cholg‘u kuy, maqom yo‘llari, konsert, miniatyura, romans va boshqalarda estetik ta’sir o‘tkazish vazifalari asosiy o‘rin tutadi. Janrlar, o‘z navbatida, diniy mussha, yoshlar musikasi, maishiy musiqa, ommaviy mussha, harbiy musika, kamer musiqa, simfonik mussha, xor musikasi kabi musiqa turlariga birlashadi. Tarixiy, milliy, mahalliy, shaxsiy musiqa uslublari ham musiqiy tafakkur tarzi, ohang, ritm, shakl kabi musiqiy unsurlarni o‘ziga qamrab olib, muayyan bir davr yoki milliy madaniyatga mansub bo‘lgan turli janrdagi asarlar umumiyatini aks ettiradi (Avangardizm, Barokko, Klassitsizm, Og‘zaki an’anadagi musiqa, Romantizm, Sentimentalizm). Insonning Musiqa faoliyati asosan 3 bosqichda amalga oshiriladi: ijod, ijro va tinglash . Har bir bosqichda asarning mazmun va shakli uzgacha kurinishga ega bo‘ladi. Ijod bosqichida badiiy g‘oya va shakl muallif ongida mushtarak holda tug‘iladi. Ijro jarayonida shakl va mazmun ijrochi tomonidan uning dunyokarashi, estetik tasav-vurlari, shaxsiy tajriba va maxoratiga mos ravishda o’zgartiriladi. Musiqa ixlosmandlari ham ijro etilayotgan asarni uzlarining xususiy didi, hayotiy va badiiy tajribasiga asoslanib qabul qilishadi. Shunday qilib, Musiqa faoliyati hamma bosqichlarda ijodiy tabiatga ega bòladi.

Musiqiy davrlardan biri „ Sharq Renesans" davridir. Bu Amir Temur davri bòlib, bu davrda musiqiy uyǵonish yuz bergan. Amir Temur asos solgan saltanatida Abdulqodir Marog'iy musiqachisi bòlgan. Bu davrgacha musiqiy maqom tizimi “dvozdax" 12 maqom yòli maqom yo'llari ila jamlangan. Bu saroyda podshoh Amir Temur uchun juda kòp g'azallar musiqa tarzida bayon etilardi. Hozirgi kunda esa òzbek maqom yo'llari uchun katta

imkoniyatlar, turli xil musiqiy markazlar va maqomga ixtisoslashgan maktablar ko'paymoqda [2]. Yoshlar òz vaqtini to'ġri sarf qilsa albatta, barchasiga erishadi. Abdulla Avloniy hikmatli sòzlarida quyidagilar mavjud : „ Fikr agar yaxshi tarbiyat topsa, Xanjar, olmosday bo'lur o'tkir [3].

Adabiyotlar

1. Abdumannon Nazarov, Olimjon Bekov. O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.
2. „ Sharq Renesans " davri – ensiklopediyasi.
3. Abdulla Avloniy . „ Hikmatlar sahifasi".

VOKAL SAN'ATINING AHAMIYATI

[1]Ahmedova M.I., [2]Djalalova N.X.

[1]Farg‘ona davlat universiteti "Musiqiy ta'lim va madaniyat" kafedrasi
Musiqa ta'limi yo'nalish, I-bosqich talabasi
[2]Farg‘ona davlat universiteti "Musiqiy ta'lim va madaniyat" kafedrasi o'qituvchisi

Yer yuzida inson paydo bo`lishi bilanoq oziq-ovqatga, kiyim-kechakka ehtiyoj sezganidek, musiqaga ham ehtiyoji bo`lgan. Bunga misol tariqasida, ibtidoiy jamoalarning hayot tarzini olishimiz mumkin. Ov qilish jarayonida, keyinchalik totemizm, anemizm, feteshizm kabi dinlar paydo bo`lgandan so`ng turli diniy marosimlarda ilk kuysimon tovushlar, inson ovozi yordamida ijro etila boshlagan. Dalil sifatida Ispaniyadagi Altamira, Fransiyadagi Lasko, Rossiyadagi Kapova g`ori, O`zbekiston hududida esa Teshiktosh, Seleng`ur kabi g`orlardagi devoriy suratlarni olish mukin. Insoniyat va dunyo sekin-astalik bilan siviliatsiyaga yuz tutar ekan, ko`plab soxalar singari musiqa ham rivojlandi. Birinchi cholg`u sozlari paydo bo`lishdan avval musiqada inson ovozi asosiy vazifani bajarar edi. Asrlar mobaynida ko`plab turli xil cholg`u sozlari yaratildi, lekin shunda ham inson ovozi o`z ahamiyatini yoqotmadi. Demak, aytishimiz mumkinki vokal san`ati eng qadimiy san`at turlaridan biri.

Vokal musiqaga yakka, ansambl hamda xor tarzida, shuningdek cholg‘u sozlari jo‘rligida yoki umuman jo‘rsiz (masalan, katta ashula, akapella xorlari kabi) ijro etiladigan asarlar kiradi. Barcha turlarida xonanda ovozi yetakchi o‘rin tutadi. Vokal san`ati, asosan, badiiy matn (she'riyat) bilan bog‘liq [1]. Shu bilan birga so‘zsiz ijro etiladigan vokaliz ham vokal musiqadir. Xar bir xalqning, joylashgan yeri, yashash tarzi va sharoiti, milliy an`analariga ko`ra vokal ijodi bir-biridan tubdan farq qiladi. Oddiy misol tariqasida Respublikamizning vodiyida (asosan Farg`ona, Andijon viloyatlari) xonandalikning «Katta ashulla» janri rivojlangan bo`lsa, vohasida esa (Qashqadaryo, Surxandaryo va boshqa viloyatlar) baxshichilik san`ati rivojlangan. Shuning uchun ham vokal san`ati, ya`ni xonandalik juda ko`p turlarga bo`linadi. Ularning eng asosiylari: akademik, estrada va an`anaviy vokal. Qolgan kichik va katta janrlarning asosini mana shu 3 ta yirik janrlar tashkil etadi. Vokal san`atida qofiya, melodiya va ritm muhim ahamiyatga ega.

Vokal san`atining o`ziga xos jihatlari:

1.Xor - bir necha ovozdan iborat guruhning birgalikda ijro etishi .

2.Soliq - yakkaxon ijrochilar tomonidan o`z hissiyotlarini ifodalash.

3.Improvizatsiya - ovoz orqali improvizatsiya qilish, ya`ni oldindan tayyorlanmagan holda ijro etish [2].

Vokal san`ati inson ruhiyatini, uning his-tuyg`ularini ifodalash uchun eng kuchli va unumli vositadur. Musiqa orqali odamlar o`rtasida ijtimoiy aloqalarni kuchaytirish mumkin. An`anaviy qo`shiqlar va xalq hikoyalari orqali milliy madaniyatni asrab-avaylashda, ularni

to`laqonli kelajak avlodga yetkazib berishda musiqaning, ayniqsa xonandalikning o`rni katta [3].

Vokal san`atining zamonaviy janrlardagi o`rni juda muhim va ko`p qirrali. Quyidagi jihatlar zamonaviy vokal san`atining ahamiyatini ko`rsatadi:

-Pop: Yengil va keng auditoriyaga mo`ljallangan qo`shiqlarda vokal ijro muhim rol oynaydi. Ovozning rang-barangligi asosiy o`rinda.

-Hip-Hop: Rap vokali va uning ritmik ifodasi musiqaning asosiy qismi bo`lib, mazmun va hissiyotlarni yetkazish uchun muhimdir.

-R&B: Vokal ijro kuchli hissiyotlarni ifodalashga qaratilgan, bu janrda vokal texnikalar keng qo'llaniladi.

Vokal san`ati butun dunyoda amaliy hamda nazariy tomonlama o`rganiladi. Bu haqida o`zbek, jahon, va rus kompozitor, pedagoglari o`z fikrlarini yoritish bilan birga bir qancha kitob va o`quv qo`llanmalar yaratishgan. Ulardan biri, Aleksandr Yegorovich Varlamov tomonidan 1840- yilda yaratilgan «Школа пения» o`quv qo`llanmasi. Ushbu qo`llanma vokal san`atini o`qitish haqidagi birinchi qo`llanmalar sirasiga kiradi. A.Varlamov buyuk rus kompozitori, kapelmeyster, musiqa tanqidchisi va xonanda bo'lib, u vokal san`atini o`qitish metodikasi haqida: "Shak-shubhasiz eng yaxshi usul, jonli ovoz bilan ta'lim berishdir, ya'ni go'zal ovoz iqtidoriga ega bo'lgan yaxshi o'qituvchi qoidalarni misollar bilan, qo'shiqchilik san'atini esa tajriba va amaliyotga asoslangan o'qitish uslubi bilan uyg'unlashtiradi"- deb ta'kidlaydi[4]. Shuningdek, vokal san`atini ilmiy jihatdan barcha musiqashunoslar qatorida, psixolog, fiziolog, hamda pedagog Ivan Mixaylovich Sechenov ham tahlil qilgan. Yaxshi ovoz soxibiga aylanish uchun amaliy tajribaning o`zi kamlik qiladi, ijrochi o`z soxasini tubdan o`rganishi, ijro paytida har bir hosil bo`layotgan tovushga ongli ravishda tayyor turishi zarur. Bu haqida olim I.M.Sechenov shunday degan: "Qo'shiq aytishni biladigan kishi, oldindan ma'lum bo'lganidek, ya'ni tovush paydo bo'lishidan oldin, u qanday qilib ma'lum va oldindan belgilangan musiqiy ohangni ishlab chiqarish uchun ovozni boshqaradigan barcha mushaklarni tartibga solishni biladi, kerak bo'lsa mushaklari bilan, ovozi yordamisiz, o'z ongi uchun, har qanday tanish qo'shiqni ijro eta oladi" [5].

O`zbekistonda vokal san`ati sohasidagi islohotlar haqida gapiradigan bo'lsak,

ular bir qator muhim yo'nalishlarni tashkil qiladi. Bu islohotlar quyidagi asosiy jihatlarni o'z ichiga oladi:

- Ta'lim tizimini takomillashtirish va yangi dasturlarni ishlab chiqarish, ya`ni vokal san'ati bo'yicha zamonaviy ta'lim dasturlari ishlab chiqilmoqda.

- O'qituvchilarni malakasini oshirish: O'qituvchilarni xalqaro tajribalardan foydalanish orqali malakasi oshirilmoqda .

- Madaniy tadbirlar, festival va musiqiy tanlovlar o`tkazish: yosh ijrochilarni qo'llab-quvvatlash maqsadida xalqaro va mahalliy festivallar tashkil etilmoqda. O'zbekistondagi vokal san'ati festivallari, asosan, milliy va xalqaro ijrochilarni bir maydonga keltirish, madaniyatni rivojlantirish va yosh iste'dodlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida tashkil etiladi.

Adabiyotlar

1.Mirxaydarova Z. Muzika v dramaticheskom teatre Uzbekistana. M., 1981.

2.Matyakubov I.B. Xor va Xorshunoslik. Toshkent, 2019 yil. Fan va texnalogiya nashiryoti.

3. Abdusattorov, A. About Makom Melodies Adapted for Orchestra of Uzbek Folk Instruments. *International Journal on Economics, Finance and Sustainable Development*, *2*(11)

4.Варламов А.Е Школа пения. - М.Музгин 1953, - 51с
5.Сеченов И.М Избранные произведения - Т.1 2 - Медкнига 1952 -510

YOSHLAR ESTETIK TAFAKKURINI YUKSALTIRISHNNG IJTIMOY-MADANIY OMILLARIDAN BIRI – SAN'ATDIR

Djalalova N.X.
Farg'ona davlat universiteti "Musiqiy ta'lim va madaniyat" kafedrasi o'qituvchisi

San'at-insonlar tomonidan yaratilgan barcha go'zal va betakror narsalardir. San'at ko'p yo'nalishlarga ega bo'lib, insoniyat madaniyatining bir qismi hisoblanadi. San'at: tasviriy san'at, raqs va xoreografiya, teatr, musiqa va shu kabilarni o'z ichiga oladi. Qadimdan insonlar o'z hissiyotlarini tasviriy san'at, arxitektura, raqs, teatr, musiqa ko'rinishida tasvirlashga va yetkazishga harakat qilganlar. Bugungi jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan dunyoda san'at juda zarur, chunki u o'z-o'zini anglash tuyg'usini rivojlantiradi. Shuningdek, san'at jamiyat va uning muammolarini kuchli ifoda etib, davr qadriyatlarini namoyon etadi, yangi estetika va tendentsiyalarga asos bo'ladi.San'atda go'zallikning foydalilik darajasidan qat'iy nazar mavjud bo'lgan go'zallikka intilinadi.San'at bu dunyoni og'zaki shakllar vositachiligisiz idrok etish imkonini beradi(rasmlarni tomosha qilish, musiqa tinglash, ilhomlanish). San'at yoshlarning rivojlanishiga va ularning madaniyatiga ta'sir qiladi, ularning hayotida ishtirok etadi, yordam beradi, axloqiy, estetik fazilatlarni shakllantirishga hissa qo'shadi. Shuningdek, san'at shaxsning ichki dunyosini ochib berishga, estetik idrokni, o'ziga xoslikni rivojlantirishga, go'zallik va ilhomdan zavqlanishiga yordam beradi. Bundan tashqari san'at insonlarning his-tuyg'ularini ifoda etishlariga, boshqarishga va hayotda go'zallik va uyg'unlikni topishga yordam beradi. San'at asarlari shaxsni o'rab turgan dunyoning estetik ifodasidir. San'at -atrof olamni amaliy o'rganishga yordam beradi. Hayotdagi san'atning ahamiyati haqida insonlar o'ylamasligi mumkin. lekin, u tajribalarga, his-tuyg'ularga ta'sir qilishi va hatto ilhomlantirishi mumkin. Ba'zan san'at odamlarni qiziqishlari asosida birlashtiradi va ularning rivojlanishiga yordam beradi, insonlar hayotini turli ifoda va g'oyalar bilan boyitadi.Tadqiqotchi olimlar muntazam ravishda ijodkorlik bilan shug'ullanadigan odamlar stressga chidamli bo'lishlarini, yangi sharoitlarga tezroq moslashishlarini va muammolarni hal qilishning yangi usullarini topishga qodir ekanligini isbotlaganlar. Falsafiy nuqtai nazar bilan qaralganda san'at- bu voqelikni go'zallik qonunlariga ko'ra ma'naviy va amaliy o'zlashtirishning alohida turidir. San'at falsafasi - madaniyat falsafasining bir qismi bo'lib, uning o'ziga xos xususiyati estetikadir va u san'at falsafasining asosi va mohiyati hisoblanadi. San'atning asosiy vazifasi odamlar ongiga ta'sir qilish va insonning ma'naviy rivojlanishiga yordam berishdir. Nemis teatr arbobi Bertold Brext: "Barcha san'at turlari eng buyuk san'atga - er yuzida yashash san'atiga xizmat qiladi"- deb juda chiroyli fikrni aytib o'tgan. San'at, uning borlig'i, mohiyati masalalari falsafa estetikasi doirasida tafakkurning maxsus turi sifatida ko'rilishi mumkin. San'at falsafasi san'at va falsafa o'rtasidagi munosabat masalasini ko'taradi. Nemis faylasufi M. Xaydegger XX- asrning eng ko'zga ko'ringan mutafakkiri bo'lib, u o'z qarashlarida san'atga bizning charchagan tafakkurimizni "qutqaruvchisi" sifatida baho beradi [1]. San'at falsafasi estetikani o'z ichiga qo'shadi. Taqiqotchilar o'z izlanishlarida falsafiy mulohaza qilishib, san'atning har bir turi nafaqat sof estetik vazifalarni , balki estetikadan tashqaridagi vazifalarni ham ochib berishini aytib o'tganlar . Shu bilan u falsafaga aylanib, san'atning ijod manbai yoki borliq haqida mulohaza yuritishi, falsafaga oid savollarni ko'tara olishini isbotlab berganlar.

Davlatimiz Prezidenti Sh. Mirziyoyevning san’at va madaniyatni rivojlantirishga qaratilgan qaror va farmonlari ham san’atning jamiyat hayotidagi o’rni kattaligidan dalolat beradi. Quyidagi qaror va farmonlar shular jumlasidandir:

“Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi Prezident Qarorida yoshlarning madaniy salohiyatini ko’tarish, ularni milliy va jahon madaniyatning namunalaridan bilan tanishtirish asosida ma’naviy yetuk, barkamol shaxslarni tarbiyalash, yoshlarning qobiliyati va salohiyatini ro‘yobga chiqarish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirish ko’zda tutilgan [2]. Jumladan: muzeylar va teatrlar faoliyatini takomillashtirish, moddiy madaniy meros va arxeologiya obyektlarini muhofaza qilish, madaniyat va san’at muassasalari, teatrlar, muzeylar, badiiy jamoalar, madaniyat va aholi dam olish maskanlari, madaniyat va istirohat bog‘lari faoliyati uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, o’zbek milliy raqs va xoreografiya san’atini yanada rivojlantirish, yoshlarni teatr va muzeylar,konsert tomoshalariga muntazam jalb etish, o‘zbek va jahon madaniyatining eng sara namunalaridan bahramand etish orqali ularning ma’naviy-axloqiy, estetik didi va madaniy darajasini yanada yuksaltirishga qaratilgan chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish.

“Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi Prezident Qarorida esa fuqarolarga madaniy dam olish xizmatlari ko‘rsatish darajasini oshirish, respublikaning barcha hududlarida teatr, sirk va boshqa turdagi ommaviy-madaniy va konsert-tomosha tadbirlarini tizimli ravishda yo‘lga qo‘yish, madaniyat va san’at sohasida iste’dodli yosh ijodkorlarni izlab topish va qo‘llab-quvvatlash, ta’lim muassasalarini milliy cholg‘ular, musiqa darsliklari, notalar to‘plamlari va o‘quv-metodik adabiyotlar bilan ta’minlashning yaxlit tizimini yaratish maqsadida, shuningdek, 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturini ishlab chiqishga farmoish berdi [3].

Shuningdek, Prezident ma’naviyat va ma’rifat sohasida 9 ta yo‘nalishda muhim tashabbuslarni ilgari surdib,unda Prezident quyidagilarni ta’kidlab o’tdi: ma’naviyat va ma’rifat maskanlari ishga tushirish, teatr san’atini rivojlantirish; sahnali zali, kutubxona, kinozal va to‘garak xonalari bo‘lgan bittadan madaniyat markazi faoliyati yo‘lga qo‘yish, maqom, katta ashula, baxshichilik, atlas va adras, kulolchilik va zargarlik kabi an’analarni davom ettiradigan maktablar yaratish; musiqa va raqs san’ati rivoji qo‘llab-quvvatlanadi; muzeylar faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha yetti yillik dastur qabul qilish; kino, tasviriy va amaliy san’at sohasini hamda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish; “O‘zbek madaniyati” portalini yaratish va internet adabiyotini rivojlantirish [4].

Madaniyat va san’at sohasining jamiyat hayotidagi o‘rni va ta’sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi Prezident Qarorida ham biz madaniyat va san’at jabhalaridan bo’lgan muzey, san’at ob’yektlarini restavratsiya qilish bo‘yicha; ko‘rik-tanlovlarni qayta tiklash bo’yicha; mamlakatimizda o‘tkazib kelinayotgan Xalqaro maqom san’ati anjumani, Xalqaro baxshichilik san’ati festivali, “Sharq taronalari” xalqaro musiqa festivali, “Buyuk ipak yo‘li” xalqaro folklor san’ati festivali hamda “Raqs sehri” xalqaro festivali tashkil etilib, o‘zbek mumtoz va folklor san’atining noyob namunalari va an’analarini rivojlantirish bo‘yicha samarali ishlar yo‘lga qo‘yilganligining guvohi bo’lmoqdamiz[5].

Adabiyotlar

1. Хайдеггер, М. Исток художественного творения. — М.: Академический проект, 2008. — ISBN 978-5-8291-1040-6.

2.Sh.Mirziyoyev.31.05.2017.“Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ.

3.Sh.Mirziyoyev.02.02.2022.“Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ.

4. Sh.Mirziyoyev.22.12.2023. Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining kengaytirilgan yig‘ilishi.

5. Sh.Mirziyoyev.28.05.2020 . Madaniyat va san’at sohasining jamiyat hayotidagi o‘rni va ta’sirini yana-da oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida PQ.

ARTPEDAGOGIKA - DARSLARNI O`QITISHNING ZAMONAVIY USULI SIFATIDA

Nasritdinnova M.N.

Farg‘ona davlat universiteti Musiqiy ta’lim va madaniyat kafedrasi o‘qituvchisi

Mamlakatimizda bo‘lajak o‘qituvchilarini tayèrlash jaraènini xalqaro malaka talablari asosida tashkil etish, ularni ilg’or xorijiy tajribaga asoslangan holda tayyorlash dunyo hamjamiyatida erkin muloqot qila oladigan mutaxassislar yetishtirish, jahon tsivilizatsiyasi yutuqlaridan keng foydalanishning me’yoriy asoslari yaratildi va moddiy-texnik bazasi boyitildi. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “Xalqaro ta’lim standartlarini joriy etish va ta’lim sifatini baholash asosida oliy ta’lim muassasalari faoliyati sifati va samaradorligini oshirish[1]” ustuvor vazifa etib belgilandi. Natijada, oliy ta’lim muassasalarida san’at fakultetlarinig ochilishi, oliy akademik musiqa dargohlari faoliyati sohalarning ko`payishi salohiyatli kadrlarni ish foaliyatiga safarbar etish imkoniyati kengaytirilmoqda.

Artpedagogikaning paydo bo‘lishi pedagogika va san'at integratsiyasining yangi yo‘nalishi sifatida belgilangan vazifalarni amalga oshirish imkoniyatlari kengaydi. Shunga ko‘ra, bir necha xil san'at turlarining shaxga tarbiyaviy ta'sirni qo‘llashni integratsiyalashuviga asoslangan artpedagogikani ilmiy-pedagogik yo‘nalish sifatida ko‘rib chiqish muammolari, ularning asosiy mexanizmi badiiy tasvirlarni hissiy idrok etish san'atda jamlangan ijtimoiy tajribani o‘zlashtirish dolzarb bo‘lib qoladi.

O‘quvchilarni axloqiy fazilatlarini tarbiya jarayoniga artpedagogikani joriy etilishi, uning imkoniyatlaridan to‘laqonli foydalana bilish o‘sib kelayotgan Yangi O‘zbekiston yoshlari tafakkurining rivojlanishi, atrof-muhitda bo‘lib turgan voqeyliklarga ongli ravishda shaxsiy munosabat xosil qila olish kabi zaruriy hayotiy tajriba xosil qilish imkonini beradi.

Yoshlarning axloqiy fazilatlarni tarbiyalashda san’at vositalaridan foydalanishning samarali pedagogik shartlari va texnologiyalarini ishlab chiqish hamda tajribani asoslash, sub'ektlar o‘zaro ta'sirining ma'lum bir algoritmini, uni o‘quvchilar ta’lim jarayoniga tadbiq etishni nazarda tutuvchi musiqa darslari vositasida axloqiy tarbiya modelini ishlab chiqish va dasturini amaliyotga tadbiq etishni nazarda tutiladi.

Buyuk faylasuf olim, o‘rta asr Sharq musiqa nazariyasining asoschilaridan biri Abu Nasr Muhammad Farobiydir. Alloma ajoyib musiqachi va musiqa nazariyachisi ham edi. U o‘z davrida mavjud barcha musiqa cholg’ularini chalishni bilgan. Ayniqsa, kuylarni nay va tanbur cholg’ularida katta mahorat bilan ijro etgan.

Ba’zi manbalarda ko‘rsatilishicha, Farobiy qonun cholg’usini ixtiro etgan, o‘sha davrlarda mashhur bo‘lgan ud sozini takomillashtirishda juda katta ishlar olib borgan. Farobiy o‘zining musiqaga bag’ishlagan risolalarida Sharq musiqa nazariyasini asoslab berdi.

Abu Ali ibn Sino ham O‘rta Osiyodan chiqqan ulug’ olim, faylasuf, tabiatshunos, mashhur tabib bo‘lish bilan birga ajoyib musiqa nazariyachisi ham edi. Ibn Sinoning “Kitabush-shifa”, “Donishnoma” kabi asarlarining musiqaga doir qismi va “Risalatun fi-ilmil-musiqiy” kabi risolalari Abu Nasr Farobiy asarlari qatorida jahon musiqa fani va madaniyati tarixida alohida o‘rin tutadi.

Ibn Sino musiqa haqida maxsus ilmiy-nazariy asarlar yozish bilangina cheklanmadi, balki musiqaga bag’ishlangan asarlarini tibbiyot kitoblarida ham aks ettirdi.

Ibn Sino o‘zining “Tib qonunlari” kitobida bir o‘rinda musiqaning ruhiy ta’sir kuchiga baho berib, go‘dakning tarbiyasidagi ahamiyatini shunday ta’riflaydi: “Go‘dakning organizmi chiniqishi uchun ikki narsa zarur: biri uni asta qimirlatib tebratish, ikkinchisi esa onaning qo‘shig’i (alla)dir. Birinchisi bolaning tanasiga, ikkinchisi ruhiga tegishlidir” [2].

Abu Bakr Buxoriy-Kalobodiy musiqa tovushlari-nag’malarni ta’riflab, ularni “jon quvvati va ruh ozig’i turur. Agar jon nag’madan quvvat topsa, o‘z maqomi sari ishrof aylaydi, ul maqom ila mashg’ul bo‘lardi”[5;240], deb yozadi. Demak, musiqa insonga ma’naviy ozuqa bo‘lishi bilan birga uni tarbiyalashda ham ahamiyatli ekan. CHunki, ruhi tetik va barkamol kishi o‘zida yaxshi insoniy fazilatlarni mujassam eta oladi.

O‘zbekiston Respbulikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev ta’kidlaganidek, “Musiqa san’ati madaniy fenomen sifatida yangi avlodni tarbiyalash va kamolga yetkazish borasida cheksiz imkoniyatlarga egadir” [6].

San’at bilan oshno bo‘lgan yoshlarning hayotga munosabati, milliy urf-odat va umumbashariy qadriyatlarga hurmati baland bo‘ladi[7].”

Darhaqiqat musiqa ta’limi bola shaxsida komil insonning qimmat baho fazilatlaridan: qat’iyatlilik, iroda, kuchli xotira, abstrakt fikrlash, miyaning har ikki yarim sharini tengdek shakllanishiga erishish natijasida tiniq tafakkur, zexn, nutqning ravonligi, chiqishimlilik, o‘zaro fikr almasha olish kabi diplomatik xususiyatlarni o‘zlashtiradi.

Xech bir sohada kuzatilmydigan imkoniyatlar musiqa darslarida mujassamlangan. Ta’lim oluvchi shaxsiga yakka holda yo‘naltirilgan pedagogik usullarning variativ qo‘llanishini, unda tarbiyalanuvchining temperamenti, xarakteri, muloqot metodini hisobga oluvchi musiqiy-pedagogik sharoitda pedagogik faoliyatni algoritmlashtirish murakkab vazifadir[8:100].

Barcha o‘quvchilarning individual imkoniyatlarini inobatga olgan holda turli xoxish va istaklarining amalga oshirilishi ta’limda integratsiyalangan yondashuvni ta’minlaydi[9;578].

Pedagogik-psixologik adabiyotlarga murojaat etish shuni ko‘rsatadiki, musiqiy ta’limning ushbu zamonaviy metodlari ma’lum bir mezonlarga asoslanadi:

– texnologik, ya’ni metodni pedagogik texnologiyalarga taqqoslash, xususan, hozirda tushuntirish-ilovalash texnologiyasidan rivojlantiruvchi, muammoli, shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalarga o‘tish;

– psixologik – yirik shakldagi musiqa asarlarini o‘rganishda metodlar yoshlar psixologiyasi nuqtai nazaridan ahamiyatli bo‘lishi lozim. I.S.Kon buning ikkita muhim jihatini alohida ta’kidlaydi [10:194].

Bugungi kunning ayrim tendentsiyalarini inobatga olgan holda fikr yuritayotgan qatlamni fikriga ko‘ra ta’lim muassasalarida musifa darslari umuman keragi yo‘q deya ta’kidlanayotgan bir vaqtda, chet davlatlarda ko‘p yillardan buyon “Musiqa terapiyasidan” unumli foydalanib kelinmoqda. Musiqiy asarlarni tanlashda musiqiy terapiya kursini o‘tayotgan insonning musiqiy ta’lim darajasi, musiqiy adekvatlik xususiyatlarni inobatga olgan holda elektropunktur test sinovlaridan foydalanish mumkin. Yakkaxon asboblarni

tanlashda jadval asosida meridian diagnostikasini hisobga olgan holda amalga oshiriladi: [11:16]

5 ta bosh element	5 ta chjan organlari (zich)	5 ta fu organlari (ichi bo‘sh)	Cholg’u asbobi
Daraht	Jigar	O‘t qopi	Ksilofon, goboy, fleyta, klarnet
Olov	Yurak	Ingichka ichak	Gitara, skripka, lira, violonchel;
Er	Qora toloq	Oshqozon	Fleyta, vokal;
Metall	O‘pkalar	Semiz ichak	Fleyta, saksofon, simbalalar;
Suv	Buyraklar	Siydik qopi	Baraban, tanburin, litavralar;

Dunyoda musiqiy terapiyani ilgari surayotgan “Amerika” va “Shved” ilmiy amaliy maktablari tashkil topishidan ancha asrlar ilgari tibbiyot ilmining sarchashmasi Abu Ali ibn Sino amaliyotda musiqa ilmidan forig’lantiruvchi manba sifatida foydalanish omillarini milliy kasbiy musiqamiz negizi bo‘lmish maqomlar orqali ilgari surgan. Alloma o‘zining “Tib qonunlari” entsiklopedik kitobining “Inson mijoziga bag’ishlangan bo‘limida” qay bir mijozdagi (temperament) insonga qaysi “maqom”[2:21] xush kelishi va qay bir “maqom” ijrosi orqali kishi ruhini osmonu falakka olib chiqish hamda aksincha natijalarga erishish mumkinligini, musiqa ohangi orqali sog’ni aqlidan ayirish va telbaga shifo ulashish malakalarini qo‘llaganini ta’kidlaydi.

Yuqoridagilarga asoslanib, xulosa o‘rnida shuni ta’kidlashimiz mumkinki, musiqa darslarini zamonaviy texnologiyalar vositasida tashkil etilishi o`quvchi shaxsini ijobiy ko‘nikmalarni egallashda muhim ahamiyatga ega va biz ularni katta hayotga safarbar etar ekanmiz, san’at vositasida barkamol avlod istiqboli yo‘lida quyidagi zarur sifatlarga erishishimiz mumkin:

1. Shaxsning o‘ziga bo‘lgan hurmatini oshirish.
2. O`uvchilarga o`zini ijodiy tomondan ifoda etish imkoniyatini yaratish va jamiyatda bunday qobiliyatli shaxslarni uyushishini ta’minlanishi;
3. Muloqot va muloqot madaniyati doirasini kengaytirish.
4. Bolalarni yuksak axloqiy qadriyatlar bilan tanishtirish, ularning musiqiy-estetik didini rivojlantirish.

Bundan tashqari, hissiy, xulq-atvor va shaxslararo muammolarni hal qilishga musiqiy va estetik ta’lim yordam berishga qaratilgan psixo-pedagogik aralashuvdir.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanadarivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g’risida”gi PF-4947-son Farmoni. – O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son, 70-modda
2. Abu Ali Ibn Sino “Tib qonunlari”I,II. T., 1979-1980y., b – 21.
3. Nurullayevna, N. M. (2022). THE ROLE OF PEDAGOGICAL ACTIVITY IN CREATING A NEW UZBEKISTAN ENLIGHTENED SOCIETY. *BEST SCIENTIFIC RESEARCH-2023*, *1*(1), 238-241.

4. Менделевич Д.М., Малышева С.Ю. Слово о профессореГригории Яковлевиче Трощине // Неврологический вестник. — 2003. — Т. 35, вып. 1—2. — с. 70—75.
5. Mirziyoev SH.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 2020. – B.344
6. Pedagogik atamalar lug’ati. –Toshkent: “Fan”, 2008. –B. 100.
7. Насритдинова, М. Н. (2022). МУСИҚА ИНСОНИЯТГА НИМА УЧУН КЕРАК?. *Science and innovation*, *1*(Special Issue 2), 577-580.
8. Кон И.С. Психология старшеклассника. – Москва: 1982. –с.194
9. Т.Л.Оленская, А.А.Марченко, Л.Л.Шабенко, А.В.Врагов, Е.А.Марченко. - История и современные тенденции музыкатерапии. Стр – 16.

MULOHAZA. MULOHAZA INKORI. KONYUNKSIYA VA DIZYUNKSIYA. MULOHAZALAR VA ULAR USTIDA ISHLASH

[1]Berdiyev B.R., [2]Panjiyeva Sh.Z.
[1]Qarshi DU “Boshlang‘ich ta’lim“ kafedrasi dotsenti
[2]Qarshi DU “Boshlang‘ich ta’lim” yo‘nalishi talabasi

Rost yoki yolg‘onligi bir qiymatli aniqlanadigan darak gaplar **mulohaza** deyiladi.

So‘roq yoki his-hayajon gaplar mulohaza bo‘la olmaydi. No‘malum qatnashgan gaplar ham mulohazaga kirmaydi.

Matematik mantiq fanida mulohazani bayon qilish shakli emas, faqat rost yoki yolg‘onligi qiziqtiradi. Rost mulohazani “T” yoki 1, yolg‘on mulohazani “F” yoki 0 deb belgilaymiz.

Matematikada har bir teorema mulohaza hisoblanadi.Teoremani isbotlash uchun oldin rostligi isbotlangan teoremalar, aksiomalar va boshlang‘ich tushunchalardan foydalanamiz. Ma’lumki, sodda mulohazalardan bog‘lovchilar yordamida murakkab mulohazalar hosil qilinadi. Bular “emas”, “va”, “yoki” “…kelib chiqadi”, “zarur va yetarli” kabi bog‘lovchi so‘zlar bo‘lib, bularni har bittasi bitta mantiqiy amalga mos keladi.

Masalan: 1) ” 2 eng kichik tub son va u juft son”

2)“ Agar berilgan sonning oxirgi ikki raqami 0 yoki 4 ga bo‘linadigan son bo‘lsa, berilgan son 4 ga bo‘linadi”

3)“ 21 ning bo‘luvchilari soni 4 ta”

4)”Birinchi avtomatik kompyuter 1944-yil Govard Eyken va International Business Machines korporatsiyasining bir guruh muhandislari tomonidan ishlab chiqarilgan.”

5)” Universitetda talabalar soni oshib bormoqda”.

Mulohaza inkori. A rost bo‘lganda yolg‘on , yolg‘on bo‘lganda rost bo‘lgan mulohazaga A mulohazaning inkori deb ataladi. A mulohaza inkori $\bar{A}$ ko‘rinishida belgilanadi.

A	A
R(+)	Y(-)
Y(-)	R(+)

a) Qishda yog‘adi - T rost

b) Qishda yog‘maydi – F yolg‘on

a -mulohaza **b**- mulohaza inkori





Mulohazalar konyunksiyasi.

Ikkita sodda A, B mulohazalardan tuzilgan “A va B” mulohazaga mulohazalar konyunksiyasi deyiladi.

A	B	A∧B
T(+)	T(+)	T(+)
T(+)	F(-)	F(-)
F(-)	T(+)	F(-)
F(-)	F(-)	F(-)

A	B	A∧B
R	R	R
R	Y	Y
Y	R	Y
Y	Y	Y

M:  - bu olma -**T** rost

 - bu nok-**F** yolg‘on

Rasmdagi olma va nok – **F** yolg‘on

Mulohazalar konyunksiyasi uning tarkibiga kirgan mulohazalar rost bo‘lganda rost, yolg’on bo‘lganda yolg’on bo‘ladigan va “ A ∧ B “ ko‘rinishida yoziladi va “ A va B “ kabi o‘qiladi

Mulohazalar dizyunksiyasi.

Ikkita sodda A, B mulohazalardan tuzilgan “ A yoki B “ mulohazaga mulohazalar dizyunksiyasi deyiladi.

A	B	A∀B
T(+)	T(+)	T(+)
T(+)	F(-)	T(+)
F(-)	T(+)	T(+)
F(-)	F(-)	F(-)

A	B	A∀B
R	R	R
R	Y	R
Y	R	R
Y	Y	Y

M: Quyon  yeydi -T – rost

Quyon  yeydi -T – rost

Quyon sabzi va karam yeydi -T – rost

M:

Mulohazalar dizyunksiyasi “A ∀ B“ ko‘rinishida yoziladi, A yoki B ko‘rinishida o‘qiladi va uning tarkibiga kirgan mulohazalarning hech bo‘lmaganda bittasi rost bo‘lganda rost bo‘ladi.

Ta’limning muammoli metodlaridan kengroq foydalanish kerak, chunki ular talabalarda yangi bilimlarni mustaqil kashf etishiga, ularni o‘z kuchiga ishonch hosil qilishiga olib keladi;

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, talabalarning mustaqil ishlashga va mustaqil ta’lim olishga o‘rgatish bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlashda alohida ahamiyat kasb etadi, chunki mustaqil ishlash va mustaqil ta’lim olish talabalarni yangi bilimlar bilan boyitadi, har qanday nostandart holatlarda ularda o‘zlariga tegishli bo‘lgan shaxsiy yechimlarini topishga o‘rgatadi.

Adabiyotlar

1. Berdiyev B. R.,“Matematika o‘qitish metodikasi” (Mustaqil ish va kurs ishlarini bajarish ta’lim texnologiyasi). O‘quv qo‘llanma Qarshi. “Fan va ta’lim” nashriyoti. 2022 yil

2. Berdiyev B. R., Oliy ta’lim muassasalari talabalari mustaqil ta’limini boshqarishning nazariyasi va metodikasi. Monografiya Qarshi. “Fan va ta’lim” nashriyoti. 2022 yil.

3. Berdiyev B. R. “Matematika o‘qitish metodikasidan talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish yo‘llari”.“Mug‘allim hem uzluksuz bulumlendiruo‘” Ilimiy - metodikaliq jurnal. Nukus, №4-2 2020 jil,76-79 b.

4. Berdiyev B. R. “Matematika o‘qitish metodikasi fanini o‘qishda matematik tarkib bilan ishlashda talabalarning mustaqil ishlarini uslubiy ta’minlash tizimi” “TDPU ilmiy axborotlari”, ilmiy–nazariy jurnal 1-son. Toshkent.-2021.25-28 b.

5. Yo‘ldoshev J.T. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari divergent tafakkurini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish. Monografiya. Qarshi. “Fan va ta’lim” nashriyoti. 2023.–104 b.

6. Sharipov E. O. Berdiyev B. R. Matematika (OO‘Yu ucnun darslik) Qarshi “Intellekt” nashriyoti 2023 yil. 210 b.

7. Sultonova O‘.N. Fizikadan o‘quvchilarning mustaqil o‘quv faoliyatini tashkil etish metodikasi: Avtoref. dis. ... ped. fan. nom. – T.: 2007.– 22 b.

TA’LIM JARAYONINI ARTPEDAGOGIK YONDASHUV ASOSIDA TASGKIL ETISHNING ZAMONAVIY USULILARI

Nasritdinnova M.N.
Farg‘ona davlat universiteti Musiqiy ta’lim va madaniyat kafedrasi o‘qituvchisi

O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “jismonan sog’lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat’iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish”[1] kabi ustuvor vazifalar belgilandi.

Zamon allaqochon o‘zgardi, uning talablari u bilan birga o‘sib borayotgan bir pallada ta’lim berish shakli, usullari eskiligicha qolib ketmoqda. Albatta barcha yangi tendensiyalar asos, ya’ni eskini ustiga quriladi, lekin uning mukammallashib borayotgani ta’limning zamon, jamiyat buyurtmasiga asosan mobillashishidadir[2].

Pedagogika va psixologiyada shaxsning semantik sohasiga qiziqish tobora ortib borayotgani bejiz emas. "Ma'no" tushunchasining mazmunini ochishga birinchi urinish A.N. Leontyev tomonidan amalga oshirilgan[3]. Olimning fikricha ma'no faoliyat motivining maqsadiga munosabati sifatida namoyon bo‘ladi.

N.Yu.Sergeeva, J.S.Valeevalar o`z tadqiqotlarida shaxsni ijtimoiylashtirishda badiiy pedagogika shaklidagi ijod usullaridan foydalanganlar.

Ijtimoiy hayotda ro`y berayotgan noxush voqeyliklar, statistik ma’lumomlar tahlillari natijasiga ko`ra maktab faoliyati amaliyotida san’atning tarbiyaviy imkoniyatlaridan to‘liq foydalanilmayotgani qayd etilmoqda.

San’at vositasidagi ta'lim jarayoni – o`quvchining erkin axloqiy munosabatlarini shakllantirishga hissiy jihatdan boy muhit yaratishga hissa qo‘shadigan innovatsion pedagogik texnologiya - san'at yordamida shaxsga ta'sir qilishning noan'anaviy yondashuv dasturidir.

Shu bilan birga, musiqa darslari vositasida o‘quvchi shaxsining axloqiy fazilatlarini tarbiyalashda bir qator harakat vositalari bo‘lmish, raqs, tasviriy san’at, musiqa va ularni umumlashtiruvchi unsur improvizatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyati mavjud. Ekspressiv san'at vositalari bolalarga ongsiz ravishda ta'sir o‘tkazishga imkon beradi, bu esa o‘z-o‘zidan o‘quvchilarni ijodiy fikrlashga, g'oyalari va hissiy reaktsiyalarini yuzaga chiqarishga zamin yaratadi.

Maqolamiz mavzusi nazarda tutgan muammoni Sharq mutafakkirlari qarashlariga yuzlanadigan bo‘lsak, Ulug’ ajdodimiz Abu Ali ibn Sino musiqa inson ma’naviy qiyofasini yanada mukammallashtirishini ta’kidlagani bejiz emas. Darhaqiqat, navo jozibasini so‘z bilan ifodalash qiyin. Mumtoz musiqalarimiz kishi ruhiyati, ma’naviyatiga ijobiy ta’sir o‘tkazuvchi qudratga ega. Ular insonni ezgulikka da’vat etadi, tinglovchini borliq, hayotning mazmun-mohiyatini anglab yetishga, falsafiy mushohadaga undaydi.

O‘rta Osiyo xalqlarining musiqa madaniyati tarixiga doir qadimiy yozma manbalar va arxeolog olimlar tomonidan topilgan yodgorliklar buning yaqqol dalilidir.

Yuqoridagilarga asoslanib, xulosa o‘rnida shuni ta’kidlashimiz mumkinki, musiqa darslarini zamonaviy texnologiyalar vositasida tashkil etilishi o`quvchi shaxsini ijobiy ko‘nikmalarni egallashda muhim ahamiyatga ega va biz ularni katta hayotga safarbar etar

ekanmiz, bo‘lajak pedagoglarni kasbiy kompetentligini san’at vositasida barkamol avlod istiqboli yo‘lida rivojlantirish kabi mas’uliyatli vazifalarni yuklaydi.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanadarivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g’risida”gi PF-4947-son Farmoni. – O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son, 70-modda
2. M.Nasritdinova. Artpedagogika o‘quvchilarining axloqiy-estetik tarbiyasida zaruriy vosita sifatida. Oriental renessans. 2023., Vol 3.
3. Леонтьев А.Н. Проблемы развитие психики. – М.: APN РСФСР, 1959.
4. Abu Ali Ibn Sino “Tib qonunlari”I,II. T., 1979-1980y., b – 21.
5. Nurullayevna, N. M. (2022). THE ROLE OF PEDAGOGICAL ACTIVITY IN CREATING A NEW UZBEKISTAN ENLIGHTENED SOCIETY. *BEST SCIENTIFIC RESEARCH-2023*, *1*(1), 238-241.

APPLICATION OF MODERN TECHNOLOGIES IN TEACHING COMMUNICATION SKILLS

Valieva N.Z.
Teacher, Teaching English Methodology Department №3, Uzbekistan State World Languages University

In the digital age, effective communication skills have become indispensable, permeating various aspects of personal, academic, and professional life. As technology continues to shape and redefine communication practices, the ability to communicate clearly, persuasively, and adaptively has emerged as a critical competency for success. This article underscores the paramount importance of communication skills in navigating the complexities of the contemporary world, where rapid advancements in technology have transformed the way we interact and collaborate. Against this backdrop, the article sets out to explore the integration of modern technologies into communication skills instruction, recognizing their potential to augment learning experiences and foster proficiency in diverse communication contexts. By examining the intersection of communication pedagogy and instructional technology, this article aims to provide educators and practitioners with insights, strategies, and best practices for harnessing the power of technology to cultivate effective communicators in the digital era.

In the realm of communication skills development, a plethora of technological tools offer innovative avenues for enhancing learning experiences. Multimedia presentations and visual aids enable learners to engage with content in dynamic and interactive ways, facilitating comprehension and retention of information. Interactive simulations and virtual reality platforms immerse learners in realistic scenarios, providing hands-on experiences and opportunities for experiential learning. Online collaboration platforms and video conferencing tools facilitate seamless communication and collaboration among learners, regardless of geographical distance, fostering teamwork and interpersonal skills. Language learning apps and software provide personalized and adaptive learning experiences, catering to individual needs and preferences while offering opportunities for skill reinforcement and practice. Moreover, social media and blogging platforms serve as authentic contexts for communication practice, enabling learners to interact with peers and audiences, share ideas, and receive feedback in real time, thereby honing their written and verbal communication

skills in diverse social settings. By leveraging these diverse technological tools, educators can create dynamic and engaging learning environments that empower learners to develop fluency and proficiency in communication across various contexts.

The integration of technology into communication skills instruction yields a myriad of benefits that enrich the learning experience for students. Firstly, it enhances engagement and motivation by providing interactive and dynamic learning environments that cater to diverse learning styles and preferences. Through multimedia presentations, gamified activities, and interactive simulations, students are actively involved in their learning process, fostering a sense of ownership and intrinsic motivation. Secondly, technology facilitates access to authentic language use and cultural immersion through online resources, virtual exchanges, and digital media platforms. Learners can engage with native speakers, access real-life communication contexts, and explore diverse cultural perspectives, thereby enriching their understanding and appreciation of the target language and culture. Moreover, technology enables personalized learning experiences by offering adaptive learning platforms, customizable content, and individualized feedback mechanisms that cater to students' unique needs and learning trajectories. Additionally, technology provides opportunities for real-time feedback and assessment, enabling instructors to monitor student progress, identify areas for improvement, and provide timely support and guidance. Lastly, the flexibility and convenience afforded by technology in learning delivery allow students to access learning materials and engage in communication activities anytime, anywhere, promoting autonomy and self-directed learning. Overall, the integration of technology into communication skills instruction enhances student engagement, promotes cultural and linguistic competence, fosters personalized learning experiences, facilitates real-time feedback, and provides flexibility in learning delivery, ultimately empowering students to become effective communicators in the digital age.

In navigating the integration of technology into communication skills instruction, educators must address a multitude of challenges and considerations. One significant hurdle is the digital divide and access issues, which perpetuate disparities in technology access and proficiency among students. Ensuring equitable access to technology and addressing digital literacy gaps are essential for fostering inclusivity and equal opportunities for all learners. Moreover, privacy and security concerns loom large in the digital landscape, necessitating stringent measures to safeguard sensitive data and protect learners' privacy rights. Pedagogical integration and teacher training emerge as pivotal factors, as educators must possess the requisite skills and knowledge to effectively integrate technology into their teaching practices while maintaining pedagogical integrity. Additionally, the maintenance and sustainability of technology infrastructure pose logistical challenges, requiring ongoing investment and support to ensure seamless functionality and reliability. Furthermore, there is a risk of overreliance on technology, which may lead to disengagement, dependency, and potential drawbacks such as decreased face-to-face interaction and interpersonal skills. By proactively addressing these challenges and considerations, educators can navigate the complexities of technology integration while maximizing its potential to enhance communication skills instruction.

Within the realm of technology-enhanced communication skills programs, numerous case studies and exemplary practices have emerged, showcasing successful implementation and innovative approaches. In various educational contexts, such as language learning institutes and corporate training programs, technology has been effectively harnessed to enhance communication skills. For instance, successful implementation of online language learning platforms with interactive features, such as language exchange forums and virtual

conversation partners, has demonstrated significant improvements in students' speaking and listening proficiency. Additionally, innovative approaches, such as gamified language learning apps and virtual reality simulations, have captivated learners' interest and motivation while fostering authentic communication experiences. These creative solutions in technology integration have not only addressed traditional barriers to communication skills development but have also opened up new avenues for exploration and engagement. However, alongside these successes, valuable lessons have been learned, and recommendations have emerged from practical experiences. Educators have emphasized the importance of clear learning objectives, pedagogical alignment, and ongoing support and training for both instructors and learners to ensure the effective implementation of technology-enhanced communication skills programs. By sharing these insights and best practices, educators can continue to refine and optimize technology integration efforts to maximize their impact on communication skills instruction.

In conclusion, the integration of modern technologies into communication skills instruction offers a wealth of benefits, while also presenting certain challenges that must be navigated thoughtfully. Throughout this exploration, we've seen how technology enhances student engagement, provides access to authentic language use and cultural immersion, facilitates personalized learning experiences, enables real-time feedback and assessment, and offers flexibility in learning delivery. However, challenges such as the digital divide, privacy concerns, and the risk of overreliance on technology underscore the need for careful consideration and strategic implementation. It is imperative for educators to approach technology integration with a thoughtful and strategic mindset, ensuring that technological tools are aligned with learning objectives and pedagogical principles. Moreover, educators are encouraged to embrace a continuous process of evaluation and adaptation, leveraging modern technologies to enhance communication skills instruction in innovative and effective ways. By harnessing the power of technology, educators can create dynamic and engaging learning environments that empower students to become confident and proficient communicators in the digital age.

References

1. Cushner K., Mahon J. Intercultural competence in teacher education. Developing the intercultural competence of educators and their students // The SAGE handbook of intercultural competence / Ed. by Darla K. Deardorff. Thousand Oaks, California, USA, SAGE publications, 2009. P. 304– 320.
2. Dalieva M. Valieva N. Linguocultural approach in teaching vocabulary to B2 level students at linguistic universities. American Journal of Pedagogical and Educational Research (14), 2023. P. 81- 85. https://www.americanjournal.org/index.php/ajper/article/view/1064
3. David L. Chiesa. U. Azizov. S. Khan. K. Nazmutdinova. K. Tangirova. Reconceptualizing language teaching: an in-service teacher education course in Uzbekistan / Baktria press, 2019.
4. Fritschner, LM. (2000). Inside the undergraduate college classroom: faculty and students differ on the meaning of student participation. The Journal of Higher Education, 71(3), 342–62.
5. Валиева Н. Аутентичные материалы как средство формирования прагматической компетенции студентов лингвистического ВУЗА. Лучшая педагогическая работа 2022. Пенза: МЦНС «Наука и просвещение», 2022. С. 26-29.
6. М. А. Саидова. Развитие прагматической компетенции посредством аудирования на занятиях иностранного языка. Бюллетень науки и образования, 2019.

7. Овчинникова М.Ф. Методика формирования социолингвистической компетенции учащихся общеобразовательной школы: (английский язык, филологический профиль,): дис. ... канд. пед. наук. Улан-Удэ, 2008. 206 с.

IJTIMOIY OMILLARNING TA'LIM TIZIMI SAMARADORLIGIGA TA'SIRI (Xalqaro baholash tadqiqotlari misolida)

Matkarimov A.M.
"Oila va gender" ilmiy tadqiqot instituti doktoranti,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Xalqaro baholash tadqiqotlari ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot va inson kapitalini rivojlanganligining mavjud va zaruriy holatini umumta'lim muassasalari o'quvchilarida tayanch kompetentsiyalarini shakllanganlik darajasi, ularning ta'lim olishining ijtimoiy-pedagogik jihatlariga bog'lagan holda aniqlaydi. Tayanch kompetentsiyalar ijtimoiy me'yor sifatida ham talqin qilinishi mumkin bo'lib, bu tushuncha o'quvchining kundalik-amaliy faoliyatda mustaqil hayot kechirishi uchun lozim bo'lgan bilim, ko'nikma, malakalarning umumlashmasini tavsif etadi.

Ta'lim – nafaqat o'quvchilarga biror narsani o'rgatish, balki ularga tobora murakkablashib va o'zgarib borayotgan dunyoda, o'ziga bo'lgan ishonch bilan ildam harakatlanish uchun yordam beradigan zaruriy imkoniyatlar bilan ta'minlash jarayonidir [Ismailov: 49] . Ta'lim sifati va samaradorligini oshirish yo'lida xorijiy ilg'or tajribalarni o'rganish, xalqaro standartlarni joriy etish, mavjud tizimni qiyosiy tahlil qilish va zamon talablariga javob beradigan milliy baholash tizimini takomillashtirish dolzarb ahamiyatga ega[Shlyaxer: 21].

R. Sh. Axlidinov o'z dissertatsion ishida maktab avvalambor ijtimoiy muassasa ekanligini ta'kidlab o'tadi[Axlidinov: 48]. Maktab boshqa ijtimoy tashkilotlar singari tashqi muhit bilan faol aloqadagi to'laqonli murakkab tizim hisoblanadi (bunda tizimlarning ochiq tizim deb atashadi) [Axlidinov: 52]. Maktab hudud, mintaqa va mamlakat ta'lim majmualaridan tarkib topgan yanada kengroq maorif tizimlari sirasiga kiradi. Shu vaqtning o'zida maktab butun ijtimoiy tizimning bir qismi hisoblanadi va uning hayotiy faoliyati ko'p darajada atrofdaan kelayotgan ta'sirlarga bog'liq. Lekin maktabning tashqi muhit bilan aloqasi bir tomonlama bo'lmasdan, balki ikki tomonlama bo'lib, maktabda tashqi muhitga nisbtan erkin tanlash huquqi bor.

Xalqaro baholash tadqiqotlarida „o'quvchilarning ta'limdagi muvaffaqiyati" tushunchasi keng qo'llanilgan bo'lib, o'quvchining ta'lim mazmunini mustaqil hayotga tayyorgarlik ko'rish uchun qo'llay olishini ko'rsatadi. O'quvchilarning ta'limdagi muvaffaqiyatini ta'minlashning ijtimoiy aspektlari ilmiy asoslangan mezonlar asosida baholanadi. Mazkur mezonlarga quyidagilar kiradi: o'quvchining ijtimoiy kelib chiqishi; ta'lim olishning o'z hayotidagi ahamiyati tushunishliligi; „umumta'lim muassasasi-oila hamkorlik mexanizmi"ning samaradorligi; oilalarda ta'limiy qadriyatlarning rivojlanganligi; ijtimoiy, akademik va madaniy resurslarning mavjudligi va ulardan foydalanishning mavjud holati.

Jamiyatda oilalardagi tuzilmalar o'zgarib bormoqda. Insonlarning iqtisodiy-ijtimoiy, madaniy ehtiyojlari ham o'zgarib bormoqda. Bu esa har bir insonning individual turmush kechirishiga sabab bo'ladi. Hozirgi kunda avlodlar almashinuvi jarayoni tezlashmoqda va ularning fikrlash darajasi ham o'zgarib bormoqda. Hozirgi maktab yoshidagi bolalar asosan Z va α gen avlodlariga to'g'ri keladi. Boshqa tarafdan maktablarning o'quvchilarga ta'lim va tarbiya berishdagi funktsional vazifalari salmog'i, ijtimoiy ma'suliyati yildan-yilga oshib

bormoqda. Shuningdek, ta’lim tizimidagi xalqaro baholash tadqiqotlarining joriy etilishi jamiyatning yildan-yilga ta’lim va uning sifatiga talablari oshib borayotganinini ko‘rsatadi.

Tadqiqotlar oila va maktab hamkorligini mustahkamlash borasida ko’plab muammolar mavjud ekanligini ko‘rsatadi [Jaeger-Flor, Jaeger: 266]. Muammoning eng asosiysi sifatida ota-onalar yoki o’qituvchilarning hamkorlikka qiziqishi yo’qligi bilan tavsiflanadi. Otterpohl und Wild [Otterpohl, Wild: 295] o’z tadqiqotlarida qat’iy xulosa sifatida, muvaffaqiyatli hamkorlik uchun aslida barcha ishtirokchilarning yagona „hamkorlik“ tushunchasiga ega bo’lishi tushuniladi. Bunda ota-onalar, shuningdek maktab ma’muriyati, o’qituvchilarning hamkorlik borasidagi tasavvurlari tubdan bir-biridan farq qiladi. Asosiy faoliyat sifatida darsdan tashqari tadbirlarda ishtirok etish, zarurat bo’lganda tashkillashtiriladigan kam sonli suhbatlar oddiy sheriklik munosabatlari sifatida baholanishi mumkin. Bunda albatta kommunikativ muvafiqlashtirish jarayoni zarur bo’lib, ota-ona va maktab hamkorligi aslida qanday bo’lishi va amalga oshirilishi lozimligi muzokaralar orqali aniqlashtirib olinishi lozim [Otterpohl, Wild: 293].

Xalqaro baholash tadqiqoti milliy davlat ta’lim standartlarining kompetentsiyaviy yondashuvli didaktik tamoyil asosida shakllanganligini taqozo etadi. Baholash tadqiqotlarida nazarda tutilgan kompetentsiyaviy yondashuv ko‘p jihatdan jamiyat va mehnat bozori talablari asosida «jamiyatning faol a’zolari», «bo‘lg‘usi mutaxassislar», «yetuk hayotiy-amaliy kompetentsiyalarga ega shaxs»ga nisbat beriladi. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti mehnat bozorining inson resurslari va uning sifatiga bo‘lgan talablarini doimiy monitoring qilib keladi. Mehnat bozori talablari ta’limning maqsadi sifatida shakllanib kelgan. Mehnat bozori bevosita ta’lim tizimiga kerakli mutaxassislarga «buyurtmachi» ekan, mehnat bozorida ta’lim tizimi mutaxassislariga bo‘lgan talablarni shakllantirib kelgan. Ta’lim tizimi esa mehnat bozoriga moslashgan holda ta’lim standartlariga mazkur talablarni singdirib kelgan. O‘quv jarayonining tashkil etilishi, o‘quv jarayonining mazmuni, qo‘llaniladigan metodlar va fanlar didaktikasi ham mehnat bozorida talab etilayotgan kompetentsiyalarga moslashtirib kelinmoqda.

Adabiyotlar

1. Axlidinov R. Sh. Umumiy o’rta ta’lim sifatini boshqarishning ijtimoiy-pedagogik asoslari (Kadrlar tayyorlash milliy dasturi materiallari asosida). Pedagogika fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya, T. 2002. B. 48 (285)
2. Jäger-Flor, D. & Jäger, R. S. Bildungsbarometer zur Kooperation Elternhaus-Schule. Ergebnisse, Bewertungen und Perspektiven. Landau: VEP Verlag Empirische Pädagogik, 2010. -p. 266
3. Otterpohl, N. & Wild, E. (2019). Kooperation zwischen Elternhaus und Schule im Kontext der schulischen Leistungsentwicklung. In B. Kracke & P. Noack (Hrsg.), Handbuch Entwicklungs- und Erziehungspsychologie. Springer Reference Psychologie Berlin, 2019. -p. 293-306.
4. Исмаилов А. А. Ўқувчиларнинг таълимдаги ютуқларини баҳолаш: танлов рамкасини шакллантириш // Замонавий таълим, 12. 2021. -49-56b.
5. Шляйхер А. Образование Мирового уровня. Как выстроить школьную систему XXI века? //Издательство Национальное образование. ФИОКО Москва. 2019. - 27c.

O‘QUVCHILARGA KOMPETENTSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA TALIM-TARBIYA BERISHNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

Abdisharipova Sh.B.
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti 2-bosqich tayanch doktoranti

O‘zbekiston Respublikasida umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, o‘sib kelayotgan yosh avlodni ma’naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko‘tarish, o‘quv-tarbiya jarayoniga ta’limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish maqsadida, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 sentyabrdagi “Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5538-son Farmoniga muvofiq: Quyidagilar:

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi (keyingi o‘rinlarda – Konsepsiya) 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin va unda quyidagilar nazarda tutilsin:

O‘zbekiston Respublikasining 2030 yilga kelib PISA (The Programme for International Student Assessment) O‘quvchilarning ta’lim sohasidagi yutuqlarini baholash bo‘yicha xalqaro dastur reytingi bo‘yicha jahonning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakati qatoriga kirishiga erishish;

uzluksiz ta’lim tizimi mazmunini sifat jihatidan yangilash, shuningdek, professional kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish;

o‘qitish metodikasini takomillashtirish, ta’lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish va yana boshqa ko‘plab bandlar kiritilgan [Lex.uz. PF-5538].

Darhaqiqat o‘quvchilarga ta’lim-tarbiya berishni yaxshilash maqsadida muhtaram prezidentimiz tomonidan ko‘plab qarorlar, farmonlar imzolanmoqda va amalyotga tadbiq etilmoqda.

Umumiy o‘rta ta’lim tizimida o‘quvchilarga bilim, ko‘nikma va malakalarni berishda kompetentsiyaviy yondashuvga asoslangan darslarning tashkil etiliganligi yuqori natijalarga erishishda qo‘l kelmoqda. Ta’limda kompetensiyaga asoslangan yondashuv muayyan usullar va pedagogik yondashuvlardan foydalanishni nazarda tutadi. Bu atama mahalliy fanni sezilarli darajada modernizatsiya qilgandan keyingina qo‘llanila boshlandi. Hozirgi vaqtda asosiy kompetensiyalarni shakllantirish muammolarini tahlil qiluvchi jiddiy ilmiy, uslubiy va nazariy ishlar paydo bo‘ldi. Masalan, A. V. Xutorskiyning “Didaktik evrika” monografiyasini, shuningdek, muallif L. F. Ivanovaning boshlang‘ich, o‘rta va o‘rta maktablarda ta’limni modernizatsiya qilishga qaratilgan metodologiyasini ana shunday qo‘llanma deb hisoblash mumkin [Ahmedova M: 13].

Ta’limda kompetensiyaga asoslangan yondashuv – maqsadlarni belgilash, mazmun tanlash, ta’lim jarayonini tashkil etish va umumbashariy natijalarni baholash tamoyillari yig‘indisidir. Ular orasida:

- maktab o'quvchilarida o‘zlarining ijtimoiy tajribasidan foydalanishga asoslangan turli sohalarda va faoliyatda qo'yilgan muammoni mustaqil hal qilishni rivojlantirish;
- echimning didaktik va ijtimoiy tajribasini moslashtirishdunyoqarash, siyosiy, axloqiy, kognitiv muammolar.

Ta'limda kompetensiyaga asoslangan yondashuv ta'limning muayyan bosqichida o'quvchilar erishgan ta'lim darajasini tahlil qilish orqali ta'lim ko'nikmalarini baholashni o'z ichiga oladi.

Ta'limda kompetensiyaga asoslangan yondashuvni amalga oshirish axborotdan to'siqsiz foydalanish uchun muayyan shart-sharoitlarni yaratishni nazarda tutadi. Bu maktabning ta’lim bilimlari sohasida monopoliya mavqeini yo‘qotishiga olib keladi. Turli ma'lumotlardan cheksiz foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lgan yigitlar g‘olib deb topiladi, ular eng qisqa vaqt ichida kerakli ma’lumotlarni topib, o‘zlariga yuklangan vazifani hal qilishda qo‘llaydilar. Maktab har doim jamiyatda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarga javob berishga harakat qilgan. Bunday munosabat o‘quv dasturiga o‘zgartirishlar kiritishda, o‘quv dasturini takomillashtirishda namoyon bo‘ldi. Masalan, dasturda ishlab chiqarish amaliyoti, “Oilaviy hayot etikasi va psixologiyasi” kursi, boshlang‘ich harbiy tayyorgarlik, jismoniy tarbiya, informatika, hayot xavfsizligi fanlaridan qo‘shimcha soat o‘tkazildi. Bunday yondashuv ta’lim muassasasi rivojlanishining keng yo‘liga qaratilgan bo‘lib, bu boshi berk ko‘chadir, chunki o‘quv mashg‘ulotlariga ajratiladigan vaqt resurslari juda cheklangan [Ahmedova M: 34].

Maktabning har qanday ta’lim dasturi faqat ma’lum o‘quv fanlari bo‘yicha dasturlarga yo‘n altirilishi mumkin emas. Kompetentsiyaga asoslangan yondashuv doirasida murakkab tuzilma qo‘llaniladi, u nafaqat o‘quv dasturlarini, balki jiddiy sinfdan tashqari ishlarni ham o‘z ichiga oladi. Har bir ta’lim muassasasida maktab o‘quvchilari va ularning ota-onalari manfaatlarini hisobga olgan holda fakultativ kurslar yaratilishi maqsadga muvofiq.

Adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш. МИРЗИЁЕВ Тошкент ш., 2018 йил 5 сентябрь, ПФ-5538-сон.
2. MUKARRAM AXMEDOVA PEDAGOGIK KOMPETENTLIK. Uslubiy qo‘llanma. TOShKENT–2018.
3. MUKARRAM AXMEDOVA PEDAGOGIK KOMPETENTLIK. Uslubiy qo‘llanma. TOShKENT–2018.

TALABALARNI TADQIQOTCHILIK FAOLIYATIGA TAYYORLASH JARAYONINING BOSQICHLARI

Abdisodiqova M.N.
Qarshi davlat universiteti doktoranti

Ilmiy tadqiqot muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun uni to‘g‘ri tashkil etish, rejalashtirish, tizimlashtirish va ma’lum bir ketma-ketlikda olib borish zarur. Ushbu rejalar va harakatlar ketma-ketligi ilmiy tadqiqot turi, obyekti hamda maqsadlariga bog‘liq. Agar u texnik mavzularda amalga oshirilsa, unda birinchi navbatda, asosiy rejalashtirish hujjati – texnik-iqtisodiy asoslab ishlab chiqiladi, so‘ngra, nazariy va eksperimental tadqiqotlar o‘tkaziladi, ilmiy-texnik hisobot tuziladi hamda ish natijalari ishlab chiqarishga joriy qilinadi. Psixologik-pedagogik tadqiqotlar boshqa ketma-ketlikda olib boriladi.

Masalan, tadqiqot besh bosqichga bo‘linadi:

1) dasturni tayyorlash;
2) shakllantiruvchi eksperiment;
3) olingan ma’lumotlarni qayta ishlash va umumlashtirish;
4) ma’lumotlarni ilmiy tahlil qilish va tushuntirish;
5) natijalarni taqdim etish kabilardan iborat bo‘ladi.

Talabalar ishiga kelsak, tadqiqotning quyidagi ketma-ket bosqichlarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

1) tayyorgarlik;

2) nazariy va empirik tadqiqotlar olib borish;
3) qo‘lyozma va uning dizayni ustida ishlash;
4) ilmiy tadqiqot natijalarini amalga oshirish.

Dastlab tadqiqot ishining har bir bosqichiga umumiy tavsif berish, so‘ngra ulardan talabalar tomonidan ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish uchun muhim bo‘lganlarini batafsil ko‘rib chiqish zarur ko‘rinadi.

Tayyorgarlik bosqichi quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1) mavzuni tanlash;
2) bu borada tadqiqot olib borish zarurligini asoslash;
3) tadqiqotning farazlari, maqsad va vazifalarini aniqlash;
4) ilmiy tadqiqot rejasi yoki dasturini ishlab chiqish;
5) tadqiqot vositalarini (asboblarini) tayyorlash.

Birinchidan, ilmiy tadqiqot mavzusi shakllantiriladi va uning rivojlanish sabablari asoslanadi. Adabiyotlar va oldingi tadqiqotlarning materiallari bilan oldindan tanishish orqali mavzu masalalari qay darajada o‘rganilganligi hamda qanday natijalarga erishilganligi aniq bo‘ladi. Javoblari umuman yo‘q yoki ular yetarli bo‘lmagan savollarga alohida e’tibor qaratish lozim. Normativ hujjatlar, mahalliy va xorijiy adabiyotlar ro‘yxati tuziladi. Tadqiqot metodologiyasi ishlab chiqiladi. Tadqiqot vositalari anketalar, testlar, intervyu shakllari, kuzatish dasturlari va boshqalar ko‘rinishida tayyorlanadi. Ularning yaroqliligini tekshirish uchun kuzatuv tadqiqotlar o‘tkazilishi mumkin. Tadqiqot bosqichida mavzu bo‘yicha adabiyotlarni, statistik ma’lumotlar va arxiv materiallarini tizimli o‘rganishdan iborat bo‘lib, nazariy hamda empirik tadqiqotlar, shu jumladan, zarur ma’lumotlar va amaliy materiallarni to‘plash, olingan ma’lumotlarni qayta ishlash, umumlashtirish, tahlil qilish, yangi ilmiy faktlarni tushuntirish, qoidalarni shakllantirish, xulosalar, amaliy tavsiyalar, takliflar berishdan iborat.

Ikkinchi bosqich quyidagilarni o‘z ichiga oladi: ishning tarkibini (konstruktsiyasini, ichki tuzilishini) aniqlash, boblar va paragraflar sarlavhalarini aniqlashtirish, qo‘lyozma loyihasini tayyorlash, uni tahrirlash, matn dizayni, shu jumladan, havolalar va ilovalar ro‘yxati keltirishdan iborat.

Uchinchi bosqich tadqiqot natijalarini amaliyotga tatbiq etish va amalga oshirilgan ishlanmalarni muallif tomonidan qo‘llab-quvvatlashdan iborat. Ilmiy tadqiqotlar har doim ham shu bosqichda tugamaydi, lekin ba’zida talabalarning ilmiy ishlari (masalan, tezislar) ayrim davlat va nodavlat organlari, tashkilotlarining amaliy faoliyatida yoki o‘quv jarayonida amalga oshirish uchun tavsiya etiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsam, talabalarda tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlashda, izlanish olib borayotgan tadqiqotlarini bosqichlar asosida yozish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki ifoda etiladigan tadqiqotlar tizimli, tartibli, ketma-ket izchil tarzda bayon etilgan bo‘ladi.

Adabiyotlar

1. А.В. Попков, І.М.Вельм, О.П.Дружакина, С.В.Широбоков “Талабалар илмий фа олияти асослари” ўқув-қўлланма. Ижевск – 2009-йил.
2. Арцев М. Н. Талабаларнинг ўқув ва илмий-тадқиқот ишлари (талабалар ва ўқитувчилар учун кўрсатмалар) // Бош ўқитувчи, 2005. - Но 6. - Б. 4-29.

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHISINING KASBIY KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH

Dauletnazarova A.K.
Ajiniyaz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

Umumiy o‘rta ta’lim tizimini rivojlantirishning hozirgi bosqichida ommaviy boshlang‘ich maktabning shaxsga yo‘naltirilgan yangi modelini yaratish strategik vazifalardan biri hisoblanadi (o‘quvchi shaxsi, uning subyektivligi, ma’no ijodkorligi, tanqidiyligi va boshqalar, shaxsiy fazilatlari o‘z-o‘zini qadrlash sifatida qaraladigan didaktik tizimlarning variativ dasturlari joriy etiladi). Shu munosabat bilan, zamonaviy dinamik o‘zgaruvchan maktabga kasbiy muammolarni mustaqil va ijodiy hal qila oladigan, mustaqil ravishda bilim olishni biladigan, turli vaziyatlarda bilim va pedagogik ko‘nikmalarni birlashtirishga qodir bo‘lgan, ijodkorlik va kasbiy o‘z-o‘zini takomillashtirishga tayyor bo‘lgan kompetentli mutaxassis kerak. [1, B.44-47]

Professional ta’lim standartida asosiy maqsad - tegishli darajadagi va ixtisoslikka ega, mehnat bozorida raqobatbardosh, kompetentli, mas’uliyatli, o‘z kasbini erkin egallagan va faoliyatning turdosh sohalariga yo‘naltirilgan, jahon standartlari darajasida samarali ishlashga qodir, doimiy kasbiy o‘sishga, ijtimoiy va kasbiy mobillikka tayyor bo‘lgan malakali xodimni tayyorlash; shaxsning tegishli ta’lim olishga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish, ya’ni bo‘lajak mutaxassisning kasbiy kompetentligini shakllantirish. Bu, ayniqsa, ta’limning boshlang‘ich bosqichida o‘quvchilarni jamiyatga ijtimoiy moslashishga tayyorlaydigan boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi uchun muhimdir.

Kasbiy kompetentlik muammosi mutaxassisning ustuvor xususiyati sifatida so‘nggi o‘n yilliklarda pedagogika fanining diqqat markazida bo‘lib kelmoqda. Ushbu hodisani o‘rganishga V.A.Adolf, A.S.Belkin, Yu.V.Vardanyan, B.S.Gershunskiy, E.F.Zeera, V.A.Slastenina, M.A.Xolodnaya va boshqalar katta hissa qo’shib kelmoqdalar. Ularning tadqiqotlari natijalari maktab ta’limi tizimida mutaxassislar tayyorlashni uning rivojlanish tendensiyalariga muvofiq qayta yo‘naltirishdan iborat bo‘ldi.[2,B.29] Bundan tashqari, manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, pedagogika fanida kasbiy kompetentlikni shakllantirishga doir yondashuvlar xilma-xil bo‘lib, ularni tizimli, faoliyatli, shaxsga yo‘naltirilgan va boshqalar. O‘qituvchining kasbiy kompetentligiga bag‘ishlangan tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ular o‘qituvchining pedagogik yo‘nalganligini shakllantirish asoslarini ishlab chiqishga qaratilgan.

So‘nggi yillarda kasbiy tayyorgarlik jarayonida talabalarning turli xil kompetensiyalarini shakllantirish muammolariga bag‘ishlangan bir qator tadqiqotlar paydo bo‘ldi: kasbiy kompetentlik; psixologik kompetentlik; psixologik-pedagogik kompetentlik; axborot-kasbiy kompetentlik; kommunikativ kompetentlik; psixologik. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy kompetentligini shakllantirishga bag‘ishlangan ishlar N.J.Dmitriyeva, N.V.Kolpakova va boshqalarning ilmiy ishlarida uchraydi.

Kasbiy kompetentlikni shakllantirish muammosiga bag‘ishlangan ishlar soni ko‘p bo‘lishiga qaramay, ilmiy tadqiqotlar va amaliyot tahlili shuni ko‘rsatadiki, oliy ta’lim muassasasida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy kompetentligini shakllantirish muammosi yetarli darajada o‘rganilmagan: bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy kompetentligini shakllantirish jarayoniga ta’sir qiluvchi omillar aniqlanmagan; boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi kasbiy kompetentlikni shakllantirish ko‘rsatkichlari yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Sh sababli, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy kompetentligini

shakllantirish muammosini ishlab chiqish "kompetensiya," "kompetentlik," "kasbiy kompetentlik" tushunchalarini aniqlashtirish va konkretlashtirishni talab qildi.

Turli adabiyot manbalarida kompetentlik ikki nuqtayi nazardan: psixologik va pedagogik nuqtai nazardan koʻrib chiqiladi; "kompetensiya" tushunchasi bir xil talqin qilinmaydi; bir qator manbalarda "kompetentlik" va "kompetensiya" tushunchalari bir-biriga tenglashtiriladi; kasbiy kompetentlik kasbiy faoliyatni amalga oshirish qobiliyati va (yoki) tayyorligi sifatida koʻrib chiqiladi.

Adabiyot manbalarini tahlil qilish asosida biz oʻrganilayotgan hodisaning asosiy tushunchalarini aniqlashtirdik: kompetensiya - subyekt yaxshi xabardor boʻlgan masalalar doirasi, kompetentlik - subyektning oʻzi uchun shaxsiy ahamiyatga ega boʻlgan faoliyatida namoyon boʻladigan bilim, koʻnikma, qobiliyatlar majmui; oʻqituvchining kasbiy kompetentligi - zarur psixologik-pedagogik, predmetli, metodik bilim va koʻnikmalar majmui, ularni amalda qoʻllashga tayyorlik. [3, B.434]

Boʻlajak oʻqituvchining kasbiy kompetentligini shakllantirish muammosiga bagʻishlangan tadqiqotlar tahlili shuni koʻrsatdiki, zamonaviy pedagogika fanida u quyidagi yoʻnalishlarda hal etiladi: boʻlajak oʻqituvchining kasbiy kompetentligini shakllantirishda turli vositalardan foydalanish: axborot, oʻyin va rivojlantiruvchi texnologiyalar; boʻlajak oʻqituvchining kasbiy kompetentligini shakllantirishda ishlab chiqarish (pedagogik) amaliyoti salohiyatini roʻyobga chiqarish; boʻlajak oʻqituvchining kasbiy kompetentligini shakllantirishning pedagogik, psixologik-pedagogik, tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarini yaratish. Bundan tashqari, keyingi vaqtlarda kasbiy tayyorgarlik jarayonida talabalar kompetentligining turli turlarini: psixologik, psixologik-pedagogik, axborot-professional, kommunikativ, autopedagogik, ijtimoiy-psixologik kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan bir qator tadqiqotlar paydo boʻldi.

Boʻlajak boshlangʻich maktab oʻqituvchisining kasbiy kompetentligini shakllantirishga bagʻishlangan ishlar biz uchun katta qiziqish uygʻotadi. Biroq, mavjud tadqiqotlarda boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchisi faoliyatining oʻziga xos xususiyatlari kam ifodalangan.

Tadqiqotimizning boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchisining kasbiy kompetentligini shakllantirish muammosining koʻp aspektli xarakteri ushbu hodisaning mohiyatini oʻrganishda turli yondashuvlardan foydalanish zarurligini belgilab berdi - tizimli (obyekt haqidagi turli bilimlarni bir butunlikka sintezlash), shaxsga yoʻnaltirilgan (shaxsga ta'lim-tarbiya jarayonining maqsadi, subyekti va samaradorligi natijasi sifatida yoʻnaltirish) va kompetensiyaviy (boshlangʻich sinf oʻqituvchisi faoliyatining oʻziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi kasbiy kompetentlikning asosiy komponentlarini shakllantirishga kasbiy tayyorgarlikni yoʻnaltirish). [4.B. 311-317]

Boʻlajak boshlangʻich maktab oʻqituvchisining kasbiy kompetentligini shakllantirish biz tomonimizdan talabalarni oʻquv-kasbiy faoliyatga bosqichma-bosqich kiritishning uzluksiz, maqsadga yoʻnaltirilgan jarayoni sifatida qaraladi, bu jarayon har bir talabada shaxsning individual-psixologik xususiyatlariga va boʻlajak kasbiy faoliyatning bilim va koʻnikmalarini egallash darajasiga mos keladigan oʻz ta'lim trayektoriyasini shakllantirishga qaratilgan. Kasbiy kompetentlikni shakllantirish muammolarini tahlil qilishdagi yondashuvimizning oʻziga xos xususiyati talabaga oʻz oʻquv-kasbiy faoliyatining subyekti sifatida qarashdir.

Tanlangan yondashuvlar asosida boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchisining kasbiy kompetentligini shakllantirishning mavjud nazariy va amaliy tajribasini tahlil qilish ushbu muammoni hal qilishdagi kamchiliklarni aniqlash imkonini berdi, ularning asosiylari quyidagilardir: boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchisining kasbiy kompetentligini

shakllantirishda shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim imkoniyatlaridan to‘liq foydalanilmayapti; ushbu jarayonni amalga oshirishning pedagogik shart-sharoitlari yetarli darajada ishlab chiqilmagan va boshqalar.

Tadqiqot davomida biz boshlang‘ich maktab o‘qituvchisi faoliyatining mohiyati, mazmuni va o‘ziga xos xususiyatlarini aniqladik. Shu asosda kasbiy kompetentlikning quyidagi tarkibiy komponentlari ajratib ko‘rsatiladi: psixologik-pedagogik faoliyat (boshlang‘ich maktab yoshidagi bola ta’lim jarayonining subyekti sifatida, uning yosh, individual xususiyatlari, rivojlanishning ijtimoiy omillari haqidagi bilimlar tizimiga ega bo‘lish; boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi tarixi, nazariyasi va uslubiyati sohasidagi bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lish va pedagogik muloqot ko‘nikmalariga ega bo‘lish, maktabni loyihalash, amalga oshirish, baholash va korreksiyalash qobiliyatlariga ega bo‘lish); boshlang‘ich maktab o‘qituvchisi uchun zarur bo‘lgan fan sohalaridagi bilim va

Kasbiy kompetentlik komponentlari (psixologik-pedagogik, predmetli, metodik, shaxsiy) bilan bir xil nomlarga ega bo‘lgan mezonlar, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi kasbiy kompetentligining shakllanganlik ko‘rsatkichlari va darajalari aniqlandi: yuqori, o‘rta, past.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy kompetentligini shakllantirishni diagnostika qilish vositalari sifatida quyidagilar tanlandi: kuzatish, suhbat, anketa, test, pedagogik vaziyatlarni yaratish; o‘quv-bilish vazifalari; faoliyat mahsulotlarini tahlil qilish; shaxsning o‘zini o‘zi baholash metodikasi, ekspert baholash usuli, empatiyaning shakllanganlik darajasini diagnostika qilish.

Ta’kidlovchi tajriba natijasida talabalarning anchagina qismi kasbiy kompetensiyaning shakllanganlik darajasi past - 45,3%; o‘rta daraja - 39,1%; yuqori daraja - 15,6% talabalarga ega ekanligi aniqlandi.

Xulosa o’rnida shuni aytishimiz mumkinki, psixologik-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish jarayonida kasbiy kompetentlikni shakllantirish muammosini hal qilishga nazariy va amaliy yondashuvlar aniqlandi: turli vositalardan (axborot, o‘yin va rivojlantiruvchi texnologiyalardan) foydalanish; ishlab chiqarish (pedagogik) amaliyot salohiyatini ro‘yobga chiqarish; kasbiy tayyorgarlikka kompetensiyaviy yondashuvni qo‘llash va boshqalar.

Bundan tashqari tadqiqotning terminologik apparati mazmuni ochib berildi: "o‘qituvchining kasbiy kompetentligi" tushunchasi aniqlashtirildi va kengaytirildi; boshlang‘ich maktab o‘qituvchisining kasbiy kompetentligi tuzilmasi uning tarkibiga metodik kompetentlikni kiritish orqali to‘ldirildi; psixologik-pedagogik, predmetli va shaxsiy kompetensiyalar mazmuni boshlang‘ich maktab o‘qituvchisi faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish asosida yangilandi.

Adabiyotlar

1. Махмудов А.Х. Таълим тизимида компетентлик асосида ёндашувнинг дидактик жихатлари // «Укитувчиларнинг касбий махоратини оширишда инновация технологияларининг ахамияти» мавзусидаги Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. - Тошкент. - 2012. 44-47 бетлар

2. Шустова М. В. Формирование профессиональной компетентности будущего учителя начальной школы //монография/МВ Шустова. – 2010.

3. Уринова, Н. М., & Хусеинова, С. Б. (2021). Теоретико-практическая подготовка будущих учителей гуманитарного профиля к социально ориентированной воспитательной работе. Бюллетень науки и практики, 7(5), 434

4. Karimova, M., & Tuychieva, R. (2019). The pedagogical basics of training students for professional, moral and educational function. Scientific Bulletin of Namangan State University, 1(10), 311-317.

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING RISKOLOGIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Xalmuratova Sh.B.
Nukus davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

Bugungi kunda mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning yo‘nalishlariga hamda xalqaro standartlar talablariga mos keladigan oliy ta’lim tizimini yaratish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda [1].

Oliy ta’lim tizimini tubdan yangilash va rivojlantirish, pedagog kadrlarning barqaror ijobiy raqobatbardoshligini ta’minlash, ta’lim jarayonining mazmuni va uslubiy ta’minotiga yangi tendensiyalarni olib kirish bo‘yicha qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Ta’lim sifatini oshirish, bu jarayonni rivojlantirish istiqbollarini va prognozlarini ishlab chiqish bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligiga va innovatsion faoliyatining samaradorligiga ijobiy ta’sir qiladi. Shu bilan bir qatorda, ushbu faoliyat jarayonida uchraydigan risklarning oldini olish va ularni bartaraf etishni o‘z ichiga qamrab olgan riskologik madaniyatni rivojlantirishga yordam beradi.

Pedagogik oliy ta’lim tizimida ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda ta’lim oluvchilarning faol bilishini, o‘quv ko‘nikmalarining maqsadli shakllanishini, kelajakdagi kasbiy faoliyatini rejalashtirish, uni amalga oshirish, bu yo‘lda o‘z-o‘zini nazorat qilish, natijalarini tahlil qilish va baholashni o‘rgatish bilan bir qatorda XXI asr pedagoglari uchun juda muhim bo‘lgan kompetensiyalarni, qobiliyatlarni, jumladan, riskologik madaniyatni ham shakllantirib borish juda muhim. Chunki bugungi globallashuv davri, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining shiddat bilan rivojlanishi vaqtida, yurtimizda ijtimoiy jamiyatni barpo etish sharoitida pedagog-o‘qituvchilarning samarali faoliyat yuritishida qator muammolar, qiyinchiliklar va risklar yuzaga kelishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak o‘qituvchilarni nafaqat pedagogik faoliyatga tayyorlash, balki ushbu faoliyat jarayonida uchraydigan risklarning oldini olish va ularni bartaraf etishga ham tayyorlash talab etiladi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning riskologik madaniyatini shakllantirish esa riskologiya sohasidagi kasbiy ta’limning muhim masalasi hisoblanadi.

Talabalarning riskologik madaniyatini shakllantirish texnologiyasini ishlab chiqishda oliy ta’lim mazmuniga qo‘yilgan talablardan, o‘quv dasturi va malaka talab me’yorlarida chetga chiqmaslik kerak.

Riskologik madaniyati – bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy va shaxsiy fazilatlarining jamlanmasi bo‘lib, u professional risk muhitida talabalarning konstruktiv yo‘lini belgilab beradi.

Bo‘lajak pedagoglarning riskologik madaniyati – bu ularning riskga moyilligi, riskni qabul qilishi, riskofobiyadan voz keshichi va risklarni boshqarishda shaxsiy risk potensialini faollashtirishi, risklarni tartibga solish faoliyatini belgilaydigan kasbiy fazilatlari va xususiyatlari to‘plami.

Riskologik kompetentlik bu – ta’lim jarayonidagi innovatsion faoliyatning kasbiy muammolarini hal qilishda namoyon bo‘ladigan, o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasining tipik shakli hisoblanadi [2].

Riskologik madaniyatni shakllantirish va rivojlantirish uchun talabalarda kasbiy risklarga nisbatan qadriyatli munosabat tizimi sifatida professional riskologik pozitsiyani, optimallashtirishning paydo bo‘ladigan imkoniyatini rivojlantirish kerak. Shuningdek, bu yo‘lda maqsadli ta’lim-tarbiya berish, riskologik madaniyatni shakllantirish uchun pedagogik va psixologik shart-sharoitlar yaratish, riskologik madaniyatni rivojlantirish texnologiyasini samarali ishlab chiqish zarur.

O‘z-o‘zini anglashning oz‘-o‘zini tushunish, oz‘-o‘zini rivojlantirish, oz‘-o‘zini hurmat qilish va shaxsiy manfaatdorlik kabi komponentlarini rivojlantirib borish pedagoglarning risk qilish darajasini oshirishga xizmat qiladi [3]. Innovatsion faoliyat jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarda uchraydigan shaxsiy, jismoniy, metodik, texnologik, iqtisodiy risklarni natijali bartaraf etishda ushbu komponentlarni shakllantirish va rivojlantirib borish katta ahamiyatga ega.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanish ko‘rsatgichi sifatida riskga tayyorgarligining maqbul darajasiga erishish uchun, ularni bakalavriat ta’lim bosqichidan boshlab o‘z-o‘zini o‘zgartirishga va takomilllashtirishga o‘rgatib borish, dars jarayonlarida risklarni bartaraf qilish madaniyatini rivojlantiruvchi metodikalardan foydalanish va amaliyot davrida uchraydigan risklarga qarshi tura olishga tayyorlab borishimiz kerak.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-son Qarori
2. Асхадуллина Н.Н. Формирование рискологической компетентности будущего учителя в процессе подготовки к инновационной деятельности [Текст]: Автореф. ... канд. пед. наук. (13.00.08) / Н.Н. Асхадуллина. - Казань, 2019. - 23 с.].
3. Ильин Е.П. Психология риска. - Санкт-Петербург: Изд–во Питер, 2012.

YOSHI KATTALAR TA’LIMIDA DIDAKTIKA

Davletova A.

Berdaq nomidagi QQDU tayanch doktoranti

Ta’lim va tarbiyanig nazariy asoslari “didaktika” atamasi bilan belgilanadi. Bu atama pedagogika va andragogika uchun umumiy ilimiydir, shuning uchun kattalar ta'limining nazariy asoslarini “kattalar didaktikasi” deb belgilash mumkin.

Andragogikaning tuzilishi shakllanish jarayonida, kattalar didaktikasi kabi andragogikaning muhim tarkibiy qismiga alohida e’tibor berish kerak.

“Kattalar didaktikasi” ni farqlash zarurati, birinchi navbatda, kattalarni o'qitish va tarbiyalash nazariyasi va amaliyotini farqlash zarurati bilan belgilanadi. Pedagogik didaktikani kattalar auditoriyasiga o'tkazish o'ziga xosligi tufayli muammoli bo'lib, u o'quv jarayonining barcha bosqichlarida va barcha tarkibiy qismlarida namoyon bo'ladi. Biroq, kattalar uchun didaktikani rivojlantirish uchun asos sifatida o'qituvchilarning moslashtirilgan umumiy ilmiy amaliyotidan foydalanish mutlaqo tabiiy bo'ladi.

Ta'lim muammolarini o'rganish bilan shug'ullanadigan nazariy yo'nalishni tadqiqotdan ta'lim nazariyasi va amaliyotiga ajratish zarurati pedagogika fanining shakllanishi davrida isbotlangan. Aynan didaktika o'qitishning muammolari, maqsadlari, tamoyillari, mazmuni, usullari va tashkiliy shakllarini ishlab chiqishni, shuningdek, aholining xususiyatlarini, o'qitish vositalari va shartlarini aniqlashni o'z ichiga oladi.

Kattalar didaktikasini o'rganishni K.D. Ushinskiy, K. Voitexovskiy, S.I. Zmeev, F. Urbanchik, A.B. Solomonik va boshqalar. Biroq, uning asosiy tarkibiy qismlari hali aniq bir ma'nolilik va nazariy asosga ega emas.

F.Urbanchikning fikricha, andragogik didaktikaning predmeti “nafaqat kattalarni o‘qitish jarayoni, balki umuman kattalarga intellektual ta’sir ko‘rsatish jarayoni hamdir, agar bu jarayon ozmi-ko‘pmi mazmunli o‘ylab topilgan va tashkil etilgan bo‘lsa va uning maqsadi kattalar bilan muloqot qilish yoki aqliy qobiliyatlarini yaxshilash”.[A.B. Даринский; 18]. O'z-o'zini tarbiyalash nazariyasi ham tadqiqotchi tomonidan didaktik mavzu sifatida tasniflanadi. F.Urbanchik ta’lim faoliyatining quyidagi turlarini aniqladi:

— uning natijalarini nazorat qilgan holda bevosita o‘qitish (sinf-dars o‘qitish tizimi);

— uning natijalarini nazorat qilgan holda bilvosita o‘qitish (sirtqi ta'lim);

- uning natijalarini kuzatmasdan bevosita o'qitish (xalq universitetlari, ma'ruzalar yoki suhbatlar sikllari, individual ma'ruzalar, suhbatlar, viktorinalar va boshqalar, o'quv to'garaklar tizimi);

- uning natijalarini nazorat qilmasdan bilvosita o'rganish (bilimni ommalashtiradigan kutubxonalar).

A.B. Solomonik didaktika mavzusini tizimli va uyushgan ta'sirga toraytiradi: "Faqat mazmunan ham, qo'llaniladigan shakl va usullarda ham tizimli tarbiyaviy ta'sir mavjud bo'lganda va bu jarayonning sub'ekti o'qituvchi yoki o'qituvchining yordamini jalb qiladigan katta yoshli talabadir. Kitob va boshqa aloqa vositalarini o'rganish va unga mos keladigan nazariyani - kattalar didaktikasini qo'llash haqida gapirish mumkin.[С. Змеев; 27).

Kattalar didaktikasining predmeti kattalarni o'rganish va o'z-o'zini tarbiyalash nazariyasini o'z ichiga oladi. Kattalar didaktikasi ma'lum bir auditoriyaga xos bo'lgan ta'lim tamoyillari, maqsadlari, ta'lim mazmuni, usullari, shakllari va vositalarini aniqlash, o'qitish jarayonida yuzaga keladigan jarayonlarni tadqiq qilish va tushuntirish, ularni amalga oshirish uchun maqbul shart-sharoitlarni aniqlash, shuningdek, innovatsiyalar va ularni ishlab chiqish muammolarini hal qiladi.

Kattalar didaktikasining vazifalari, birinchidan, nazariy muammolarni o'rganish, to'plangan tajribani tahlil qilish va umumlashtirish, ikkinchidan, kattalarni o'qitishning mazmuni, tashkiliy shakllari, vositalari va usullariga nazariy ishlanmalarni kiritish, uchinchidan, nazariyani rivojlantirish yo'nalishlarini bashorat qilishdir va kattalar ta'limi amaliyoti, to'rtinchidan, tadqiqot olib borayotgan mutaxassislarning shaxsiy rivojlanish kompetensiyasi. Kattalar ta'limi funktsiyasining namoyon bo'lishi shundaki, kattalar shaxsi ijodiy faoliyatda yangi bilim, ko'nikma va tajribani o'rganish jarayonida bir vaqtning o'zida rivojlanadi va tarbiyalanadi.

Kattalar uchun didaktikaning asosiy toifalari. "O'qitish" (o'qituvchilarning faoliyati) va "o'rganish" (ongli va ongsiz, maqsadli va stixiyali, maxsus shakllarda va o'quvchilarning ma'lumot va fazilatlarni egallashga qaratilgan uyushmagan faoliyati) atamalari ancha mustahkamlandi. Kattalar ta'limi o'quvchining o'ziga mas'uliyat yuklashi va uning doimiy rivojlanishi to'g'risida xabardorligi, maqsad va tashkilotni shakllantirish jarayonida faol ishtirok etishi, o'quv va kognitiv faoliyatni rag'batlantirish, shuningdek, zarur bo'lgan narsalarni tanlashda farqlanadi. Bu uning faoliyati, shaxsiy mas'uliyati va faoliyatining mohiyatini aks ettiruvchi "talaba" atamasidan foydalanishni belgilaydi. Bu kognitiv jarayonda ob'ekt rolini uning sub'ekt maqomi foydasiga rad etishni ko'rsatadi.

Adabiyotlar

1. Цит. по: Методологические основы педагогики взрослых : Краткие тезисы докладов на конференции 13—15 дек. 1972 г. / под общ. ред. А.В. Даринского и Ю.Н. Кулюткина. Л., 1972. С. 12. 2 Там же. С. 13.

2. Змеев С.И. Технология обучения взрослых. М., 2002
3. Образование взрослых : Реальности, проблемы, прогноз / под ред. С.Г. Вершловского. СПб., 1998

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA BO‘LAJAK OQITUVCHILARNING AXBOROT MADANIYATINI SHAKILLANTIRISH

Gilishtaganova O.M.
Nukus davlat pedagogika instituti tayanch doktaranti

Zamonaviy ta’lim makonining asosiy tendensiyalari globallashuv, ommaviylashtirish, tijoratlashtirish, xalqarolashtirish, integratsiya va mintaqa-viylashtirishdir. Raqamlashtirishning jamiyat hayotining barcha jabhalariga ta’sirini hisobga olgan holda, jahon ta’lim bozorining tizimni shakllantirish tendentsiyasi oliy ta’limning xalqarolashuviga aylanib bormoqda, uning boshqaruv texnologiyalari talabalar, o‘qituvchilarning transchegaraviy kanallari oqimini tartibga soladi.

O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatini samarali amalga oshirish zaruriyatini hisobga olgan holda oliy ta’lim tizimi faoliyatining eng samarali mexanizmlarini joriy etishga harakat qilinmoqda. Keyingi yillarda O‘zbekistonda ta’limning asosiy muammosi uning sifatini oshirish va jamiyatni modernizatsiya-lash jarayonida uning rolini oshirishdan iborat bo‘lmoqda. Demak, mamlakatda ta’lim sifatini oshirish jamiyatning samarali rivojlanishining hal qiluvchi sharti bo‘lishi kerak. Ko‘rinib turibdiki, oliy ta’limning innovatsion rivojlanishini o‘rganish juda dolzarb ko‘rinadi.

Raqamli transformatsiya ob’yektlari sifatida raqamli texnologiyalardan foydalanish asosida yaratilgan mahsulotlar, raqamli texnologiyalarni joriy etish bilan bog‘liq jarayonlar, faoliyati raqamli texnologiyalardan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan odamlar va tizimlar alohida o’rin egallaydi.

Raqamli texnologiyalarning paydo bo‘lishi telekommunikatsion sohada tub o‘zgarishlarga olib keldi. An’anaviy tovushli aloqa xizmatlari Internet, ma’lumotlarni uzatish, mobil aloqa kabi interaktiv xizmatlar bilan o‘rin almashmoqda. Ta’lim tizimida yangi axborot texnologiyalarining roli va ahamiyati ko‘plab mualliflar tomonidan ko‘rib chiqiladi. Xususan, ta’lim jarayonida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha A.A.Abduqodirov[1,2], U.Sh.Begimqulov[4,5], J.A.Hamidov[6] kabi olimlar ilmiy-tadqiqotlar olib borganlar.

Xorijiy tadqiqotlarda ta’limni raqamlashtirish tashkiliy masalalar, texnologik infratuzilmadan boshlanib, pedagogik yondashuvlar bilan yakunlanadigan turli jihatlarni o‘z ichiga oladi hamda interaktiv va moslashuvchan ta’lim dasturlarini taklif qilish orqali xalqaro miqyosda tashkillashtirishga ta’sir qiladi. Deyarli barcha tadqiqotlar ta’limni raqamlashtirish odamlarni jamiyatdagi o‘zgarishlarga va kasbiy muhitga moslashtirishning moslashuvchan ko‘nikmalarini rivojlantirishga olib keladi degan tushuncha bilan bog‘liq [3].

Zamonaviy raqamli texnologiyalarni o‘quv jarayoniga faol joriy etish qo‘shimcha kasbiy ta’lim tizimini sifat jihatidan qayta qurish va bo‘lajak o‘qituvchisining kasbiy mahoratini oshirish sharti bilan mumkin.

Oliy ta‘limini sifat jihatidan yangilash va raqamlashtirish quyidagi majburiy shartlar bilan amalga oshirilishi mumkin:

1) ta’limda yangi raqamli texnologiyalarni tarqatish, shu jumladan mobil texnologiyalardan foydalanishni ta’minlash orqali raqamli ta’lim muhitini yaratish;

2) zamonaviy raqamli ta’lim mazmunini, yangi o‘quv-uslubiy majmualarni ishlab chiqish;

3) uzluksiz pedagogik ta’lim tizimini o‘zgartirish orqali o‘qituvchilarning yuqori sifatli kasbiy rivojlanishini ta’minlash, yangi raqamli ko‘nikmalarni egallash, raqamli ta’lim mazmunidan foydalanish motivatsiyasini oshirish.

Natijada bo‘lajak mutaxassisning axborot madaniyati shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalarini hisobga olgan holda shakllantirish AKT vositalari, axborot tarmoqlari imkoniyatlaridan samarali foydalanishni nazarda tutadi. Buning uchun ta’limni yangi shakllarini, o‘qitish usullarini rivojlantirish, raqamli jamiyatini rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalariga muvofiq ularning kasbiy darajasini doimiy ravishda oshirishga e’tibor berishni talab qiladi.

Ta’limni axborotlashtirishning zamonaviy darajasi nafaqat kasbiy rivojlanishning yangi shakllari va usullarini joriy etadi balki bu konsepsiyaning mohiyatini sifat jihatidan o‘zgartiradi, bunda pedagogik yo‘nalish, pedagogik kompetensiya, ijodiy faoliyat va o‘z-o‘zini tarbiyalash faoliyati kabi tarkibiy qismlarning yangi xususiyatlari paydo bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda raqamli jamiyatda axborot madaniyatini shakllantirish muhim, dolzarb, va shu bilan birga, kam tadqiq qilingan muammolar sirasiga kiradi. Muammoni hal qilish uchun yaxshigina tajriba to‘plangan, uning nazariy asosining ahamiyati bunga misol bo‘ladi. Raqamlashgan jamiyat ehtiyojlariga hamda professional ta’lim muassasalaridagi axborot madaniyatiga ega bo‘lajak mutaxassis modeli ishlab chiqilgandagina uni samarali yechimini topish mumkin.

Adabiyotlar

1. Abduqodirov A., Pardaev A. Masofali o‘qitish nazariyasi va amaliyoti. Monografiya. – T.: Fan, 2009. 145 b. 4.
2. Abduqodirov A.A. Bo‘lajak o‘qituvchilarning axborot kommunikatsiya texnologiyalariga oid kompetentligi. ― Pedagogning shaxsiy va kasbiy axborot maydonini loyihalashda axborot kommunikatsiya texnologiyalariga oid kompetensiyalar mavzusidagi ilmiy-amaliy anjuman materialari. – T.: TDPU, 2015. 3 b.
3. Anarbaeva F.U., Qoraev A.F. Ta’lim jarayonini raqamlashtirish. Analytical Journal of Education and Development. Volume: 02 Issue: 07 Jul-2022 ISSN: 2181-2624. – B.6-9.
4. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta’lim jarayonlarini axborotlash-tirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti. Ped. fan. dokt. ... diss. – T.: 2007. – 305 b.
5. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta’lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti: Ped.fan.dok. ...diss. – T., 2007. – 305 b.
6. Hamidov J.A. Ta’lim jarayonida axborot texnologiyalarini qo‘llash o‘qitish samaradorligini oshirish omili // Kasb-hunar ta’limi.-Toshkent, 2013.- № 6.-B. 15-20.

ÖĞRETMENİN CİNSİYET TOLERANSI TÜRLERİ VE PEDAGOJİK ÖNEMİ

Joldasbaeva A.M.

Ajinyoz'un adını taşıyan Nukus Devlet Pedagoji Institutasi doktora öğrencisi

Hoşgörü kavramı çoğu bilimin araştırma nesnesidir. Ancak pedagogun hoşgörüsü de ayrı bir önem taşıyor. Bu nedenle geleceğin öğretmenlerinde cinsiyet yaklaşımına dayalı hoşgörülü bir dünya görüşünün oluşması, özellikle eğitim sisteminin öğrencinin kişiliğine yönlendirilmesi açısından önemlidir.

Bilim ve pedagoji camiası için öğretmen hoşgörüsü konusu çözüm bekleyen bir sorundur. Cinsiyet hoşgörüsü çözüm bekleyen karmaşık olgulardan biridir. Bu sorun kişilerarası ilişkiler alanına aittir. Öğretmen ve öğrencinin başarılı bir şekilde sosyalleşmesini sağlar. Öğretmenler günlük aktiviteleri sırasında öğrencilerle ilişkilerinde yeni sorunlarla ve geleneklerle karşı karşıya kalmaktadır. Bunları ortadan kaldırmanın yollarını bulmak için kadın ve erkek öğretmenlerin kendilerine göre hoşgörülü olmaları gerekiyor. Çünkü küreselleşme ve popüler kültürün etkisiyle öğrencilerin davranışlarında birçok değişiklik meydana gelmektedir.

Bazı öğretmenler öğrencileri çabuk anlar ve onları oldukları gibi kabul ederler. Diğerleri yavaş yavaş öğrencilerle ilişkiler geliştirir. Başka bir grup pedagog, öğrencilerle günlük etkileşimlerde sorunlarla karşılaşıyor. Kadın-erkek ilişkilerindeki değişimler, cinsiyet rollerinin dönüşümü kişilerarası ilişkilerde gerilim yaratmaktadır. Sonuç olarak erkekler, kadınlar, oğlan çocukları ve kız çocukları arasında yeni kişilerarası ilişki biçimleri ortaya çıkıyor. Öte yandan kız ve erkek çocuklar yaş özelliklerine göre gerekli bilgi düzeyine sahip değillerdir. Modern etno-sorunların özünü yeterince anlamıyorlar.

Ortak kültür ve psikolojik hazırlık eksikliği nedeniyle gelenek ve göreneklerle ilgili etkinliklere katılamıyorlar. Bu nedenle geleceğin öğretmenlerinin yetiştirilme sürecinde toplumsal cinsiyet yaklaşımı temelinde oluşturulan hoşgörünün spesifik yönlerinin belirlenmesi ihtiyacı artmaktadır. Bu amaçla, Yüksek öğretim kurumlarında cinsiyet hoşgörüsü kavramının kapsamlı bir analizi, bir davranış normları sistemi olarak genel ortaöğretim okullarındaki hoşgörünün temel özellikleri ve genel ortaöğretim kurumları öğretmenlerinin bireysel nitelikleri üzerine bir çalışma toplanmalıdır. bir indeks olarak değerlendirilmektedir.

Eğitim sürecinin cinsiyet farklılığını dikkate alarak düzenlenmesi modern pedagojinin önde gelen konularından biridir. Geleceğin öğretmenlerinde cinsiyet kimliğinin oluşumu karmaşık pedagojik sorunlardan biridir. Bu sorunun çözümü kişinin bireysel gelişimi içerisinde gerçekleştirilir. Bu sorunun çözümü birçok iç ve dış faktöre bağlıdır. Cinsiyet oluşumunun her yeni aşaması, bir kişide bağımsızlığın bir dizi yönünün ortaya çıkmasıyla ilişkilidir. Psikologlar (Mehrabiena N. Einstein), kadın öğretmenlerin empati düzeyinin yüksek, erkeklerin ise biraz düşük düzeyde olduğunu kaydetti. Çoğu öğretmen ortalama düzeyde empatiye sahiptir.

Öğretmenler arasında cinsiyet hoşgörüsünün çeşitli biçimleri gözlemlenmektedir.

- **algılanan cinsiyet hoşgörüsüzlüğü**. Bu tür öğretmenler öğrencilerdeki cinsiyet farklılıklarına karşı hoşgörüsüzdür. Bu tür öğretmenler sosyo-kültürel nedenlere ve kendi tecrübelerine dayanarak karşı cinsten olan öğrencilere belli inanç ve üstünlüklerle yaklaşmaktadırlar. Örneğin, bazı öğretmenler kızları desteklerken bazıları da erkeklere karşı benzersiz bir olumlu tutum sergiliyor.

- **gizli hoşgörüsüzlük**. Bu tür öğretmenlerde cinsiyet hoşgörüsüzlüğü gizlidir, tutumlarını açıkça ortaya koymazlar. Ancak bu durum onların erkek veya kız çocuklarına ilişkin düşüncelerine, tutumlarına ve eylemlerine yansır. Bu, şu veya bu cinsiyetten öğrenciler üzerindeki sosyo-pedagojik baskının artmasına neden olur.

- **pasif cinsiyet hoşgörüsü**. Bu tür öğretmenler, öğrenciler arasında cinsiyet eşitliğini tanıdıklarını açıkça ortaya koymamakla birlikte, gerekli durumlarda belirli bir cinsiyetten olan öğrencilere destek vermemektedirler. Bu durum öğretmenin toplumsal cinsiyet sorununa ilişkin teori ve bilimsel yaklaşımlardan yeterince haberdar olmamasıyla açıklanmaktadır.

- **algılanan cinsiyet hoşgörüsü.** Bu beceri, öğrenciler arasında toplumsal cinsiyet eşitliği ve katılıma yönelik tutumlarla ifade edildi. Bu tür öğretmenler stereotipleri ortadan

kaldırma, öğrenciler arasında cinsiyet eşitliğini tanıma ve haklarını koruma becerilerinin ortaya çıkmasını sağlar.

-Aktif cinsiyet toleransı. Bu tür öğretmenler yalnızca öğrenciler arasındaki cinsiyet eşitliğinin özünü anlamakla kalmaz, aynı zamanda onların çalışmalarında inisiyatif ve özgünlüğünü de destekler. Başarılarından memnun olarak onları aktif olmaya teşvik ederler. Bu öğretmenler pedagojik faaliyetlerini toplumsal cinsiyet gerçeğini korumaya adamıştır.

Öğretmenlerin öğrencilerle, velilerle ve pedagojik ekiple olan etkileşimlerinde her zaman hoşgörülü olmaları son derece gereklidir. Öncelikle öğrencileriyle tam teşekküllü, eşit bir diyalog kurabilmeleri önemli. Ancak o zaman hoşgörü, öğretmenin önemli bir mesleki niteliğinin yanı sıra mesleki yeterliliğin ve sosyalleşmenin bir ifadesi olarak ortaya çıkar.

Referanslar

1. Бендас Т.В. Гендерная психология /Т.В. Бендас. – СПб.: Питер, 2005. – 431 с.
2. Гаспарян Ю.А. Институт семьи: Проблемы обновления, развития /Ю.А. Гаспарян. - СПб.: Наука, 2007. – 344 с.
3. Ильин Е.П. Дифференциальная психофизиология мужчины и женщины /Е.П. Ильин. - СПб.: Питер, 2012. – 322 с.
4. Вариации на тему Гендера: Материалы III межвузовской конференции молодых исследователей «Гендерные отношения в современном российском обществе» /Отв . ред. Т.А.Мелешко, М .В. Рабжаева.- СПб. : Алтейя, 2004.
5. Берн Ш. Гендерная психология. Законы мужского и женского поведения / Шон Берн – СПб.: Прайм-ЕВРОЗНАК, 2007. – 318 с.
6. Клецина И.С. Гендерная социализация. Учебное пособие/И.С. Клецина. – М.: Эксмо, 2011. – 258с.
7. Словарь гендерных терминов./Под ред. А. А. Денисовой. -М.: ВЛАДОС, 2012. – 308 с.
8. Ким Л. Влияние социальных факторов на понимание гендерных ролей /Л. Клим. - Будапешт, Ташкент, 2012. – 285с.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘QUVCHILARDA TARBIYA DARSLARIDA YETUK INSON MOTIVINI RIVOJLANTIRISH (Xususiy maktablar misolida)

Suleymanova M.P.
Nukus innovatsion instituti assistent o‘qituvchi

